


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH  
ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**« JAXON SIYOSATI »**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA**

**Toshkent 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchi: O‘zDJTU, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi dotsent MUITOV Davron

Taqrizchilar: S.f.d., professor A. Mo‘minov  
S.f.d., professor I. Ergashev

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan**  
*(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)*

## MUNDARIJA

|   |            |
|---|------------|
| <b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>  | <b>4</b>   |
| <b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL<br/>TA’LIM METODLARI .....</b> | <b>11</b>  |
| <b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>                                    | <b>14</b>  |
| <b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>                                      | <b>99</b>  |
| <b>V. GLOSSARIY.....</b>  | <b>109</b> |
| <b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>   | <b>118</b> |

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy metodik

darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:**

- "Jahon siyosati" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

"Jahon siyosati" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

**Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi: **Tinglovchi:**

- jahon siyosati tarixi, jahon siyosati subyektlarini;

- jahon siyosiy tizimining tuzilmasini;

- jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalarini;

- jahon siyosatida shaxsning rolini;

- siyosiy menejmentning genezisi va bugungi holatini;

- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar va prinsiplarni;

- O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan olib borayotgan o'zaro manfaatli tashqi siyosatining mazmun-mohiyatini;

- MDH mamlakatlari bilan munosabatlarining siyosiy yo'nalishlarini;

- istiqbolga mo'ljallangan siyosiy prognozlarning mohiyatini **bilishi** kerak.

- globallashuvning zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishiga ta'siri masalalarini tahlil etish;

- zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalarining mohiyatini tushuntira olish;

- integratsion va zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni sharhlash;

- jahon siyosatida hokimiyat uchun kurashning oqibatlarini tadqiq etish;

- jahon siyosati va uning Markaziy Osiyo davlatlariga ta'siri masalasini tahlil etish;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini o‘rganish;
- siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish borasidagi bilimlarni davomli mustahkamlash;
- jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi, Yaqin Sharq davlatlari hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tutgan o‘rmini ilmiy faktlarga asoslangan holda aniqlash;
- jahon siyosatida islom omilining tutgan o‘rinini ochib berish;
- saylov texnologiyalari va siyosiy kommunikatsiyalarning jamiyat hayotidagi mavqeini o‘rganish;
- siyosiy menejment va OAV o‘rtasidagi munosabatlarning mohiyatini o‘rganish;
- O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi faoliyati va istiqbollari belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari bilan yaqindan tanishish va ularning amaliy ahamiyatini mustaqkamlash kabi *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi lozim.
- jahon hamjamiyati va jahon siyosatining uzviyligini anglash;
- zamonaviy geosiyosiy jarayonlar va xalqaro xavfsizlik masalasini ko‘rib chiqishi;
- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalish va prinsiplarni targ‘ib etish;
- O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar bilan olib borayotgan tashqi siyosatining amaliy ahamiyati to‘g‘risida o‘quv-video materiallar tayyorlash;
- qo‘shni mamlakatlar bilan siyosiy, ilmiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini targ‘ib etish;
- MDH mamlakatlari bilan munosabatlarning siyosiy yo‘nalishlari, siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish;
- milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlatning imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyondalar qarashlarni va ularning nazariy merosini tahlil etish bo‘yicha *malakalariga* ega bo‘lishi lozim.
- Tinglovchi:
  - jahon siyosatida shaxsning roli, jahon hamjamiyati va jahon siyosati, jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash masalalari mohiyatini targ‘ib etish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlari: Amerika Qo‘shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to‘plash va o‘tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa

kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari. Kreditmodul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti. Sillabus. Ta'lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta'lim natijalarini baholash usullari.

Ta'lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'limtarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim (mutaxassislik) yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standarti, o'quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv rejalar va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Xalqaro tizimlarda O'zbekiston manfaatlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Jahon siyosati”, “Siyosiy menejment”, o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish hamda ularning ijtimoiy himoya tizimi haqida bilish va ulardan foydalanish bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonida yetim va otaona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda ular bilan ijtimoiy ish olib borish usullaridan foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| №  | Modul mavzulari  | Auditoriya uquv yuklamasi |          |                |                 |
|----|--|---------------------------|----------|----------------|-----------------|
|    |  | Жами                      | jumladan |                |                 |
|    |  |                           | Назарий  | Амаий машғулот | Кўчма машғулоти |
| 1. | Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh. Fanning predmeti, obyekti va paradigmasi. Jahon siyosati subyektlari. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi. Jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari                       | 6                         | 4        | 2              |                 |
| 2. | Globalashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari. Jahon siyosatida shaxsning roli. Jahon hamjamiyati va jahon siyosati.                        | 4                         | 2        | 2              |                 |
| 3  | Jahon siyosatida ko'p tomonlama formatlar. Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar                                       | 4                         | 2        | 2              |                 |
| 4  | Siyosiy fanlarning asosiy namoyandalarining qarashlari va siyosiy konsepsiyalar. Jahonning asosiy madaniy-tarixiy markazlari va mintaqalari, ularning taraqqiyot qonuniyatlari. Geosiyosatning asosiy parametrlari | 6                         | 2        | 4              |                 |
| 5  | Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Jahon siyosatida Yaqin Sharq davlatlari. Jahon siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili                     | 6                         | 2        | 4              |                 |
|    | Jami:  | 26                        | 12       | 14             |                 |

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh. Fanning predmeti, obyekti va paradigmasi. Jahon siyosati subyektlari. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi. Jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari (4 soat)**



Jahon siyosati zamonaviy tarixini anglash. Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh. Fanning predmeti, obyekti va paradigmasi. Jahon siyosati subyektlari. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi. Jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari. Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Jaxon siyosatining geosiyosiy tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Harakatlar strategiyasi - O'zbekiston tashqi siyosati taraqqiётning yuqori bosqichi. Harakatlar strategiyasi geosiyosiy tushunchalari, O'zbekiston tashqi siyosati.

**2-mavzu: Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari.**

**Jahon siyosatida shaxsning roli. Jahon hamjamiyati va jahon siyosati.**

**Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash (2 soat)**

Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari. Jahon siyosatida shaxsning roli. Jahon hamjamiyati va jahon siyosati. Zamonaviy jahon tartiboti va uning geosiyosiy va jurnalistik tahlili .

**3-mavzu: Jahon siyosatida ko'p tomonlama formatlar. Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar (2 soat)**

Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash. Jahon siyosatida ko'p tomonlama formatlar. Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash va jahon siyosati. Jahon siyosiy jarayonida jahon iqtisodi muammosi. Jahon siyosati va xalqaro xavfsizlik. Jahon siyosati va Markaziy Osiyo. Markaziy Osiyo – yagona geosiyosiy fenomen. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi salohiyati. Submintaqaviy geosiyosiy markazlar, davlatlararo birlashmalar. Mintaqaviy ixtisoslashuv, geosiyosatning mintaqaviy pozitsiyasi.

**4-mavzu: Siyosiy fanlarning asosiy namoyandalarining qarashlari va siyosiy konsepsiyalar. Jahonning asosiy madaniy-tarixiy markazlari va mintaqalari, ularning taraqqiyot qonuniyatlari.**

**Geosiyosatning asosiy parametrlari. (2 soat)**

Siyosiy fanlarning asosiy namoyandalarining qarashlari va siyosiy konsepsiyalar. Jahonning asosiy madaniy-tarixiy markazlari va mintaqalari, ularning taraqqiyot qonuniyatlari. Geomafkuraviy konsepsiyalar. O'lkamizda "Katta o'yin" tarixi. Jahon siyosatida mafkuraviy kelishmovchiliklar. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar.

**5-mavzu: Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Jahon siyosatida Yaqin Sharq davlatlari. Jahon siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili (2 soat).**

BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida Prezident SH.Mirziyovning yoshlar omiliga doir tashabbuslari. Axborot asrida barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi. Jahon geosiyosati asosiy parametrlari. Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Jahon siyosatida Yaqin Sharq davlatlari. Jahon siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili. Yoshlar dunyoqarashi uchun kurash masalasining dolzarblashuvi.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg'ulot.** Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh. Fanning predmeti, obyekti va paradigmasi. Jahon siyosati subyektlari. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi. Jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari. (2 soat).

**2-amaliy mashg'ulot.** Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari. Jahon siyosatida shaxsning roli. Jahon hamjamiyati va jahon siyosati. (2 soat).

**3-amaliy mashg'ulot.** Jahon siyosatida ko'p tomonlama formatlar. Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar. (2 soat).

**4-amaliy mashg'ulot.** Siyosiy fanlarning asosiy namoyandalarining qarashlari va siyosiy konsepsiyalar. Jahonning asosiy madaniy-tarixiy markazlari va mintaqalari, ularning taraqqiyot qonuniyatlari. Geosiyosatning asosiy parametrlari. (4 soat).

**5-amaliy mashg'ulot.** Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Jahon siyosatida Yaqin Sharq davlatlari. Jahon siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili. (4 soat).

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); - davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); - bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatma materialga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu vakunlanadi.

#### Namuna:

| Tahlil turlarining qiyosiy tahlili |                 |                  |
|------------------------------------|-----------------|------------------|
| Tizimli tahlil                     | Syujetli tahlil | Vaziyatli tahlil |

| Afzalligi   | kamchiligi   | afzalligi   | kamchiligi   | afzalligi   | kamchiligi   |
|---|--|---|--|---|--|
| Mummoni kelib chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o'rganish imkoniyatiga ega | Alohida tayyorgarlikka ega bo'lishni, ko'p vaqt ajratishni talab etadi | O'z vaqtida munosabat bildirish imkoniyatini beradi | Munosabat boshqa bir syujetga nisbatan qo'llanishga yaroqsiz | Vaziyat ishtirokchilarining (obyekt va subyekt) vazifalarini belgilab olish imkonini beradi | Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo'llab bo'lmaydi |

**Xulosa:** Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.

### “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

□



□

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### **Namuna.**

**Fikr:** "Tizim atrof muhitdan ajralgan, u bilan yaxlit ta'sirlashuvchi, bir-biri bilan o'zaro bog'langan elementlar majmuasi bo'lib, tadqiqotlar obyekti sanaladi".

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### **"Assesment" metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin. **Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javobni baholash mumkin.



#### **Тест**

- 1. Тизим қандай сўздан олинган?
- A. modulus
- B. modulis
- C. model



#### **Қиёсий таҳлил**

- Оптнер, Квейд, Янг, SR, Голубков моделларини ўзига хос жиҳатларини ажратинг?



#### **Тушунча таҳлили**

- Механик тизим тушунчасини изоҳланг



#### **Амалий кўникма**

Тизимли таҳлли амалга ошириш учун мавжуд таҳлил моделларида "SR-моделини қўллаш тартибини биласизми?

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### 1 MAVZU: JAHON SIYOSATI TARIXIGA UMUMIY SHARH. FANNING PREDMETI, OBYEKTI VA PARADIGMASI. JAHON SIYOSATI SUBYEKTLARI. JAHON SIYOSIY TIZIMINING TUZILMASI. JAHON RIVOJLANISHINING UMUMIY TENDENSIYALARI

##### Reja:

1. Jaxon siyosati zamonaviy tarixini anglash.
2. Jaxon siyosatining geosiyosiy tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
3. Xarakatlar strategiyasi - tashki siyosat taraqqiётning yuqori bosqichi.

*Tayanch so‘zlar: Jaxon siyosati, Jaxon siyosati zamonaviy tarixi, Xarakatlar strategiyasi, geosiyosiy tushunchalari, O‘zbekiston tashki siyosati*

##### 1. Jaxon siyosati zamonaviy tarixni anglash

*Jahon siyosati - xalqaro huquqning asosiy subyektlari o‘rtasidagi faol siyosiy faoliyatlar majmuasidir. Xalqaro siyosat tuzilishi jihatidan suveren, mustaqil milliy davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatn, mintaqaviy davlatlararo va jamoatchilik tuzilmalari, guruhleri va ittifoqdoshlar o‘rtasidagi aloqalarni hamda umumbashariy miqyosda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va muassasalar faoliyatlarini qamrab oladi.*

Shubhasiz bugun jamiyatimiz harakatlar strategiyasi tamoyillarini milliy g‘oya darajasida qabul qildi. Endi Odamlarni rozi qilish yo‘lidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari oldinga jadal surilmoqda. Bu shiddat va surat g‘oyaviy jihatdan chinakamiga jamiyat tafakkuri va dunyoqarashiga yangi yuksalish haqidagi ma’naviy marifiy ozuqani berdi. Odamlarni ko‘nglidan joy ola olgan takliflar , qarashlar, g‘oyalar konsepsiyalar davrida yashayapmiz. Endilikdagi yangi yuksalish mafkuraviy qarashlarimizda xalqimizni yangitdan birlashtiruvchi va safarbarlik qudrati bilan o‘zini namoyon qiladigan yangidan yangi ilmiy g‘oyalarga ehtiyoj kuchayib boraveradi . Yangilanayotgan O‘zbekiston siyosiy imidji xaqida kurashadigan vaqt keldi. Bugun harakatlar strategiyasi davrida O‘zbekiston o‘zini jahon siyosatida barcha dolzarb masalalarni o‘zaro manfaatdorlik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslangan holda, muzokaralar yo‘li bilan xalqaro huquq normalariga mos

ravishda xalq etish tarafdori sifatida namoyon qilmoqda. Demak ta'lim tarbiya, ma'naviy ma'rifiy ishlar sohasidagi ilmiy -innovatsion islohotlar O'zbekistonni kuchli mamlakat sifatida xalqaro axboriy jarayonlarga jalb qilish amaliyotini toqozo qiladi. Ikkinchidan jahonda yuz berayotgan ulkan geosiyosiy o'zgarishlarni o'z vaqtida anglash va unga faqat va faqat O'zbekiston milliy manfaatlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish fazilatlarini yosh jurnalist kadrlarda shakllantirish - davlat kadrlar tayyorlash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan OAV orqali turli geosiyosiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirishda milliy manfaatlar qadriyatini anglash yo'lga jadal o'tishimiz joiz. Geosiyosiy tadqiqotlarning asosiy ilmiy yo'nalishlari bo'yicha yangi ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilmoqda. Bularning natijasida geosiyosat va jurnalistika fani subyekt va obyekt, uning zamonaviy axborot asri bilan bog'liq yangi kategorial tushunchalari paydo bo'ldi. Ayniqsa geosiyosat fani funksiyalari tufayli O'zbekiston hududida axboriy omillarni tahlil etish barobarida muhim ilmiy -amaliy yo'nalishlarni o'zlashtirishga imkoniyat kengayib ketdi. Ayni bu holat bu dunyo-dagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalarda yuz berayotgan jarayonlarni to'g'ri va aniq tushuna oladigan, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlaridan samarali foydalanadigan, davlat tomonidan xalqaro maydonda qo'yilgan maqsad va vazifalarning mazmun-mohiyatini anglab yetadigan, professional kasbiy malakasi yukori bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlash va yetkazib berish tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Zotan hozirgi global axborotlashuv asrida o'z geosiyosiy maqsadlari yo'lida biron-bir davlat hududiga harbiy kuch bilan bostirib kirishdan ko'ra g'oyaviy tajovuz usulini ko'llash eng qulay vosita darajasiga aylanmoqda. Har holda keyingi yillarda ba'zi yosh mustaqil mamlakatlarda demokratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarur, deya butun dunyoga jar solayotgan kuchlar geosiyosiy da'volarining mohiyatini anglay boshladik. Aslida, bunday siyosiy texnologiyalar ortida butun jahonga hukmronlik kilishdek uzokqa mo'ljallangan geosiyosiy, strategik va iqtisodiy maqsad - manfaatlar turgani tobora ayon bo'lib bormokda.

Demak, geosiyosiy tadqiqotlarning metodlari, mavjud nazariy qarashlar, ular bo'yicha xrestomatik adabiyotlar bilan chuqur tanishtirish o'zbek xalqaro jurnalistika sohasining muhim yo'nalishiga aylanishi joizdir.

Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlaridagi inson va tabiiy resurslar hajmi va mineral xom ashyoni iste'mol qilish ko'lami o'rtasida ulkan nomutanosiblik mavjud. Mineral resurslarning asosiy qismi sanoati rivojlangan mamlakatlarda iste'mol qilinib, xom-ashyo oqimlari, asosan, Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa davlatlari sari yo'naltirilgan. Jahon resurslarining yana 30 foizini G'arbiy Yevropa, Kanada va Yaponiya iste'mol qiladi. Bu mamlakatlarda jahon

aholisining 9 foizi istiqomat kiladi. Bunga qarama-karshi o'laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda jahon aholisining 60 foizi istiqomat qilsada, bu mamlakatlar evaziga zaminimizdagi tabiiy resurslarning bor-yo'g'i 16 foizi to'g'ri kelmoqda. "Uchinchi dunyo" mavzusi o'tkirlashdi. Janub bilan shimol o'rtasidagi nomutanosiblik jahon siyosatiga tahdid solmoqda. Demak rivojlangan mamlakatlar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ko'shimcha resurslar izlaydilar va bunday resurslar joylashgan xududlarni o'z ta'sir doirasiga olishga intiladilar.

Bugun xalqaro maydonda siyosiy va iqtisodiy kuchlar nisbati o'zgarayotgan, uning mintaqaviy va global miqyosda xavfsizlikni ta'minlash jarayonlari uchun oldindan ko'ra bilish qiyin bo'lgan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan bir davrda yashamoqdamiz.

Xavfsizlikka rahna solayotgan an'anaviy va noan'anaviy tahdidlar turi kengayib bormoqda, O'zbekiston chegaralari yaqinida keskinlik va tanglik o'choqlarining saqlanib qolmoqda. Bizga yaqin bo'lgan muhim mintaqalarida yangi qurolli mojarolar va nizolarga olib keluvchi vaziyatlarning ko'payib borishi havfi mavjud. Dunyoda to'xtovsiz davom etayotgan «geosiyosiy o'yinlar», tobora jadal tus olib borayotgan «geosiyosiy raqobat» jahondagi keskinlik va strategik mavhumlikni kuchaytiradi. Ayrim xalqaro subyektlarning qisqa muddatli va tor doiradagi manfaatlarni ko'zlovchi shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilayotgan tartibsiz harakatlari xalqaro huquqning fundamental prinsiplari buzilishiga olib kelmoqda.

Davlatlarning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berish, jumladan iqtisodiyot, energetika, ekologiya, oziq-ovqat bilan ta'minlash, axborot almashish, gumanitar xavfsizlik sohalarida turli xavf-xatarlar yuzaga keldi. Iqtisodiy taraqqiyot markazining Osiyo tomon siljishi, strategik resurslar uchun kurashning keskinlashuvi, dunyo mamlakatlari va mintaqalari o'rtasidagi rivojlanishdagi farq kuchayib bormoqda. Buyuk davlatchilik tafakkuri ta'siri ostida yosh mustakil davlatlarda demokratiya tankisligini ro'kach qilib, bu mamlakatlardagi demokratlantirish jarayonlariga "ustozlik" kilishga da'vo qilayotgan, ularni o'z yo'rig'iga solishga urinayotgan ayrim quchlarning harakatlari insoniyatni tashvishga solmasligi mumkin emas. XXI asrda bu texnologiyalar "arab bahori", "rangli inqiloblar" maqomini oldi va "demokratiya eksporti" strategiyasining taktik bosqichlaridan biriga aylantirildi. ...Demak, shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi dunyoda milliy xavfsizligimizni ta'minlash nafaqat yon-atrofimizda yuz berayotgan jarayon va hodisalarga munosib javob berish, balki ularning salbiy oqibatlarini o'z vaqtida oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan extimoliy xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilib, tegishli extiyot choralarini ishlab chiqish va tahdidlarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi mustaqil davlatlar suverenitetiga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor



g'oyalarni geosiyosat va jurnalistika fani orqali bilish, anglash unga munosabat bildira olishni muhim vazifaga aylantiradi.

## **2. Jaxon siyosatining geosiyosiy tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

### **GEOSIYOSAT VA JURNALISTIKA FANIGA ZARURAT**

XX asrning global geosiyosiy muhitidagi agressorning asosiy ishlab chiqarish sanoatini yakson etish, hududlarni zabt etish bilan bog'liq mazmuni bugunga kelib o'zgardi. Axboriy jamiyatda makonni nazorat qilishning asosiy vositasi shaxs ustidan ma'naviy-mafkuraviy nazorat qilish isbotlangan haqiqatga aylandi. YA'ni asosiy maqsad – bir qator muayyan millat va xalqlarning dunyoqarashini boshqarish bo'lib qoldi. Ayniqsa xalqaro jurnalistik tahlillardagi makon uchun kurashning axborot maydonida yaqqol namoyon bo'la boshlashi - postklassik geosiyosat to'g'risida ilmiy qarashlarga o'zgarishlar kiritishi joiz edi. Axborot inqilobi davrida xuddi shu madaniy-ma'naviy, milliy-ruhiy omillarga e'tibor berish zo'raydi.

*Zotan, hozirgi kunda makon uchun olib borilayotgan axborot urushlarining asosiy g'oyasi – geosiyosiy raqiblarga oldindan rejalashtirilgan va dasturlashtirilgan dunyoning axboriy qiyofasini majburan singdirish, shu tufayli uning boshqaruv tizimini butunlay boshqarishga harakatlar – geosiyosat va jurnalistika yo'nalishidagi tadqiqotlarni tubdan yangilab borishni talab etmoqda.*

Qolaversa, jahon siyosatida sovuq urush davridan beri yangi geosiyosiy e'tiqod “Raqibning dunyoqarashini anglash va bilish obyektiv reallikdan muhimroqdir” degan g'oya tinimsiz oldinga surilib kelindi. Har holda yaqin o'tmishda geosiyosat uchun yer makoni (borliqning) kartografiyasi muhim omil bo'lgan bo'lsa, endi geosiyosatning asosiy diqqat markazini inson qalbi muammosi egallay boshladi.

Qizig'i va muhimi, axborot inqilobi globallashuv jarayonlari taraqqiyoti barobarida yuz bermoqda. Bu, albatta, turli mintaqa va mamlakatlar o'rtasidagi an'anaviy to'siqlarning muayyan darajada sidirilib, yuvilib ketishiga sabab bo'layotir. Har holda uchinchi ming yillikda xalqaro xavfsizlikning barcha asosiy parametrlari o'zgarimoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan, qurollanish poygasini to'xtatish kabi omillarga bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda “noan'anaviy” tahdidlar bilan kurashish birinchi o'ringa chiqdi<sup>1</sup>. Agar o'tmishda strategik jihatdan joylarda razvedka va kontrazvedka ustuvorlik qilgan bo'lsa, endilikda ularning o'rnini axborot oqimlarini tahlil qilish omili egalladi. Ular orasidan agressiv - buzg'unchi

---

<sup>1</sup> Халқаро терроризм, трансмиллий жиноятчилик, ноқонуний миграция, ахборий диверсиялар шулар жумласига киритилмоқда.

axborot yoʻnalishlarini belgilab olib olish, oʻz vaqtida fosh qilish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi.

*Jurnalistika olamidagi yangi voqeliklar geosiyosatchilar oldida yangi noanʻanaviy muammoni koʻndalang qoʻya boshladi: bu axboriy xurujning geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolini tahlil qilish muammosidir.* Binobarin bugungi kunga kelib ayni axboriy taʼsir va tazyiq oʻtkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potentsiali – milliy mentalitet, milliy madaniyat, odamlarning ahloqiy-maʼnaviy qiyofasini oʻzgartirib tashlash qudratiga ega boʻlmoqda.

Ikkinchidan, milliy psixologiya va tafakkur qiyofasining oʻzga kuchlar tomonidan oʻzgartirilishi global tahdid darajasiga yetdi. Shunday qilib, axborot makonidagi maʼnaviy-madaniy muammolar abstrakt nazariy emas, balki geosiyosiy mohiyat kasb etmoqda. Tajovuzkor gʻoyalarning hududiy chegaradan chetlab oʻtib, ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalarining vujudga kelishi harbiy harakatlar teatrini turli tamaddunlarning milliy-tarixiy, ruhiy-madaniy olamiga tahdid qilishi bilan koʻzga tashlanmoqda.

Inson-sivilizatsiya-madaniyat tushunchalari doirasidagi oʻzlikdan voz kechish istagi yetakchi davlatlar murakkab axborot tizimlarining majburiy elementi sifatida kiritilmoqda. Maqsadli axborot taʼsiri orqali milliy oʻzlikdan voz kechtirish mexanizmini ishga tushirish yoʻliga oʻtildi, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalanilmoqda.

*Bugun internet, ommaviy axborot kommunikatsiyalari, reklamadan iborat boʻlgan zamonaviy axborot makoni – bu axborot orqali boshqariladigan yaxlit bir dunyoga aylandi.*

*XXI asrda “koʻzga koʻrinmas” axboriy taʼsir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada oʻzgartirishi mumkin?*

Hozirgi paytda boshqa davlat va kuchlarga taʼsir oʻtkazishning barcha instrumentlaridan foydalanish asosiy maqsad sifatida yetakchi davlatlar tomonidan oldinga surilmoqda. Global liderlikka intilish yoki ular tomonidan belgilanayotgan qadriyatlarni qabul qilish, “demokratiya eksporti” – gʻarbna demokratik ideal va qadriyatlarni singdira borish, liberal demokratiyani tarqatish tufayli gʻarbna qadriyatlar quvvatining oshirilishi kabi tushunchalar jurnalistik tahlillarning diqqat markazidan oʻrin egalladi. YAʼni, dunyo jurnalistikasi geosiyosiy kurashning virtual maydoniga aylanib ulgurdi. U bir koʻrinishda beozordek tuyulasada, aslida shafqatsiz va ayovsiz fenomen tusini oldi. Bugun ommaviy axborot vositalarida “yovuzlik oʻqi” deb singdirilgan qator-qator davlatlar beqarorlik, yovuzlik, kambagʻallik, nochorlik oʻchogʻiga aylanayotganligi – taassufki, navbatdagi “antiterror” operatsiyalarning natijalaridan ravshanlashib bormoqda.

Uchinchidan, axborot makonidagi geosiyosiy gʻoya va qarashlarning tahlili odatdagi siyosiy tahlillarga nisbatan oʻziga xos dinamik yondashuvlarni talab etishi sezilmoqda. Bunda axborot makonida haqiqatni yolgʻondan farqlay olish uchun

geosiyosiy g'oyalarning to'qnashuvi bo'ladigan "kuch maydonlari"ni doimiy ravishda kuzatish talab qilinadi. Ularning kutilmagan vaziyatlarda bir-biriga qarshi bosimini anglash ko'p jihatdan geosiyosiy bashoratlarimizda asqotadi. Jumladan, bu yerda jahon axborot makonida kuchlar nisbatini bilib borish muhim ahamiyatga ega. Virtual kurash natijalari ko'pincha shu nisbatga bog'liq bo'lib qolayotir.

*Bugun geosiyosatning axborot konsepsiyalari shuni anglatmoqdaki, davlatlar o'rtasidagi makoniy munosabatlar endilikda virtual makondagi axborot ustunligi bilan belgilanib boradi. Ayni shu ma'noda geosiyosiy strategiyani ishlab chiqish axboriy-mafkuraviy ustunlikka asoslangan operativ konsepsiyani yaratish bilan namoyon bo'ladi..*

Shu tariqa xalqaro siyosatda mustaqil davlatlarning kuch-qudratini axborot texnologiyalari yordamida o'stirish, bu borada barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish amaliyoti haqida bahs-munozaralar ko'paydi. Albatta bu holat kurashning real makondan virtual makonga o'tishini qizg'in bosqichga olib kelmoqda. Aslida bu XXI asr siyosat olamidagi o'ziga xos geosiyosiy inqilob edi. Bugun esa uni geosiyosat va jurnalistika fanlari uyg'unligida anglash va bilish, tafakkur qilish vaqti yetib keldi. Jahon geosiyosiy sahnalaridagi raqobat shuni talab etadi. Birinchi navbatda tabiiy energiya resurslari uchun bo'layotgan kurash uning axboriy ta'minotida yangidan-yangi ssenariylarni oldinga surishi aniqlandi: gohida zimdan, gohida oshkora ochiq oydin oldinga surilayotgan geosiyosiy maqsadlarning mag'zi buni tasdiqlab turibdi. Demak dunyoga kim ustunlik qiladi, - degan masala ayni yetakchi davlatlar axborot siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi. Dunyoga hukmronlik qilishning eng samarali va arzon vositasi yana bir bor axborot institutlariga borib taqalishi isbot talab qilmaydigan siyosiy aksiomaga aylandi.

Albatta, bunday qarashlar mustaqillik, milliy va davlat manfaatlari borasidagi qizg'in, bahstlab konsepsiyalarni rivojlantirishga, geosiyosat va jurnalistika haqidagi ilmiy nazariy tasavvurlarimizni kengaytirib borishga chorlashi joiz.

Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish ikoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o'tishga yo'l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televideniye esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yanada yangi sifatli bosqichga ko'tardi.

OAV bu so'z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o'quvchilar auditoriyasining kengligi kabi

xususiyatlar xosdir. Tahlillarda shu nuqtai nazardan OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o‘sganligiga e’tibor qaratilmoqda.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko‘rsatishi ham uning ta’sir doirasini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

1980 yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug‘ullanadi. Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug‘ullanadigan 14 kabel va sputnik kanallari, 2 ta radiostansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko‘rsatmoqda. CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniga ega. 1991 yilning yanvarda aynan CNN yordamida Fors ko‘rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teleefirga olib berildi. 2001 yilning 11 sentabrdagi terrorchilik amaliyoti haqidagi telesyujetlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqea sodir etilgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatib turildi.

Bi-bi-si eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 yaqin jurnallar tegishlidir. BBC 40 dan ortiq tillarda eshittirishlar olib boradi.

Reyter axborot agentligida dunyoning 91 mamlakatida 14000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyter agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 ta byurosiga ega. Agentlikning xabarlaridan har kuni 1 milliard odam tanishadi.<sup>1</sup>

Hozirgi davrda sun’iy yo‘ldosh axborot uzatishning eng qulay va samarali vositasi bo‘lib qoldi. Ammo u qulay bo‘lsa-da, “cho‘ntakbop” emas: juda katta mablag‘ talab etadigan sun’iy yo‘ldoshga hamma davlat ham egalik qilolmaydi. Shu bois fazodagi sun’iy yo‘ldoshlar bir nechagina davlatga qarashli: AQSH (30 ta), Yaponiya (21 ta), Rossiya (12 ta), Xitoy (9 ta), Hindiston (9 ta). Lekin axborot uzatishning asosiy vositasi sanoqli davlatlar qo‘lida to‘plangani boshqalarning ham ular aytayotgan “qo‘shiq”ka jo‘r bo‘lishini taqozo etadi.<sup>2</sup>

Ushbu misollar bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini tasavvur qilish imkonini beradi. Axborot inqilobining hosilasi juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko‘rish mumkin. Radio, televideniye, internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda.

Yuqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni

---

<sup>1</sup> Очилдиев А. Глобализация и мафкуравий жараёнлар. “Мухаррир”, Тошкент: 2009, 77-79-бетлар.

<sup>2</sup> Ёқубов С. Аxborot жамияти: ҳаёлот эмас, ҳақиқат. // “Тафаккур” журнали, 4-сон, 2007 йил, 15-бет.

tarqatishning muhim bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi. Xususan, radio, televideniye, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma'lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishi qiyin. OAV odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. OAVning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib kelganini ta'kidlash zarur.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo'q qilmagan, katta harajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqatni kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatrlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'sir o'tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televideniye fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda<sup>1</sup>.

Geosiyosiy konfliktlar tarixi esa geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvida jurnalistika instituti hech qachon to'liq mustaqil bo'la olmasligini tasdiqladi. Ularning qaramlik darajasi esa nazorat qiluvchi muayyan xalqaro korporatsiya, sanoat va moliya guruhlari, jumladan , turli davlatlar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning siyosiy jihatdan nazoratiga bog'liq holda o'z yechimini topmoqda. Yana bir tomoni, bunday paytda OAVdan ko'proq foyda olish ayni yetakchi davlatlardagi matbuot erkinligining darajasiga ham bog'liq bo'lib qolayotir. Kundan-kunga zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan ularning faoliyatini nazorat qilish qiyinlashib boraveradi. Shuningdek, bugun rivojlangan davlatlarning har qanday fuqarosi tele-radio kanallar, internet tarmog'i va boshqa axborot manbalaridan turli xil axborotni olish huquqi va imkoniyatiga ega. *Hozir OAVning geosiyosiy manfaatlarni oldinga surilishdagi rolini oydinlashtirish masalasi jiddiy tus olgan davr. U mazkur masalada ham geosiyosiy tahlillarning zaruriyatini tasdiqlaydi.*

Bugun ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo'liga o'tilgan. Albatta shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan OAV turli davlatlar haqida hududiy

---

<sup>1</sup> Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. "Мухаррир", Тошкент: 2009, 79-бет.

tasavvurlarni rivojlantirishi, kayfiyatlarni o'zgartirib turishi, aholining keng qatlamida tarqala olish imkoniyatiga ega.

*OAVning bu imkoniyati ijtimoiy fikrni shakllantirishda juda qo'l keladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u geosiyosiy o'yinchilarning o'yinchog'iga aylanishi hech gap emas. Bu jarayonda transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar kabi boshqa turli aktorlarning teng ishtirok etishga intilishi sezilmoqda. Shu tariqa, hozir turfa xil mafkuralarni tarqatish OAVning birinchi darajali vazifalari jumlasiga kiradi. Natijada, tarqatilgan axborot gazeta-jurnal, radio-televideniye, audio-video kassetalar va internet tarmog'i orqali belgilangan geosiyosiy vazifalarni bajara boshlaydi.*

Istiqbolda shu shaklda OAV uzoq vaqt turli xil geosiyosiy maqsadlarni ilgari surishda muhim ishtirokchi bo'lishi kutilmoqda. Bu zamonaviy geosiyosiy maktablar oldida ma'rifatli jamiyatga mos keluvchi geosiyosatning yangi mezonlarini ishlab chiqish vazifasini ham dolzarblashtiradi. Bu holatda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, televideniyeining geosiyosiy jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazishini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

*Televideniye bugungi zamonaviy jamiyatda siyosiy madadni ta'minlash uchun asosiy va qudratli vosita vazifasini o'tamoqda, ular siyosiy kompaniyalarni tashkil qiluvchi quyidagi sifatlarga ega, ya'ni<sup>1</sup>:*

*- siyosiy ma'lumotlarni zudlik bilan cheklanmagan hajmda yetkaza olish qobiliyati;*

*- siyosiy ma'lumotni har qanday insonga mos ravishda, uning uyiga hech qanday maxsus va ko'zlangan sarf harajatlarsiz o'zlashtirishni talab qilmaydigan tezkor shakliga ega.*

Bugungi siyosiy jarayonning asosiy ishtirokchilari siyosiy ongining shakllanishida televideniyeining yetakchi roli – audivizion xarakterga ega bo'luvchi zamonaviy shaxs madaniyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Televideniye ma'lumotlarning asosiy qismini audivizual funksiyasi orqali yetkazilishi bilan jamiyat siyosiy dunyoqarashida yetakchi rol o'ynamoqda.

*Geosiyosatga oid materiallarning jurnal va gazetalarda e'lon qilina boshlanishi esa axboriy jamiyatga taalluqli bo'lgan yangi mezonlarni geosiyosatga kiritishga sabab bo'ldi. Bularning barchasi axboriy tizimlar o'rtasida geopolitik jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ichidagi ommaviy axborot vositalaridan televideniyeining ahamiyatini alohida kuchayib borishini tasdiqlaydi.*

Qolaversa, zamonaviy siyosiy psixologiya zamonaviy jamiyatda ratsional yondashuvlar emas, balki "obraz" ("imidj") yorqinligi asosiy rol o'ynashini isbotladi. Bugun jamiyat aksariyat qismining siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlarining telekommunikatsiya yordamida shakllantirishga zo'r

---

<sup>1</sup> Қаранг. А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 229-бет.

berilayotganligi bejiz emas. Har holda media "obraz" etnik, madaniy, mafkuraviy, siyosiy yondashuvlar asosidagi sintez mahsuli deya e'tirof etilmoqda. O'z navbatida, jamiyatdagi ma'lumotlarning turfa xilligi ham ularning siyosiy hayotga singib ketishiga ta'sir qiluvchi shartsharoitlarning mavjudligi bilan chambarchas bog'langan. Bunday paytda turfa xil ma'lumotlar shaxsning siyosiy munosabatlar sohasidagi faoliyatining faollashuviga kuchli ta'sir o'tkazadi, odamlarning mustaqillik darajasini o'stiradi. Shu bilan birga, zamonaviy jurnalistikada texnikaning mukammallashib borishi ma'lumot tarqatishning tezligini mutlaq oshirdi, qisqa muddatda odamlarning yirik ommasini qamrab olish qobiliyatini kuchaytirdi<sup>1</sup>.

*Shu tariqa, axborot inqilobi yangi axboriy paradigmalarni geosiyosatda shakllantira boshladi. Uning markazidagi axborot g'oyasiga zamonaviy geosiyosat dinamikasining asosiy omili sifatida qarala boshlandi.*

Bugun axborot texnologiyalari bosimi ostida geosiyosiy hukmronlikning metodlari, siyosiy makon va zamonning dinamikasi ham o'zgarib boshladi. Ayniqsa bunday mahalda geosiyosatning yangi o'lchovi bo'lmish virtual axboriy makon katta rol o'ynay boshlaydi. Axboriy texnologiyalar yordamida geosiyosiy kurashning yangi shakllari avjga chiqdi. Bularning barchasi, geosiyosatdagi zamonaviy axboriy paradigmalar yordamida quyidagilarni bilishni ko'zda tutadi:

*- dunyodagi geosiyosiy transformatsiyani shunday ta'riflashni tashkil qilish kerakki, uning istiqbolini aniq tasavvur qila olinsin ;*

*- global geosiyosiy evrilishlarning sabablarini tushuntirib bera olish, kelajakning voqealigi qachon, qayerda va qanday shaklda bo'lishini bashorat qilishga imkoniyat yaratilsin .*

Bugungi kunning geosiyosiy manzarasi o'zining murakkabligi, global jarayonlarning virtualligi bilan belgilanayotganligini aytib o'tdik. Bu holat geosiyosiy boshboshdoqlik kategoriyasidan geosiyosatchilarga jahon siyosatining murakkabliklariga baho berishda qo'l kelmoqda. Geosiyosat va jurnalistika fanini chuqur o'zlashtirish esa makon ustidan axboriy nazorat o'rnatishning ko'pgina muammolariga doir mustaqil ilmiy pozitsiyani kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Bu so'zsiz axborot inqilobidagi siyosiy makon va zamon tushunchasining ta'rifiga jiddiy o'zgartirishlar olib kirishdan boshlanadi. Shu tarzda bir qator geosiyosiy muammolar jurnalistik tahlillarda o'z aksini topadi.

Shunday qilib axborot to'lqinlarini boshqarish postklassik geosiyosatdagi hokimiyatning asosiy dastagiga aylandi. U borgan sayin virtual shaklga ega bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi o'tmishda geosiyosatni nazorat qilib borgan eski xalqaro institutlarning parchalanishiga olib kelmoqda, yangidan-yangi mojaro va qarama-qarshiliklarning avj olishiga o'z

---

<sup>1</sup> А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 149-бет.

ta'sirini o'tkazib bormoqda. Siyosiy vaqtning tezligi degan tushuncha paydo bo'ldi. Virtual dunyoni o'zlashtirish ayni siyosiy vaqtning tezligidan kelib chiqadi.

Bugun kompyuter monitorlari va televizor ekranlari bilan bog'liq axborot maydonlaridagi buyuk o'zgarishlar klassik geosiyosatdagi makon tushunchasiga qayta ishlov berish bilan baravar qudratga egadir. Geosiyosat va OAVning o'zaro munosabatlari yangi ming yillikda davlatlar o'rtasidagi makoniy munosabatlarning virtual makonda axboriy ustunlikni ta'minlay olishi bilan belgilanmoqda. Shu sababli geosiyosat va jurnalistika fani ayni inson dunyoqarashini nishonga olish masalalarini tushuntirib berish bilan e'tiborli.

*Bugun geosiyosat va jurnalistikaning markaziy muammosi – axboriy jamiyatdagi insonning siyosiy mentalitetini o'zgartirishga ta'sir o'tkazishdir.*

Aslida eng asosiy axborot inqilobi ommaviy axborot vositalaridan tashqarida yuz berdi. Bugun u axboriy-psixologik qurolning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, odamlarning ruhiyati va ma'naviy qiyofasiga samarali ta'sir qilishga qodir. U hozirgi Ukraina, Afg'on va Yaqin Sharq dunyosidagi harbiy-geosiyosiy mojarolarning jurnalistik tahlillarida aniqroq ko'zga tashlanmoqda.

Bularning barchasi jurnalistik tahlillar orqali geosiyosiy makonni nazorat qilishga doir mexanizmlarni tadqiq etish – geosiyosat va jurnalistikaning asosiy vazifalari ekanligini tasdiqlaydi. Geosiyosat va jurnalistika sohasining zarurati ayni shu holatlar bilan ifodalanadi.

So'nggi paytlarda siyosatchi va jurnalistlarning chiqishlarida “geosiyosiy manfaat”, “geostrategiya”, “geosiyosiy mojaro” kabi atamalar tez-tez tilga olinmoqda. Geosiyosatning urf bo'lishiga va uning rivojlanishiga globallashtirish jarayoni, dunyoning ikki qutblilik tizimining o'zgarishi va ko'pqutblilikning shakllanishi, uning oqibatida sayyorada yangi markaziy kuchlarning paydo bo'lishi kabi omillar tasir qilmoqda.

Bugun jahon hamjamiyati davlatlararo munosabatlarning eng yaxshi shakllaridan biri sifatida dunyoning ko'p qutblilik tizimini joriy etish yo'lida harakat qilmoqda. Ayni shu holat sayyoradagi kuchlar nisbatining o'zgarishiga qaramay, haqiqiy ko'p qutblilik falsafasi xalqaro miqyosda qarorlarning bir yoki ikki kuchli davlat tomonidan emas, balki butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilinishini talab etadi. Ayni globallashtirish jarayoniga bog'liq bo'lgan o'zaro aloqadorlik darajasi yanada adolatliroq va insonparvar dunyoning shakllanishiga imkon yaratishi kerak. Bu o'rinda jurnalistika turli global jarayonlarni o'zaro bog'lovchi muhim bir qatlam xisoblanadi. Jurnalistlarning faoliyati bevosita xalqaro munosabatlar tizimining ishtirokchilari sifatida, BMTning insonparvarlik va demokratiya tamoyillariga javob beruvchi dunyoning ko'pqutblilik tizimini targ'ib qilishda muhim o'rin egallaydi.

*Geosiyosatning ayni shu islohotlardagi pozitsiyasi OAVning ishtirokisiz sodir bo'lmaydi. Yuqoridagi faslda biz yangiliklarni tahlil qilish orqali dunyo siyosat*



*maydonidagi dinamikani kuzatish mumkinligini qayd etgan edik. Geosiyosat va jurnalistika fani esa talabalarni xalqaro geosiyosatning nazariy asoslarini, murakkab axboriy qarama-qarshi globallashuv sharoitlarida uning rivojlanish tendensiyalari va yo‘nalishlarini, axboriy-mafkuraviy sohani o‘rganishga yo‘naltiradi. Aslida siyosiy nuqtai nazardan olib qaraganda OAVning eng muhim jihatlaridan biri bu axborotni ochiq haqqoniylik asosida, real dunyoning virtual ko‘rinishi sifatida berishdan iboratdir. Zero, global axboriy muhit sharoitida xalqaro jurnalistdan olingan axborot siyosiy qarorlarning turli pozitsiyalarda qabul qilinishiga asos bo‘lmoqda.*

XX asr oxirlariga kelib, geosiyosat dunyoning mavjud va shakllanayotgan siyosiy tizimi, uning tuzilishi, institutlari va jarayonlarini o‘rganuvchi mustaqil ilmiy va o‘quv predmeti sifatida tan olinishga erishdi. Unga jurnalistikada geosiyosiy munozara muammosining dolzarblashuvi kuchli ta‘sir o‘tkazdi. Ayni *“globallashuv”, “global axboriy makon” kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari va ularning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishni jiddiy masalaga aylantirmoqda.*

Natijada ular jurnalistlarga global axboriy makonda sodir bo‘layotgan voqealar rivojiga ta‘sir o‘tkazuvchi turli xil geosiyosiy omillarni inobatga olgan holda ko‘rish, tahlil qilish va baho berish imkoniyatlarini bermoqda. Jumladan, davlatlar manfaatlari, kuchlar muvozanati, harbiy imkoniyatlar, iqtisodiy va tabiiy resurslar, mamlakatlarning geografik joylashuvi, axborot oqimlari, milliy g‘oya va shu bilan birga davlat tuzilishlari, sivilizatsiya xarakteri, xalqaro konfliktlarning darajasi va boshqa ko‘p jihatlar geosiyosiy munozara uchun muhim mavzularga aylandi.

Shu tariqa *jurnalistika geosiyosiy uslublar bilan boyitilish barobarida geosiyosiy omillardan biriga aylanadi, chunki zamonaviy sharoitlarda geosiyosiy “o‘yin”lar jurnalistlar berayotgan axborot va ular egallagan pozitsiya orqali qaysidir darajada OAVda amalga oshiriladi. OAV geosiyosiy maydon va geosiyosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.* Bugun globallashuv jarayoniga qadam qo‘ygan insoniyat jamiyatga mavjud holatlardagi to‘g‘ri yo‘nalishlarni tanlashda OAVning faol yordamiga muhtoj. Biroq turli ijtimoiy guruhlar, shuningdek ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan OAV ham globallashuv jarayoniga turlicha baho beradilar. Bunday sharoitlarda turli geosiyosiy konsepsiyalar doirasida mavjud qarashlar va ularning harakatini o‘rganish favqulodda muhim jihatga aylanadi.

Bizningcha geosiyosat fani - jurnalist uchun global miqyosda o‘zaro aloqador bo‘lgan geografik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy omillarni inobatga olgan holda zamonaviy dunyoga yanada tanqidiyroq yondoshish imkonini beruvchi, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy reallikning tahlili uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayni paytda OAVning zamonaviy hodisalarga geosiyosiy yondashuvi - BMTning asosiy hujjatlarida tarannum etilgan insonparvarlik va demokratik tamoyillar, umuminsoniy qadriyatlar bilan jamiyatda

ijtimoiy barqarorlikning o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini o‘rganish va ularga baho berishni talab etadi.

OAV shakl va yo‘nalishlariga ko‘ra o‘ziga xos tarzda voqea, fakt va hodisalar uzatilib boradi. Bu – tabiiy hol. Lekin faktlar saralanishining o‘zi pozitsiy. Shuning uchun OAV faqat ijtimoiy axborotni yetkazib beruvchi kanallar xolos, degan fikrlarga qo‘shilish qiyin.

Jumladan, oxirgi vaqtlarda qarshi aloqa – ommaning ko‘rgan va eshitganlariga berayotgan javob tarziga ko‘proq e‘tibor qaratila boshlandi. OAVning monopollashuv jarayoni, yirik matbuot konsernlarining hatto o‘z xohish irodalarini boshqa nashrlarga ham o‘tkazish kuchiga ega bo‘lishiga olib keladi. Zamonaviy texnik ta‘minot va kuchli intellektual resurslar bilan ular uncha katta bo‘lmagan yoki o‘rtacha nashrlar bilan raqobatda osongina yutib chiqishlari mumkin. Ko‘pgina hollarda birgina tahdidning o‘zi zaif tomonning raqobatda kuchli tomonga yon berishiga olib kelmoqda. Shu tarzda sog‘lom demokratiya uchun ommaning fikri, ongi va hatti-harakatini boshqarish jiddiy xavf tug‘diradi. Ommaning dunyoqarashini siyosiy maqsadga yo‘naltirish, shakllantirish va boshqarish bugungi kunda real amaliyotda kuzatiladi. Chunki zamonaviy boshqaruv manipulyatorlari jiddiy tarzda oshkora yoki berkitilgan maqsadga yo‘naltirilganlik bilan harakat qilish xususiyatiga ega.

Dunyoning zamonaviy holatini aks ettirish bilan birga OAV geosiyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida muhim rol o‘ynamoqda. Gap siyosatchilar, yirik kapital egalari, akademik tadqiqot doiralari, matbuot va keng jamoatchilik o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini ham bajarish to‘g‘risida ketmoqda. Ma‘lumki, sovuq urushning yakunlanishi yetakchi davlatlarning xalqaro munosabatlariga doir yangi munozaralarni boshlab bergandi. Hozir sovet imperiyasining tanazzuli tufayli dunyoning dramatik tarzda o‘zgarib ketganini ko‘rish uchun maktab devorlarida osilib turgan xaritalarga qarashning o‘zi kifoyadir. Yangi suveren davlatlar paydo bo‘ldi. Bir-birini yo‘q qilib yuborishga harakat qilgan eski dushmanlar endi hamkorlik qilish yo‘llarini izlamoqdalar. Ularda bozor iqtisodiyoti, demokratik qadriyatlar va erkinlikning afzallik tomonlaridan foydalanish yo‘liga o‘tilmoqda.

Sun‘iy yo‘ldoshli televideniye, ipak tolali optika, kompyuterlar va videoyozuvlar ommaviy diplomatiyani yangi bosqichga olib chiqdi.

Tadqiqotlarda sotsialistik tartibotning parchalanishida asosiy rolni o‘ynagan “Amerika ovozi”, “Ozod Yevropa” radiosi va “Uorldnet” televideniyesi kabi institutlarining haqiqat, ozodlik, tinchlikka intensiv chorlovlari tufayli totalitar tuzumlar barbod bo‘lganligi xususida uzilkesil xulosalarga kelindi. Bugun esa “Yevronyus.”, “Al- Jazira”, TRT turk, RTR, ORT kabi telekanallar shiddatli tarzda axborotning raqobatlashuvini ta‘minlamoqda. Internet jurnalistikasi ham o‘ziga xos axborot globallashuviga ta‘sir o‘tkazmoqda.

Ma'lumki, siyosiy ekstremizm hali hech qachon barqaror, ijobiy natijalarni bermagan. Inson huquqlariga rioya qilingan va xalq farovon hayot kechiradigan davlatda separatizmning paydo bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Siyosiy amaliyot tajribasi uning tahdidi mavjudligini tasdiqlamoqda, bunday holatlar ma'lum geosiyosiy maqsadlarga erishishga imkon yaratmoqda. Oldin yirik davlat bo'lgan mamlakatlar qancha mayda bo'laklarga bo'linib barpo etilgan bo'lsa, dunyoni boshqarish shuncha oson bo'ladi. "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" – mustamlakachilikning ushbu shiori yana qo'lga olinib, yetakchi davlatlar tomonidan nazorat qilinuvchi OAVning bugungi amaliyotlarida qo'llanilmoqda. OAVdan geosiyosiy manfaatlarda foydalanish OAVning o'zida etnik, milliy va diniy murosasizlikning paydo bo'lishiga olib keladi.

Zamonaviy siyosatshunoslar millatchilikni siyosiy tamoyil sifatida keltirib, uning mazmuni siyosiy va iqtisodiy birliklarning bir-biriga mos kelishida ekanligini aytishmoqda. Boshqacha qilib aytganda, millatchilik tamoyili etnik guruhlarning ham o'z hukmronliklariga ega bo'lishlarini talab etadi.

*Shu tariqa, so'nggi yillarda, OAVning geosiyosiy roli yaqqol ko'zga tashlanmoqda, ayniqsa, jurnalistikaning turli "rangli inqiloblar"da ishtiroki jiddiy sezilib qoldi. Avvalroq bu - Vengriya, Chexoslovakiya, Boltiq bo'yi, Shimoliy Afrika singari mamlakatlardagi jarayonlarda sezilarli rol o'ynagandi. Natijada geosiyosiy nazorat siyosiy jurnalistikada demokratiyani chuqurlashtirish g'oyasi bilan oldinga qadam tashlay boshladi.*

Bunday sharoitda OAV institutlari orqali demokratiyani ilgariyatish niqobidagi tahdidlar halqaro maydondagi turli siyosiy kuchlar tomonidan ongli ravishda, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotganini ta'kidlash lozim. Yangi axborot asrida erkinlik, demokratiya, inson huquqlari kabi jozibali g'oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosda dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, geosiyosiy nazoratni kuchaytirishga erishmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham bunday tahdidlardan ko'zlangan maqsad ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan tobe qilishi, endigina rivojlanib kelayotgan milliy davlat va hududlarning yer osti hamda yer usti boyliklarini egallab olish, dunyoning ba'zi mintaqalardagi tinch hayotini izdan chiqarib, bu yerlarda aynan qudratli davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarni hokimiyat tepasiga keltirish kabi salbiy jarayonlarni yuzaga keltirishdan iborat ekanligini anglash va unga nisbatan g'oyaviy qalqon tizimini ishlab chikish milliy jurnalistikamizning dolzarb mavzusiga aylandi.

Ikkinchidan, demokratiya niqobidagi axboriy-mafkuraviy tahdid mustaqil davlatni o'zga bir davlatga qaram qilishga qaratilgan xavfxatardir. Bunday davlat suverenitetiga ko'plab tahdidlarni misollar tariqasida keltirish mumkin. Demokratik jamiyat qurish bahonasida Iroq, Suriya, Misr, Tunis, Ukraina kabi mamlakatlarda hamon urush alangasi o'chgani yo'q.

*Ayniqsa, bunday paytda, chetdan bo'ladigan "mehribonchilik"larni hamma vaqt ham beg'araz deb bo'lmaydi. Erkinlik va demokratiya niqobi ostidagi intilishlarni OAV orqali zo'r berib oldinga surish holatlari sezilmoqda, ularning zararli mohiyatini darhol anglab olish qiyin bo'lmoqda. Tadqiqotlar OAVlarda "geosiyosiy mehribonchilik" ko'pincha quyidagi usullarda qo'llanilganligi to'g'risida ko'p qayd qilishmoqda:*

*- ya'ni birinchi navbatda - muayyan geosiyosiy nishondagi davlat ravishda halqaro miqyosda yillab tanqid qilib boriladi, natijada — mustaqil davlatning rahbariyatni demokratiyani xush ko'rmaslikda ayblash jarayoni boshlanadi;*

*- ushbu mustaqil davlat fuqarolari orasida manfaatparast, soxta demokratiya g'oyalariga, aldanishga moyil odamlar guruhi shakllantiriladi;*

*- boylikka o'ch hokimiyatparast ayrim kimsalar bilib-bilmay bunday g'arazli siyosiy kuchlarga xizmat qila boshlaydi, ular arziyas muammolarni ham yirik muammo sifatida ko'rsatib, ayuhannos solishadi;*

*- vaqt o'tib, ma'lum bir sharoitlar yetilgach, "rangli inqilob" qilinib, hokimiyat tepasiga betayin xalq, Vatan manfaatlaridan begona, aksincha yot manfaatlariga xizmat qiladigan siyosiy kuchlardan ko'tarilishi ta'minlanganligini so'nggi kuzatuvlar tasdiqladi.*

Bularning barchasi tadrijiy ravishda, shov-shuv ko'tarilmasdan zimdan bamisoli tabiiy rivojlanish zarurati shuni taqozo etayotgandek amalga oshirilmoqda. Qizig'i shundaki, bu g'arazli siyosiy o'yinga manfaatdor geosiyosiy markazlar qani, nima bo'lar ekan, voqealar rivoji bizning foydamizga ishlasa ko'shilamiz, bo'lmasa, tinch turganimiz ma'qul, degan qoidaga amal qilib, shunchaki tomoshabin bo'lib turish holatlari kuzatildi. Turli grantlar vositasida o'z harakatchilarini moliyaviy ta'minlash, zaruratga qarab, ularning faoliyati zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab borildi. Bunday siyosiy kuchlarning ommaviy axborot vositalari istalgan vaqtda dunyoning har qanday davlatiga yetib bora oladi. Zero mazkur yunalishda xizmat kilayotgan jurnalistika uchun muayyan mablag', sharoit va imkon - barcha-barchasi muhayyo qilinmoqda.

Ayni siyosiy yo'nalishdagi ommaviy axborot vositalarida oldinga surilgan xatti-harakatlar, g'oyaviy, moliyaviy, tashkiliy-seminar omillarning birgalikdagi qudratli kuchi orqali real hayotga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan soxta g'oyalar ham sodda va ishonuvchan, mafkuraviy immuniteti to'la shakllanmagan insonlar nazarida bamisoli haqiqatga o'xshab ko'rina boshlaydi. Natijada bunday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun OAV lari doimiy hushyorlik va ogohlik, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ilmiy asosda dunyodagi real holatlardan, mafkuraviy kurash talablaridan kelib chiqqan holda olib borish zarurati seziladi.

Xullas, OAV orqali mo'ljalga olinadigan demokratiya niqobidagi geosiyosiy tahdidlarning mudhish oqibatlarini keng ko'lamdagi hech narsa bilan o'rnini qoplab bo'lmaydigan ma'naviy-ruhiy zarar bilan dahshatlidir. Tadqiqotlar geosiyosiy

taktikaning asosiy ko‘rinishlari haqida gapirganda, quyidagilarga alohida to‘xtalishga urg‘u berishmoqda:

1. Muayayn geosiyosiy maqsadlarni ko‘zlaydigan kuchlar erkin turmush tarzi, iqtisodiy ma‘murlik va farovon hayot vada qiladi. Bunday jozibali va‘dalar har qanday sodda kishini o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi davlatlarning fuqarolari bunga tez ishonib qoladi. Shu ma‘noda, demokratiya niqobidagi tahdidning birinchi zarari mustaqil davlat fuqarolari ongini yolg‘on va‘dalar bilan chalg‘itishdir.

2. Aksariyat holatlarda OAV da demokratiya niqobi bilan geosiyosiy manfaatlarni oldinga surish dunyoqarashi hali to‘liq shakllanmagan odamlar, avvalo yoshlarni ma‘naviy jihatdan majruh qiladi. Chunki yolg‘on va‘dalarga ishongan odamda o‘z Vatani, xalqi va jamiyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Ularda fidoyilik, tashabbuskorlik va mehnatsevarlik ishtiyoqi asta-sekin so‘nib boradi. Eng yomoni - shaxsda o‘z jamiyatida o‘zini yolg‘iz sezish ruhi paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatda parokandalikka sabab bo‘lib, birlik va birdamlikka putur yetkazadi.

Demak OAVning geosiyosiy manfaatlarni oldinga surishi "Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish" degan doktrina asosida sobiq sho‘ro hududida g‘oyaviy-axboriy tahdidlar avj olgan paytda ko‘zga tashlandi. Bugun, oradan ancha vaqt o‘tgach, OAVning geosiyosiy maqsadlari uchun oldinga surilgan ana shu inqiloblar mazkur mamlakatlar aholisi uchun yangi-yangi muammo va tashvishlardan boshqa hech narsa bermadi. Buni o‘sha mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi mavhum siyosiy jarayonlar ham tasdiqlab turibdi. Biz bu haqda keyingi fasllarda “ rangli inqilob texnologiyalari” mavzusini yoritganda batafsil gaplashamiz.

Shunday qilib, OAV institutlari orqali demokratiya niqobidagi g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazishning zararli oqibatlari shu qadar dahshatliki, ular milliy mentalitetni, o‘zlikni va Vatan taqdirini og‘ir ahvolga solib qo‘yish mumkin. Bularning barchasi milliy jurnalistika oldiga yana va yana bir bor halqimizning ma‘naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda halqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish butungi kunning eng dolzarb vazifasi qatorida ko‘rishni taqozo etmoqda.

YA‘ni, jurnalistikada geosiyosat bilan bog‘liq so‘z erkinligi va siyosiy barqarorlik, suverenitet, suveren demokratiya kabi tushunchalarning dolzarblashuvi;

*-Katta siyosiy o‘yinlarda yetakchi davlatlar tomonidan OAV orqali siyosiy manipulyatsiya qilishning yangi usullarining joriy etila boshlanishi;*

*-Geosiyosiy da‘volar ta‘sirida OAV orqali muayyan milliy-hududiy auditoriyaning ijtimoiy ongini mo‘ljalga olish;*

- *Yetakchi telekanallar va yangi mustaqil davlatlardagi ijtimoiysiyosiy vaziyatning taranglashuvi, OAV orqali axborotni manipulyashtirish yoxud boshqarish, axborotni soxtalashtirish, uni haqqoniy axborot sifatida bir yoqlama yetkazish, o'z manfaatlarini singdirgan holda axborotni tahrir qilish;*

-*Manipulyatorga foydali tomonini hisobga olgan holda axborotni taqdim etish, tashviqotda "aqlni yuvish" degan ta'sir o'tkazish texnologiyasining yuzaga kelishi, stereotiplardan foydalanish;*

-*Harbiy senzura va demokratiya muammolari, matbuot bilan ishlashning xorijiy uslub va shakllari, Iroq, Shimoliy Kavkaz, Panama, Vetnam, Afg'on mojarolari kabi xalqaro konfliktlarda jamoat tashkilotlarining harbiylar faoliyati ustidan nazorat etishi, qonuniylik, tanqid va oshkoralik tamoyillari, ikkilamchi standartlar, demokratiyani olg'a surish da'volari va milliy, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash;*

-*Ayrim mintaqalarda ekologiya muammolarni OAVda tarafkashlikka yo'l qo'yilib yoritilishi, uning oqibatlarini, katta siyosat va mintaqaviy ekologik mavzularni OAVda yoritishning zamonaviy tendensiyalari, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, davlatlararo munosabatlarda do'stona, erkin, o'zaro ishonchga asoslangan demokratik qadriyatlarni hurmat qiladigan muhitni shakllantirish;*

-*Yetakchi davlatlarning jahon siyosatida liderlikni qo'ldan boy bermaslikka harakati, mazkur jarayonlarni OAV orqali o'z madaniyatini ko'z-ko'z qilish tamoyili bilan oqlashga urinish kabi tendensiyalarni geosiyosiy jurnalistikada batafsil tahlil qilish davrining boshlanishiga olib keldi.*

Bugun, xulosa qilib aytganda, OAV orqali geomafkuraviy maqsadlarni oldinga surish, axborotiy makonda geosiyosiy raqobatning ustuvor yo'nalishlari, axborotiy ustunlik, axborotiy qarama-qarshilikning obyektlari, subyektlari, davlatlar, ittifoqchilar va koalitsiyalar, halqaro tashkilotlar, nodavlat noqonuniy harbiy birlashmalar, terroristik, ekstremistik, diniy radikal, siyosiy radikal yo'nalishdagi tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, virtual ijtimoiy jamiyatlardan kelayotgan axborot tahdidlarini anglash, ularga munosabat bildirish geosiyosat va jurnalistikaning eng muhim yo'nalishlariga aylangan.

### **3. Xarakatlar strategiyasi - O'zbekiston tashqi siyosati taraqqiётning yuqori bosqichi.**

**Tashqi siyosat sohasida qo'shni va xorijiy davlatlar bilan o'rnatilgan o'zaro manfaatli munosabatlar**

**O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo - bosh ustuvor yo'nalish**

Bugun harakatlar strategiyasi davrida O'zbekiston o'zini jahon siyosatida barcha dolzarb masalalarni o'zaro manfaatdorlik, birbirining ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslangan holda, muzokaralar yo'li bilan xalqaro huquq normalariga mos ravishda xalqaro etish tarafdori sifatida namoyon qilmoqda. Demak ta'lim tarbiya, ma'naviy ma'rifiy ishlar sohasidagi ilmiy -innovatsion islohotlar O'zbekistonni kuchli mamlakat sifatida xalqaro axboriy jarayonlarga jalb qilish amaliyotini toqozo qiladi. Ikkinchidan jahonda yuz berayotgan ulkan geosiyosiy o'zgarishlarni o'z vaqtida anglash va unga faqat va faqat O'zbekiston milliy manfaatlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish fazilatlarini yosh mutaxassis kadrlarda shakllantirish - davlat kadrlar tayyorlash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, keyingi yilda MO mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda yaxshilanish yo'liga o'tdi. Bunga ko'p jihatdan O'zbekiston tufayli erishilmoqda. Uning rahbari mamlakat Prezidenti lavozimini egallashi bilan qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashni O'zbekiston Tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi.

Chunki O'zbekiston mintaqada rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. Bugun O'zbekiston aholisining soni 32 milliondan oshib ketdi. U shuningdek tabiiy resurslarga ham boy o'lkadir. Bu resurslarning aksariyati o'z ko'rsatkichlariga ko'ra betakroridir. Ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar qazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarda turadi. O'zbekistonda rangli metallarning qirqqa yaqin koni bor. O'zbekiston mis va uran ishlab chiqarish bo'yicha jahonning peshqadam o'n mamlakati qatoriga kiradi. U kumush, rux, qo'rg'oshin va volfram zahiralari bo'yicha ham jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakat ancha katta energetik salohiyatga ega. O'zbekiston hududida umumiy zahiralari to'rt milliard tonnadan ko'proq bo'lgan 160 dan ortiq neft konlari mavjud. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu strategik xom ashyoni eksport qilishda O'zbekiston jahonda yetakchi o'rinlarning birini egallaydi. Bunday ijobiy mazmundagi statistik ma'lumotlarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Aytish joizki harakatlar strategiyasining bugungi bosqichida ham O'zbekiston mintaqada pragmatik, oqilona va maqsadga muvofiq siyosat yuritish tarafdori bo'lib, tashqi siyosat maqsad va vazifalari davlatning uzoq muddatli manfaatlariga, uning resurslari va salohiyatiga mos kelishi prinsiplariga sodiq qolmoqda .

O'zbekiston Markaziy Osiyoning jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy yirik davlatlarning birontasi bilan ham bevosita chegaradosh emas. Shubhasiz, bu holat geosiyosiy nuqtai nazardan muhim ustunlik hisoblanadi. Ayni paytda, O'zbekiston

mintaqaning besh mamlakati bilan umumiy chegaraga ega bo'lgan yagona davlatdir. Shu jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtasida, koq markazida joylashganligi bilan kuchli geosiyosiy mavqega egadir.

Ahamiyatli tomoni shundaki, Markaziy Osiyoda davlatchilik, fan, madaniyatning rivojlanishida sezilarli iz qoldirgan barcha asosiy davlat tuzilmalarining markazlari hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. Jumladan, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent madaniyatlarining madaniy- sivilizatsiyaviy ta'siri o'tmishda mamlakat hududidan tashqarida ham juda kuchli bo'lgan.

Prezident SH. Mirziyoyev qisqa vaqt ichida mintaqaning aksariyat mamlakatlarida bo'ldi va O'zbekiston rahbarining qo'shnilar bilan raqobatda emas aynan o'zaro manfaatdorlikda hamkorlik qilish istagi samimiy ekanligini amalda isbotlashga ulgurdi. YA'ni uning davlatlararo va mintaqaviy masalalarni hal qilishda, yaqin qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi sayi-harakatlari O'zbekiston davlatining tashqi siyosatida muhim bosqichga olib keladi. Jumladan Murojatnomada davlatimiz rahbari **“O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish”** tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Turkmaniston va Qirg'iziston bilan strategik hamkorlik o'rnatildi. Qozog'iston bilan strategik hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish borasida bir qator muhim hujjatlar imzolandi, 2 milliard dollar miqdorida iqtisodiy bitimlar tuzildi. Tojikiston bilan hamkorligimiz har tomonlama mustahkamlanmoqda. Toshkent va Dushanbe shaharlari o'rtasida aviaqatnov yo'lga qo'yildi.

Qirg'iziston bilan davlat chegaralari to'g'risidagi bitimning imzolanishi Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan katta qadam bo'ldi. Qo'shni Afg'oniston Islom Respublikasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida muhim kelishuvlarga erishildi, yangi iqtisodiy loyihalar bo'yicha amaliy ishlar boshlandi“ **deb xulosa qilindi. Shu tariqa** O'zbekiston tashqi siyosatining mintaqamizda boshlangan yangi davriga baho berildi.

O'z vaqtida Prezident SH.M.Mirziyoyev bugungi kunda va olis istiqbolda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy vazifalarini aniq belgilab berdi. Jumladan:

–O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlarning qurolli mojarolarga va keskinlik o'choqlariga aylanishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek, o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l quymaydi;



–siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantiradi;

–mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shartsharoitlarni shakllantiradi;

–Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga koʻmaklashish masalalaridir.

Yaqinda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning BMT Bosh Assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqida mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yoʻlida amalga oshirilgan islohatlarga atroflicha toʻxtalib “Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, soʻnggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yoʻli bilan kurashish usuli oʻzini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada koʻp hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. –degan xulosasini bergan edilar.

Ayni paytda muallif jahon siyosatidagi oʻta shiddatli jaryonlardan kelib chiqqan holda barchaning taʼlim olish huquqini taʼminlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga koʻmaklashishni maqsad qilgan BMT Bosh Assambleyasining "Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat bilan chiqdi. Bu bejiz emas.

### **Mening fikrim ...**

Shunday qilib **Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaqin qoʻshnichilik munosabatlari** tobora chuqurlashmoqda. Zotan, tarixiy taqdir bir mintaqada yashash imkonini bergan ekan, ming yilliklar mobaynida qon-qardosh va qarindosh boʻlib kelgan xalqlar ayni paytda taqdiridosh hamdir. **Mintaqa xalqlari urf-odatlari, anʼanalari, turmush tarzi va qadriyatlari uygʻunlashib ketgan yagona xalq hisoblanadi. Har qanday chegaralar davlat mustaqilligini belgilaydigan va uning suverenitetini namoyon qiladigan qadriyatdir. Biroq, qardosh xalqlar qalbidagi mehr-muruvvat, hamkorlik va birbirining quvonchu tashvishlariga sherik boʻlish tuygʻusi chegara bilmaydi.** Oʻzbekiston rahbarining Qozogʻiston, Turkmaniston, Qirgʻiziston va Tojikiston bilan oʻrnatgan yaqin qardoshlik munosabatlari mintaqada tinchlik va barqarorlikni taʼminlash bilan birga ijtimoiy-

- O'zbekiston Respublikasi xalqaro imidjiga ijobiy ta'sir etuvchi axboriy jarayonlarni kompleks tadbiq etish yo'nalishi O'zbekistonning YEI, SHHT, MDH, Osiyo va Afrika makonlaridagi salohiyati va imkoniyatlari mavzusiga yangicha yondoshuvlarni toqozo qiladi. Bular tayyorlanadigan zamonaviy o'quv uslubiy adabiyotlarda xorijiy davlat fuqorolari bilan xalq diplomatiyasi, ilmiy, madaniy umumta'lim yo'nalishlarida hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy davlatlarning madaniyati, mintaqashunosligi, OAV, biznes tadbirkorlik, saylov institutlari, parlamentarizmi kabi mavzularda aks etadigan asosiy tematika bo'lishi mumkin.

- Ta'limda O'zbekistonning jahon siyosatidagi salohiyati mavzusiga ko'proq etibor berish kerak. Mazkur targ'ibot mavzusiga biz anglosakson, fransuzabon, ispanzabon, arab, fors, hind, koreys, xitoy, yapon dunyosi ayniqsa lotinamerikasi mintaqasi davlatlarini bog'lab o'rganishni boshlash. Shu birga bilan zamonaviy iqtisodiy hamkorlik yo'nalishidagi investitsion siyosatni targ'ibot mahoroti muammolari bilan bog'lab yangicha tahliliy yondoshuvlarni boshlamog'imiz kerak.

iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy masalalarda ijobiy natija beradi. Prezident SH .Mirziyoyev tomonidan ko'tarilgan bu masalalar mintaqaviy muammolarni hal qilishning eng insonparvar va samarali usuli sifatida baholanmoqda.

2. **Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari** taraqqiyotning muhim omili bo'lishi bilan birga Yer sharining turli mintaqalarida o'ziga xos dolzarb muammolarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo qadimdan bir daryodan suv ichgan, qondoshu jondosh xalqlar makoni. Sirdaryo va Amudaryo mintaqa xalqlarining bebaho boyligi va hayot manbai. Ushbu ulkan daryolar bir necha ming yillik xalqimiz tarixiy taraqqiyotining va tadrijiy rivojlanishining asosi bo'lib kelgan. **Ikki marta buyuk sivilizatsiyaviy xodisa – uyg'onish davrini ko'rgan bu tabarruk zamin xalqlari buyuk ajdodlarining olamshumul kashfiyotlari tufayli insoniyat hayotiga madaniyat olib kirgan xalq maqomiga ega bo'lishdi.** Jahon tajribasida transchegaraviy daryolar hech qachon bir mamlakatning yoki bir millatning mulki bo'lib qolmagan. Daryoning boshlanish joyidan to tugagan joyiga qadar, jamiki tiriklikning, parrandayu darrandalarning, qurt-qumursqalaru xasharotlarning, **hayot sarvari bo'lgan hazrati insonning** buyuk ne'mati va hayot manbaidir. O'zbekiston Prezidenti transchegaraviy daryolar maqomi, suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari xususida gapirar ekan, muammoga ana shunday umuminsoniy qadriyatlar o'lchovi asosida yondoshadi.

Orol dengizi bilan bog'liq ekologik muammolar faqat O'zbekistongagina tegishli emas. U butun mintaqaviy, qolaversa, dunyoviy muammoga aylandi. U qator davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta zarar yetkazmoqda. Orolning qurigan hududlaridan har yili bir necha yuzming tonnalab tuz changlari havoga ko'tarilib, minglab kilometrda odamlar hayotiga, ekinzorlarga ziyon yetkazmoqda. Atmosferaning keskin o'zgarishiga, havo qatlamining buzilishiga olib kelmoqda. Bu masala BMT darajasida bir necha marta

ko'rib chiqilgan. Biroq O'zbekiston rahbari Orol muammosini umumsayyoraviy ekologik og'riq sifatida yana bir bor ko'tarib, jahon hamjamiyati diqqatini uni bartaraf etishga qaratdi.

3. **Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish global xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartidir.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Harakatlar Strategiyasida O'zbekistonning izchil tashqi siyosatiga alohida e'tibor beradi. Jumladan, mintaqaviy mojarolar yechimini topish, davlatlararo munosabatlarda o'zaro hurmat va qat'iy ishonch, olis istiqbolni ko'zlagan umuminsoniy manfaatlar atrofida birlashish g'oyasini ilgari suradi. Har bir davlatning tashqi siyosati muqarrar ravishda uning milliy va umuminsoniy manfaatlari asosida quriladi. Ana shu jihatdan O'zbekiston o'zining qadimiy davlatchilik an'alariga asoslanib, har qanday muammoning muzokaralar yo'li bilan, hissiyotlardan xoli bo'lgan va aql-idrokka yo'g'rilgan muloqotlar orqali yechimini topish tarafdori bo'lib maydonga chiqdi. U siyosatda adolat asosiy mezon bo'lmog'i, umummilliy manfaat ustuvor bo'lishi singari an'anaviy qadriyatga tayanadi. Bu o'zbek milliy davlatchiligi bir necha ming yillik maktabining qadriyatga aylangan sabog'idir. Prezident SH.M.Mirziyoyevning Murojatnomada O'zbekiston davlatining zamonaviy sharoitdagi siyosiy irodasini, Mamlakatimizdagi aniq pozitsiyasini, uning jahon ijobiy o'zgarishlar dunyo hamjamiyatidagi g'oyatda katta mavqeini, kuch- hamjamiyatida O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni oshirib, qudratini namoyon etdi. Davlat rahbari uning xalqaro maydondagi sifatida esa o'zining chuqur siyosiy bilim va nufuzini yanada yuksak madaniyatini, sharqona odob va oliy mustahkamlashga xizmat darajadagi siyosiy diplomatiya namunasini qilmoqda.

ko'rsatdi.

SH. Mirziyoyev

**2. Xorijiy davlatlar bilan o'rnatilgan o'zaro manfaatli munosabatlar va O'zbekistonning xalqaro maydonda imidjini yanada oshirish.**

Aslini olganda, tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, davlatning siyosiy qarashlari va jahon hamjamiyatidagi xalqaro munosabatlarda uzviylikning mavjudligi uning jahon hamjamiyatidagi mavqeini belgilash bilan birga ichki siyosatda barqaror taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda mavjud ichki va tashqi siyosatning ana shunday sog'lom, qat'iyatli va ishonchli rivojlanishining mavjudligi bevosita uning ham dunyoviy, ham ichki mavqeini belgilamoqda. Hozir jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini yangicha shakllantirish yo'liga jadal o'tildi.

Ular quyidagicha:

- mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O‘zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;

– mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan, preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;

–O‘zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas’uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

–milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari va ilg‘or texnologiyalarini jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

–O‘zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta’minlaydigan ko‘p muqobilli transport-kommunikatsiya yo‘laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

–xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta’minlashni nazarda tutmoqda.

Yuqoridagi vazifalar, aytish mumkinki, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora chuqurroq kirib borishini ta’minlaydi. Har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlik chuqurlashib boraveradi . Shu asnoda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini, siyosiy va iqtisodiy salohiyatini namoyon qilishiga imkoniyatlar kuchayib boraveradi.

Har qanday suveren davlat jahon hamjamiyatiga o‘zining tashqi siyosiy qarashlari, umumplanetar muammolarga munosabatlari hamda azaliy munozaralar va muzokaralar obyekt bo‘lgan urush va tinchlik masalalariga yondoshuvlari bilan kirib boradi. Mustaqillikning o‘tgan 26 yillik davrida O‘zbekiston chindan ham jahon xamjamiyatining eng siyosiy faol, xalqaro munosabatlarda o‘zini asosli, qat’iy va o‘zgarmas pozitsiyasiga ega bo‘lgan davlat sifatida namoyon qildi. Bu O‘zbekistonning jahon xamjamiyatidagi siyosiy mavqei va imijini belgilab beradigan muhim omil sifatida o‘z kuch-qudratini ko‘rsatdi.

Vaqt o‘tgan sari  
umumdunyoviy siyosiy

jarayonlar tobora **Barchamizga ayonki, jahonda keskin** faollashmoqda, yangidan **iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, yangi muammolar terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda.**

davlatlararo,

mintaqalararo va etmoqda. **Ming afsuski, bunday notinch keskinlik** umumplanetar miqyosda **o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormoqda.** butunlay yangicha **Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga yondoshuvlarni, siyosiy olgan holda, biz yurtimizda tinchlikqarashlarni taqozo osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-**

etmoqda. O'zbekiston ana

shu umumsayyoraviy

jarayonlarda, xalqaro **SH.Mirziyoyev** munosabatlar va tashqi siyosatda o'zining zamonaviy qarashlari va

muammolar yechimini topishdagi o'ziga xos yondoshuvlari bilan o'zini keng imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Buni Prezident **SH.M.Mirziyoyevning** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 24 yilligi munosabati bilan

**Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq**

**mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom**

**xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha**

**faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz**

**shart. Bu – zamon talabi.**

**SH.Mirziyoyev** munosabatlar va tashqi

o'tkazilgan

Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham samarali bitim va kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Yevropa investitsiya banki bilan sheriklik aloqalari o'rnatildi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki bilan o'zaro hamkorlik samarali tus olmoqda.

Mamlakatimizdagi ijobiy o'zgarishlar dunyo hamjamiyatida

O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni oshirib, uning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

*SH. Mirziyoyev*

tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu ma'ruzada Prezident O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining hozirgi zamon talablari va zamonaviy sivilizatsiya ehtiyojlari nuqtai nazaridan aniq belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatida mustahkam izchillikning mavjudligi, birinchi Prezident, mustaqilligimizning tashabbuskori, tashkilotchisi va rahnamosi I.A.Karimov boshlab bergan mustaqil taraqqiyot yo'li, ichki va tashqi siyosat davom etayotganligi davlatimiz qudratining

va siyosiy barqarorligining yorqin misolidir. Bugun jahon mehvarida butun salohiyatiyu salobati va qudratini ko'rsata bilgan O'zbekiston davlati tashqi siyosati zamonaviy talablar, bugungi ehtiyojlar va dunyoviy qarashlarning eng ilg'or namunalari bilan boyitib borilmoqda. Demak, O'zbekiston o'zining yangi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev timsolida o'tgan 25 yilda to'plangan tarixiy tajribalarga tayangan holda uni yanada takomillashtirish, rivojlantirish yo'lidan bormoqda.

---

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavfxatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Bular O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo'lganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

2017 yilda 21 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Natijada 400 dan ortiq bitim va kelishuvlarga erishildi, qariyb 60 milliard AQSH dollari hajmidagi savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi. Qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o'z vaqtida to'liq bajarish maqsadida 40 ta "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

O'tgan yilda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 312-bandida O'zbekistonning "Siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorligini rivojlantirishga doir "yo'l haritasi" loyihasida quyidagilarni nazarda tutilgan edi:

oliy va yuqori darajalardagi tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralarni tayyorlash va tashkil etish;

xavfsizlikni

ing dolzarb masalalari bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar

darajasidagi maslahatlashuvlarni o'tkazish;

ikki va ko'p tomonlama shakllardagi tashabbuslarni, shu jumladan, o'zaro hamkorlikni kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va baqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish" kiritilgan. Bu O'zbekistonning tashqi siyosatidagi faoliyatini izchil va rejali tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Dasturning 313-bandida "O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 2017 yildagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlanishini va kengayishini ta'minlashga doir "yo'l haritasi" loyihasida esa:

O'zbekiston korxonalarining mahsulotlari va xizmatlarini tashqi bozorga eksport qilishni kuchaytirib borish;

O'zbekistonda investitsiyalarni, ilg'or texnologiyalarni, sayyoxlar oqimini, shuningdek, grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik ko'maklarni jalb etish;

Respublikaning transport -tranzit imkoniyatlarini oshirish, tashqi savdo va yuktashish ishlari uchun qulay sharoitlarni shakllantirish;

ta'lim, fan va texnika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish" masalalari belgilab berilgan.

Bu O‘zbekistonning jahon bozoriga kirib borishi, milliy mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ta’lim, fan va texnika sohasida hamkorlikni kengaytirishning aniq dasturiy rejasi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi . Dasturning 315-bandi bir qator yangi qonunlarni qabul qilish, amaldagi qonunlarni esa zamon talablari asosida yangi tahrirda qabul qilish vazifasini qo‘ymoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining diplomatik xizmati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunlar loyihalarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi (yangi tahriri) loyihasini;

– yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi nizomning loyihasini tayyorlash va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator siyosiy-iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarni mustahkamlashga doir masalalar aniq, ravshan belgilab berilgan.

Dasturning 317-bandi yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga va bu boradagi ayrim muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Jumladan, unda “Qo‘shni davlatlar bilan Davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirish bo‘yicha muzokaralar jarayonini davom ettirishni nazarda tutuvchi Davlat chegaralarining delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo‘yicha 2017 yilga mo‘ljallangan tadbirlar rejasini ishlab chiqish” masalalari kiritilgan. Bu O‘zbekistonning yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan chegaraviy muammolarini qonuniy hal qilish imkonini beradi.

---

Dasturning 320-bandida “Xalq diplomatiyasini faollashtirish, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi faoliyatlarini takomillashtirish”ni nazarda tutadi. Bunda dastur doirasida jahon xalqlari bilan O‘zbekiston xalqining an’anaviy do‘stlik, madaniy aloqalar borasidagi hamkorligining yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

### **Mening fikrim ...**

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro imidjiga ijobiy ta’sir etuvchi axboriy jarayonlarni kompleks tadbiq etish submintaqaviy geosiyosiy markazlar, davlatlararo birlashmalarda O‘zbekiston imidjini oshirib borish tematikasini dolzarblashtirishi zarur. Bular masalan “**O‘zbekistonga xush kelibsiz**” informatsion portalini yaratish orqali reklamaviy xarakterdagi axborotlarni turli ingliz, nemis , ispan , fransuz, arab , fors , xitoy , rus, koreys, hind tillarida tarjimonlik maktabi vakillari bilan birgalikda ishlab chiqishni toqozo qiladi. Ayni telejurnalistlar bilan birgalikda tele mahsulotlarni yaratib “O‘zbekistonga xush kelibsiz” portaliga joylashtirishni yo‘lga qo‘yish. Ularda xususan



qadimiy etnotariximiz, zamonoviy turizmning barcha yo‘nalishlarini ( ekoturizm , kulinar turizmi va davolash turizmi) kabi turli mavzular - xususan xorijiy turistlarni jalb etishning barcha innovatsion uslublaridan unumli reklama tarzida foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqot va o‘quv amaliyotida turizmga yetakchilik qilayotgan davlatlarning reklama tarixi va tajribasiga etibor kuchli bo‘lishi joiz.

### **Mening fikrim...**

O‘quv jarayoni doirasida “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” yoxud o‘zbek pazandachilik brendi mavzuilarida xalqaro ma’rifiy va seminar tarzidagi uchrashuv , seminar treninglarni tashkil qilib borish.

- O‘zbekiston faxriga aylangan olimpiada va jahon chempionlarini feysbuk, tvitter kabi tarmoqlarda turli xorijiy tillarda maqtab sharhlashni axboriy bosim tarzida yoritishni boshlash.

Axboriy bosim tarzida qo‘hna tariximiz bilan bog‘liq ziyoratgoh, tarixiy obidalar, ekologik toza tabiiy iste‘mol mahsulotlar, yuksak agromadaniyat, milliy hunarmandchilik madaniyati, O‘zbekistonning go‘zal tabiat manzaralari aks ettirilgan elektron multi media sayohat majmualarini, tashviqot teleroliklarni xorijiy tillarda tarjima qilib yoritish, mazkur elektron mahsulotlarning prezentatsiya taqdimotining joylardagi xalqaro tashkilotlar, elchixonalar, vakolotxonalarda tashviqot qilishni tashkil qilish.

Aslida siyosiy natijalarning yechimi ko‘p jihatdan yetakchi geosiyosiy mintaqalardagi integratsiya jarayonlarining mantig‘idan kelib chiqadi. Buni doimo yodda saqlashimiz, tezkor xulosalarga kelishimizni nazardan qochirmasligimiz zarur. Jumladan xalqaro diplomatiyaning bunday paytda ikki tomonlama o‘ynaladigan shaxmat o‘yiniga qiyoslanishi ham bejiz emas. Ayni BMT, Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, SHHT, BRIK, ASEAN muloqotlaridagi aytilishi mumkin bo‘lgan yoshlar va siyosiy ekstremizm mavzusi bundan mustasno emas. Bugun O‘zbekiston rahbariyati va uning yoshlari bugun mazkur masala doirasida qat’iy pozitsiyaga ega. BMT minbaridan turib Prezidentimiz SH. Mirziyovning yoshlar kelajagi va jaholatga qarshi kurash masalasida qilgan nutqlari shubhasiz uni jahonning yetakchi axborot makonlarida targ‘ibot qilish mavzusini yanada dolzarblashtirdi.

---

Jumladan davlatimiz rahbari BMT sessiyasida yoshlar tarbiyasi masalasida:

“Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir.” - deb ta’kidlandi.

Ikkinchidan, xristian-islom muloqoti bo‘yicha davom etgan uchrashuvlarda jahon dinlaridagi tolerantlik mehr-muruvvat, halollik va vijdon erkinligi asoslari xususida ko‘p fikrlar almashilgandi. Xarqalay G‘arb va Sharq o‘rtasidagi muloqotning amaliy ahamiyatini kuchaytirishda teng bahs-munozaralarning taqchilligi mavjud. Gap bu yerda ikki xil mentalitet, ikki xil tajriba va ikki xil dunyoqarashning yaxshi ma’nodagi ilmiy-munozarali to‘qnashuvlari haqida bormoqda.

### **Mening fikrim ...**

Ayni shu ruhdagi muloqot madaniyatini o‘quv jarayonlarida shakllantirib borish masalasi qo‘yiladi. Chunki ingliz, fransuz, ispan, nemis tilini o‘rgatuvchi xalqaro tashkilotlar bilan tizimli muloqotlarni yo‘lga qo‘yish ( Gyote instituti, Gyugo instituti, British konsil, Konfusiy maktabi kabilar misol bo‘ladi ) yoshlarga muloqot qilish madaniyati, siyosiy madaniyat, xalqaro hayot va axboriy siyosat bo‘yicha muayyan bilim ko‘nikma tasavvurlarni shakllantirishga kuchli turtki beradi.

### **Mening fikrim ...**

Yoshlar migratsiyasi muammosi qay tarzda talqin etilishidan qat’iy nazar bundan buyon muloqotlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchayib boradi. Zero, hozir rivojlangan Yevropa ham hududi ichida islomlashuv jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Tabiiyki, Yevropadagi bunday shiddatli o‘zgarishlar qo‘shni sivilizatsiya bo‘lmish Sharq jumladan O‘zbekiston bilan bilan ham munosabatlarni o‘yg‘unlashtirishga harakatni kuchaytiradi. Tayyorlanadigan o‘quv uslubiy materiallarda bugun O‘zbekistonda barpo etilayotgan islom sivilizatsiyasi markazi, islom akademiyasi va boshqa islom ma’rifati yo‘nalishidagi islohotlar mohiyati ingliz, rus, arab, fors tillarida tarjima qilinib, portallarda keng tashviqot qilinishi zarur.

### **Mening fikrim ...**

Biz bugun Markaziy Osiyo taraqqiyot tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston o'z misolida polietnik jamiyatlarda dinlararo totuvlik mumkin ekanligini isbotladi, deb bemalol ayta olamiz. Yangi Do'stlik xiyoboni va poytaxtimiz Toshkentda A.S .Pushkin, Shota Rustaveli , Nizomiy Ganjaviy, Abay , Maxtumquli kabi buyuk allomalar sharafiga barpo etilgan va hurmat ehtirom ko'rsatilayotgan boshqa millat vakillariga nisbatan olib 43 borilayotgan siyosat - Toshkent do'stlik shahri, O'zbekiston ko'pmillatli tolerantlik davlati kabi tushunchalarni siyosiy brend darajasiga olib chiqish choralarini kuchaytirish zarur. Asosan rusiyzabon axborot markazlari bilan shu yo'nalishdagi (

Murojaatnomada shuningdek: "Biz O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz", - deb xulosa qilindi.

Keyingi bir yil ichida bu borada keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Jizzax, Angren va Ohangaron shaharlari, G'ijduvon, Urgut tumanlari erkin iqtisodiy zonaga aylantirildi. Bu yerlardagi sanoat ishlab chiqarishiga doir imkoniyatlar, aholi asosiy ko'pchiligining sanoat ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqishi tobora oshmoqda. **Mahalliy aholining ehtiyoji, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning turlari va erkin iqtisodiy zonalarining tarixiy-tabiiy imkoniyatlari inobatga olingan holda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar hajmini kengaytirish va jahon bozorida yetarli darajada mavqega ega bo'lish nazarda tutilgan.** Bu mamlakatda keskin ravishda eksport hajmining oshishi va xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishiga olib keladi.

**Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik aloqalarining kengayishi** har qanday davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblanadi. O'zbekiston taraqqiyotning yangi davrini boshlagan bir paytda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini tobora chuqurlashtirish va uni yangi bosqichga ko'tarish tashabbusi bilan chiqmoqda. **Tinchlik va barqarorlik to'la kafolatlangan, katta ishlab chiqarish salohiyatiga, beqiyos yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'lgan O'zbekistonday mamlakat bilan xalqaro moliyaviy muassasalarning hamkorligi har ikki tomon uchun ham manfaatli ekanligi barchaga ayon.**

"Harbiy sohadagi islohotlarimizning samarasini oshirish maqsadida yangidan qabul qilinayotgan Mudofaa doktrinasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu doktrina O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik tamoyilini, yaqin qo'shnilar bilan do'stona va amaliy

munosabatlarni rivojlantirishni ifoda etadi. Unda davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo'yilgan.; -deb ta'kidladi. So'ngra "Mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz"- deyildi.

**SH.Mirziyoyev**

O'zbekiston boy xomashyo bazasi va ulkan yer osti boyliklari zahirasiga ega. Eng muhimi yuksak intellektual salohiyatga, bunyodkorlik va yaratuvchilik qudratiga ega bo'lgan bag'ri keng xalqi ezgulik va yaxshilik, insoniyat hayotining saodatli istiqboli yo'lida umumbashariy manfaatlarga mos keladigan turmush tarzini qurishga qodir. Shuning uchun ham O'zbekiston rahbari Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa nufuzli moliyaviy muassasalar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ko'rmoqda.

Shu tariqa Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan qilingan Oliy Majlisga murojaatnoma tobora kuchga to'lib, siyosiy va iqtisodiy qudrati oshib borayotgan O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida butunlay yangi davr boshlanganini ko'rsatdi. Ayni shu shkalda O'zbekiston umumsayyoraviy masalalarni hal qilishda, global tinchlik va xavfsizlik muammolari yechimini topishda, insoniyat taraqqiyotini yaxshilik sari burishda o'zining qat'iy pozitsiyasi, aniq xulosasi mavjudligini namoyon etdi. Davlatimiz rahbarining mazkur chiqishlari o'zining ko'pqirraliligi, jiddiy masalalarni ko'targanligi, jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan g'oyatda o'tkir muammolar atrofida fikr yuritayotganligi bilan barcha xorijiy ishtirokchilarining diqqatini tortdi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston jahon siyosatida dolzarb masalalarni qanday prinsiplarga asoslanib hal etadi?
2. Bugun qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash tashqi siyosatimizning qanday yo'nalishi hisoblanadi?
3. O'zbekiston geosiyosiy imkoniyatlarini sharhlab bering.
4. O'zbekiston rahbari SH.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasida qanday maxsus rezolyusiya bilan chiqdi?

5. O‘zbekistonning xalqaro imidjini oshirish uchun yana nimalar qilishimiz mumkin? Sizning fikringiz.
  6. O‘zbekistonning “Siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorligini rivojlantirishga doir “yo‘l haritasi” loyihasida nimalar nazarda tutilgan edi?
  7. O‘zbekiston tashqi siyosatiga oid qabul qilinayotgan yangi qonunlarni sanab o‘ting.
  8. O‘zbekistonning yangi erkin iqtisodiy zonalarini sanab bering.
  9. Moliyaviy muassasalar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik nima?
  10. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik aloqalar qanday kengaymoqda?
- 

## **2 - MAVZU: Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari. Jahon siyosatida shaxsning roli. Jahon hamjamiyati va jahon siyosati.**

### **Reja:**

1. Zamonaviy jahon tartiboti va uning geosiyosiy va jurnalistik tahlili.

*Tayanch so‘zlar: Zamonaviy jahon tartiboti, geosiyosiyosat va jurnalika, axboriy jamiyat, axborot inqilobi davri, “noan’anaviy” tahdidlar*

### **1. Zamonaviy jahon tartiboti va uning geosiyosiy va jurnalistik tahlili.**

XX asrning global geosiyosiy muhitidagi agressorning asosiy ishlab chiqarish sanoatini yakson etish, hududlarni zabt etish bilan bog‘liq mazmuni bugunga kelib o‘zgardi. Axboriy jamiyatda makonni nazorat qilishning asosiy vositasi shaxs ustidan ma’naviy-mafkuraviy nazorat qilish isbotlangan haqiqatga aylandi. YA’ni asosiy maqsad – bir qator muayyan millat va xalqlarning dunyoqarashini boshqarish bo‘lib qoldi. Ayniqsa xalqaro jurnalistik tahlillardagi makon uchun kurashning axborot maydonida yaqqol namoyon bo‘la boshlashi - postklassik geosiyosat to‘g‘risida ilmiy qarashlarga o‘zgarishlar kiritishi joiz edi. Axborot inqilobi davrida xuddi shu madaniy-ma’naviy, milliy-ruhiy omillarga e’tibor berish zo‘raydi.

*Zotan, hozirgi kunda makon uchun olib borilayotgan axborot urushlarining asosiy g‘oyasi – geosiyosiy raqiblarga oldindan rejalashtirilgan va dasturlashtirilgan dunyoning axboriy qiyofasini majburan singdirish, shu tufayli uning boshqaruv tizimini butunlay boshqarishga harakatlar – geosiyosat va jurnalistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarni tubdan yangilab borishni talab etmoqda.*

Qolaversa, jahon siyosatida sovuq urush davridan beri yangi geosiyosiy e’tiqod “Raqibning dunyoqarashini anglash va bilish obyektiv reallikdan

muhimroqdir” degan g‘oya tinimsiz oldinga surilib kelindi. Har holda yaqin o‘tmishda geosiyosat uchun yer makoni (borliqning) kartografiyasi muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, endi geosiyosatning asosiy diqqat markazini inson qalbi muammosi egallay boshladi.

Qizig‘i va muhimi, axborot inqilobi globallashuv jarayonlari taraqqiyoti barobarida yuz bermoqda. Bu, albatta, turli mintaqa va mamlakatlar o‘rtasidagi an’anaviy to‘siqlarning muayyan darajada sidirilib, yuvilib ketishiga sabab bo‘layotir. Har holda uchinchi ming yillikda xalqaro xavfsizlikning barcha asosiy parametrlari o‘zgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan, qurollanish poygasini to‘xtatish kabi omillarga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda “noan’anaviy” tahdidlar bilan kurashish birinchi o‘ringa chiqdi<sup>1</sup>. Agar o‘tmishda strategik jihatdan joylarda razvedka va kontrrazvedka ustuvorlik qilgan bo‘lsa, endilikda ularning o‘rnini axborot oqimlarini tahlil qilish omili egalladi. Ular orasidan agressiv - buzg‘unchi axborot yo‘nalishlarini belgilab olib olish, o‘z vaqtida fosh qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

*Jurnalistika olamidagi yangi voqeliklar geosiyosatchilar oldida yangi noan’anaviy muammoni ko‘ndalang qo‘ya boshladi: bu axboriy xurujning geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolini tahlil qilish muammosidir.* Binobarin bugungi kunga kelib ayni axboriy ta’sir va tazyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potentsiali – milliy mentalitet, milliy madaniyat, odamlarning ahloqiy-ma’naviy qiyofasini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, milliy psixologiya va tafakkur qiyofasining o‘zga kuchlar tomonidan o‘zgartirilishi global tahdid darajasiga yetdi. Shunday qilib, axborot makonidagi ma’naviy-madaniy muammolar abstrakt nazariy emas, balki geosiyosiy mohiyat kasb etmoqda. Tajovuzkor g‘oyalarning hududiy chegaradan chetlab o‘tib, ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalarining vujudga kelishi harbiy harakatlar teatrini turli tamaddunlarning milliy-tarixiy, ruhiy-madaniy olamiga tahdid qilishi bilan ko‘zga tashlanmoqda.

Inson-sivilizatsiya-madaniyat tushunchalari doirasidagi o‘zlikdan voz kechish istagi yetakchi davlatlar murakkab axborot tizimlarining majburiy elementi sifatida kiritilmoqda. Maqsadli axborot ta’siri orqali milliy o‘zlikdan voz kechtirish mexanizmini ishga tushirish yo‘liga o‘tildi, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalanilmoqda.

*Bugun internet, ommaviy axborot kommunikatsiyalari, reklamadan iborat bo‘lgan zamonaviy axborot makoni – bu axborot orqali boshqariladigan yaxlit bir dunyoga aylandi.*

---

<sup>1</sup> Xalqaro terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya, axborot diversionlari shular jumlasiga kiritilmoqda.

*XXI asrda “ko‘zga ko‘rinmas” axboriy ta’sir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada o‘zgartirishi mumkin?*

Hozirgi paytda boshqa davlat va kuchlarga ta’sir o‘tkazishning barcha instrumentlaridan foydalanish asosiy maqsad sifatida yetakchi davlatlar tomonidan oldinga surilmoqda. Global liderlikka intilish yoki ular tomonidan belgilanayotgan qadriyatlarni qabul qilish, “demokratiya eksporti” – g‘arbona demokratik ideal va qadriyatlarni singdira borish, liberal demokratiyani tarqatish tufayli g‘arbona qadriyatlar quvvatining oshirilishi kabi tushunchalar jurnalistik tahlillarning diqqat markazidan o‘rin egalladi. YA’ni, dunyo jurnalistikasi geosiyosiy kurashning virtual maydoniga aylanib ulgurdi. U bir ko‘rinishda beozordek tuyulasada, aslida shafqatsiz va ayovsiz fenomen tusini oldi. Bugun ommaviy axborot vositalarida “yovuzlik o‘qi” deb singdirilgan qator-qator davlatlar beqarorlik, yovuzlik, kambag‘allik, nochorlik o‘chog‘iga aylanayotganligi – taassufki, navbatdagi “antiterror” operatsiyalarning natijalaridan ravshanlashib bormoqda.

Uchinchidan, axborot makonidagi geosiyosiy g‘oya va qarashlarning tahlili odatdagi siyosiy tahlillarga nisbatan o‘ziga xos dinamik yondashuvlarni talab etishi sezilmoqda. Bunda axborot makonida haqiqatni yolg‘ondan farqlay olish uchun geosiyosiy g‘oyalarning to‘qnashuvi bo‘ladigan “kuch maydonlari”ni doimiy ravishda kuzatish talab qilinadi. Ularning kutilmagan vaziyatlarda bir-biriga qarshi bosimini anglash ko‘p jihatdan geosiyosiy bashoratlarimizda asqotadi. Jumladan, bu yerda jahon axborot makonida kuchlar nisbatini bilib borish muhim ahamiyatga ega. Virtual kurash natijalari ko‘pincha shu nisbatga bog‘liq bo‘lib qolayotir.

*Bugun geosiyosatning axborot konsepsiyalari shuni anglatmoqdaki, davlatlar o‘rtasidagi makoniy munosabatlar endilikda virtual makondagi axborot ustunligi bilan belgilanib boradi. Ayni shu ma’noda geosiyosiy strategiyani ishlab chiqish axboriy-mafkuraviy ustunlikka asoslangan operativ konsepsiyani yaratish bilan namoyon bo‘ladi..*

Shu tariqa xalqaro siyosatda mustaqil davlatlarning kuch-qudratini axborot texnologiyalari yordamida o‘stirish, bu borada barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish amaliyoti haqida bahs-munozaralar ko‘paydi. Albatta bu holat kurashning real makondan virtual makonga o‘tishini qizg‘in bosqichga olib kelmoqda. Aslida bu XXI asr siyosat olamidagi o‘ziga xos geosiyosiy inqilob edi. Bugun esa uni geosiyosat va jurnalistika fanlari uyg‘unligida anglash va bilish, tafakkur qilish vaqti yetib keldi. Jahon geosiyosiy sahnalaridagi raqobat shuni talab etadi. Birinchi navbatda tabiiy energiya resurslari uchun bo‘layotgan kurash uning axboriy ta’minotida yangidan-yangi ssenariylarni oldinga surishi aniqlandi: gohida zimdan, gohida oshkora ochiq oydin oldinga surilayotgan geosiyosiy maqsadlarning mag‘zi buni tasdiqlab turibdi. Demak dunyoga kim ustunlik qiladi, - degan masala ayni yetakchi davlatlar axborot siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi. Dunyoga hukmronlik qilishning eng samarali va arzon vositasi



yana bir bor axborot institutlariga borib taqalishi isbot talab qilmaydigan siyosiy aksiomaga aylandi.

Albatta, bunday qarashlar mustaqillik, milliy va davlat manfaatlari borasidagi qizg'in, bahstalap konsepsiyalarni rivojlantirishga, geosiyosat va jurnalistika haqidagi ilmiy nazariy tasavvurlarimizni kengaytirib borishga chorlashi joiz.

Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish ikoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o'tishga yo'l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televideniye esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yanada yangi sifatii bosqichga ko'tardi.

OAV bu so'z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o'quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. Tahlillarda shu nuqtai nazardan OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o'sganligiga e'tibor qaratilmoqda.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

1980 yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug'ullanadi. Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug'ullanadigan 14 kabel va sputnik kanallari, 2 ta radiostansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko'rsatmoqda. CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo'ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o'zida ko'rish imkoniga ega. 1991 yilning yanvarda aynan CNN yordamida Fors ko'rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to'g'ridan-to'g'ri teleefirga olib berildi. 2001 yilning 11 sentabrdagi terrorchilik amaliyoti haqidagi telesyujetlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqea sodir etilgan joydan to'g'ridan-to'g'ri uzatib turildi.

Bi-bi-si eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 yaqin jurnallar tegishlidir. BBC 40 dan ortiq tillarda eshittirishlar olib boradi.

Reyter axborot agentligida dunyoning 91 mamlakatida 14000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyter agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 ta byurosiga ega. Agentlikning xabarlaridan har kuni 1 milliard odam tanishadi. <sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. "Мухаррир", Тошкент: 2009, 77-79-бетлар.

Hozirgi davrda sun'iy yo'ldosh axborot uzatishning eng qulay va samarali vositasi bo'lib qoldi. Ammo u qulay bo'lsa-da, "cho'ntakbop" emas: juda katta mablag' talab etadigan sun'iy yo'ldoshga hamma davlat ham egalik qilolmaydi. Shu bois fazodagi sun'iy yo'ldoshlar bir nechagina davlatga qarashli: AQSH (30 ta), Yaponiya (21 ta), Rossiya (12 ta), Xitoy (9 ta), Hindiston (9 ta). Lekin axborot uzatishning asosiy vositasi sanoqli davlatlar qo'lida to'plangani boshqalarning ham ular aytayotgan "qo'shiq"ka jo'r bo'lishini taqozo etadi.<sup>1</sup>

Ushbu misollar bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini tasavvur qilish imkonini beradi. Axborot inqilobining hosilasi juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko'rish mumkin. Radio, televideniye, internet eng so'nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma'lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda.

Yuqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi. Xususan, radio, televideniye, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma'lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishi qiyin. OAV odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. OAVning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib kelganini ta'kidlash zarur.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo'q qilmagan, katta harajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqatni kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarini o'zgartirishga, ularning regulyatrlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'sir o'tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televideniye fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Ёқубов С. Ахборот жамияти: ҳаёлот эмас, ҳақиқат. // "Тафаккур" журнали, 4-сон, 2007 йил, 15-бет.

<sup>2</sup> Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. "Мухаррир", Тошкент: 2009, 79-бет.

Geosiyosiy konfliktlar tarixi esa geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvida jurnalistika instituti hech qachon to‘liq mustaqil bo‘la olmasligini tasdiqladi. Ularning qaramlik darajasi esa nazorat qiluvchi muayyan xalqaro korporatsiya, sanoat va moliya guruhlarini, jumladan, turli davlatlar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning siyosiy jihatdan nazoratiga bog‘liq holda o‘z yechimini topmoqda. Yana bir tomoni, bunday paytda OAVdan ko‘proq foyda olish ayni yetakchi davlatlardagi matbuot erkinligining darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolayotir. Kundan-kunga zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan ularning faoliyatini nazorat qilish qiyinlashib boraveradi. Shuningdek, bugun rivojlangan davlatlarning har qanday fuqarosi tele-radio kanallar, internet tarmog‘i va boshqa axborot manbalaridan turli xil axborotni olish huquqi va imkoniyatiga ega. *Hozir OAVning geosiyosiy manfaatlarini oldinga surilishdagi rolini oydinlashtirish masalasi jiddiy tus olgan davr. U mazkur masalada ham geosiyosiy tahlillarning zaruriyatini tasdiqlaydi.*

Bugun ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo‘liga o‘tilgan. Albatta shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan OAV turli davlatlar haqida hududiy tasavvurlarni rivojlantirishi, kayfiyatlarni o‘zgartirib turishi, aholining keng qatlamida tarqala olish imkoniyatiga ega.

*OAVning bu imkoniyati ijtimoiy fikrni shakllantirishda juda qo‘l keladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u geosiyosiy o‘yinchilarning o‘yinchog‘iga aylanishi hech gap emas. Bu jarayonda transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar kabi boshqa turli aktorlarning teng ishtirok etishga intilishi sezilmoqda. Shu tariqa, hozir turfa xil mafkuralarni tarqatish OAVning birinchi darajali vazifalari jumlasiga kiradi. Natijada, tarqatilgan axborot gazeta-jurnal, radio-televideniye, audio-video kassetalar va internet tarmog‘i orqali belgilangan geosiyosiy vazifalarni bajara boshlaydi.*

Istiqbolda shu shaklda OAV uzoq vaqt turli xil geosiyosiy maqsadlarni ilgari surishda muhim ishtirokchi bo‘lishi kutilmoqda. Bu zamonaviy geosiyosiy maktablar oldida ma’rifatli jamiyatga mos keluvchi geosiyosatning yangi mezonlarini ishlab chiqish vazifasini ham dolzarblashtiradi. Bu holatda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, televideniyeining geosiyosiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazishini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Televideniye bugungi zamonaviy jamiyatda siyosiy madadni ta’minlash uchun asosiy va qudratli vosita vazifasini o‘tamoqda, ular siyosiy kompaniyalarni tashkil qiluvchi quyidagi sifatlarga ega, ya’ni<sup>1</sup>:*

- *siyosiy ma’lumotlarni zudlik bilan cheklanmagan hajmda yetkaza olish qobiliyati;*

---

<sup>1</sup> Қаранг. А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 229-бет.

- *siyosiy ma'lumotni har qanday insonga mos ravishda, uning uyiga hech qanday maxsus va ko'zlangan sarf harajatlarsiz o'zlashtirishni talab qilmaydigan tezkor shakliga ega.*

Bugungi siyosiy jarayonning asosiy ishtirokchilari siyosiy ongining shakllanishida televideniyeining yetakchi roli – audivizion xarakterga ega bo'luvchi zamonaviy shaxs madaniyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Televideniye ma'lumotlarning asosiy qismini audivizual funksiyasi orqali yetkazilishi bilan jamiyat siyosiy dunyoqarashida yetakchi rol o'ynamoqda.

***Geosiyosatga oid materiallarning jurnal va gazetalarda e'lon qilina boshlanishi esa axboriy jamiyatga taalluqli bo'lgan yangi mezonlarni geosiyosatga kiritishga sabab bo'ldi. Bularning barchasi axboriy tizimlar o'rtasida geopolitik jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ichidagi ommaviy axborot vositalaridan televideniyeining ahamiyatini alohida kuchayib borishini tasdiqlaydi.***

**Qolaversa, zamonaviy siyosiy psixologiya zamonaviy jamiyatda ratsional yondashuvlar emas, balki "obraz" ("imidj") yorqinligi asosiy rol o'ynashini isbotladi. Bugun jamiyat aksariyat qismining siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlarining telekommunikatsiya yordamida shakllantirishga zo'r berilayotganligi bejiz emas. Har holda media "obraz" etnik, madaniy, mafkuraviy, siyosiy yondashuvlar asosidagi sintez mahsuli deya e'tirof etilmoqda.** O'z navbatida, jamiyatdagi ma'lumotlarning turfa xilligi ham ularning siyosiy hayotga singib ketishiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlarning mavjudligi bilan chambarchas bog'langan. Bunday paytda turfa xil ma'lumotlar shaxsning siyosiy munosabatlar sohasidagi faoliyatining faollashuviga kuchli ta'sir o'tkazadi, odamlarning mustaqillik darajasini o'stiradi. Shu bilan birga, zamonaviy jurnalistikada texnikaning mukammallashib borishi ma'lumot tarqatishning tezligini mutlaq oshirdi, qisqa muddatda odamlarning yirik ommasini qamrab olish qobiliyatini kuchaytirdi<sup>1</sup>.

*Shu tariqa, axborot inqilobi yangi axboriy paradigmalarni geosiyosatda shakllantira boshladi. Uning markazidagi axborot g'oyasiga zamonaviy geosiyosat dinamikasining asosiy omili sifatida qarala boshlandi.*

Bugun axborot texnologiyalari bosimi ostida geosiyosiy hukmronlikning metodlari, siyosiy makon va zamonning dinamikasi ham o'zgara boshladi. Ayniqsa bunday mahalda geosiyosatning yangi o'lchovi bo'lmish virtual axboriy makon katta rol o'ynay boshlaydi. Axboriy texnologiyalar yordamida geosiyosiy kurashning yangi shakllari avjga chiqdi. Bularning barchasi, geosiyosatdagi zamonaviy axboriy paradigmalar yordamida quyidagilarni bilishni ko'zda tutadi:

- *dunyodagi geosiyosiy transformatsiyani shunday ta'riflashni tashkil qilish kerakki, uning istiqbolini aniq tasavvur qila olinsin ;*

---

<sup>1</sup> А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 149-бет.

- *global geosiyosiy evrilishlarning sabablarini tushuntirib bera olish, kelajakning voqealigi qachon, qayerda va qanday shaklda bo'lishini bashorat qilishga imkoniyat yaratilsin.*

Bugungi kunning geosiyosiy manzarasi o'zining murakkabligi, global jarayonlarning virtualligi bilan belgilanayotganligini aytib o'tdik. Bu holat geosiyosiy boshboshdoqlik kategoriyasidan geosiyosatchilarga jahon siyosatining murakkabliklariga baho berishda qo'l kelmoqda. Geosiyosat va jurnalistika fanini chuqur o'zlashtirish esa makon ustidan axboriy nazorat o'rnatishning ko'pgina muammolariga doir mustaqil ilmiy pozitsiyani kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Bu so'zsiz axborot inqilobidagi siyosiy makon va zamon tushunchasining ta'rifiga jiddiy o'zgartirishlar olib kirishdan boshlanadi. Shu tarzda bir qator geosiyosiy muammolar jurnalistik tahlillarda o'z aksini topadi.

Shunday qilib axborot to'lqinlarini boshqarish postklassik geosiyosatdagi hokimiyatning asosiy dastagiga aylandi. U borgan sayin virtual shaklga ega bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi o'tmishda geosiyosatni nazorat qilib borgan eski xalqaro institutlarning parchalanishiga olib kelmoqda, yangidan-yangi mojaro va qarama-qarshiliklarning avj olishiga o'z ta'sirini o'tkazib bormoqda. Siyosiy vaqtning tezligi degan tushuncha paydo bo'ldi. Virtual dunyoni o'zlashtirish ayni siyosiy vaqtning tezligidan kelib chiqadi.

Bugun kompyuter monitorlari va televizor ekranlari bilan bog'liq axborot maydonlaridagi buyuk o'zgarishlar klassik geosiyosatdagi makon tushunchasiga qayta ishlov berish bilan baravar qudratga egadir. Geosiyosat va OAVning o'zaro munosabatlari yangi ming yillikda davlatlar o'rtasidagi makoniy munosabatlarning virtual makonda axboriy ustunlikni ta'minlay olishi bilan belgilanmoqda. Shu sababli geosiyosat va jurnalistika fani ayni inson dunyoqarashini nishonga olish masalalarini tushuntirib berish bilan e'tiborli.

*Bugun geosiyosat va jurnalistikaning markaziy muammosi – axboriy jamiyatdagi insonning siyosiy mentalitetini o'zgartirishga ta'sir o'tkazishdir.*

Aslida eng asosiy axborot inqilobi ommaviy axborot vositalaridan tashqarida yuz berdi. Bugun u axboriy-psixologik qurolning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, odamlarning ruhiyati va ma'naviy qiyofasiga samarali ta'sir qilishga qodir. U hozirgi Ukraina, Afg'on va Yaqin Sharq dunyosidagi harbiy-geosiyosiy mojarolarning jurnalistik tahlillarida aniqroq ko'zga tashlanmoqda.

**Bularning barchasi jurnalistik tahlillar orqali geosiyosiy makonni nazorat qilishga doir mexanizmlarni tadqiq etish – geosiyosat ning asosiy vazifalari ekanligini tasdiqlaydi. Geosiyosat va jurnalistika sohasining zarurati ayni shu holatlar bilan ifodalanadi.**

1. Geosiyosat va jurnalistika yo‘nalishdagi tadqiqotlarni tubdan yangilash falsafasini qanday tushundingiz?
2. Zamonaviy axborot makonining geosiyosat bilan bog‘liq ta‘rifini aytib bering.
3. “Ko‘zga ko‘rinmas” axboriy ta‘sir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada o‘zgartirishi mumkin?
4. Axboriy paradigmalarda yordamida bugungi kunning geosiyosiy manzarasi qanday ta‘riflanadi?
5. OAV orqali geomafkuraviy maqsadlarni oldinga surishning mohiyatini tushuntirib bering.

### **3- MAVZU. Jahon siyosatida ko‘p tomonlama formatlar. Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar. Xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlar**

#### **Reja:**

1. Markaziy osiyo mintaqasi - yagona geosiyosiy fenomen
2. Submintaqaviy geosiyosiy markazlar, davlatlararo birlashmalar

*Tayanch so‘zlar: mintaqaviy ixtisoslashuv, geosiyosatning mintaqaviy pozitsiyasi, Markaziy Osiyo, jaxonning yetakchi markazlari*

#### **1. MARKAZIY OSIYO MINTAQASI - YAGONA GEOSIYOSIY FENOMEN**

Xalqaro jurnalist kadrlarni tayyorlashda “mintaqaviy ixtisoslashuv” degan tushuncha mavjud. Ana shu jihatdan olib qaraganda geosiyosatning mintaqaviy pozitsiyadan turib o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega bo‘layotir. Ayniqsa, MO mintaqasini tadqiq etish barobarida bu manzara yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy yirik davlatlarning birontasi bilan ham bevosita chegaradosh emas. Shubhasiz, bu holat geosiyosiy nuqtai nazardan muhim ustunlik hisoblanadi. Tabiiyki, u jurnalistik tahlillarda e‘tiborga olinishi zarur bo‘lgan davlatning muhim geosiyosiy xususiyati sifatida tilga olinadi. Ayni paytda, O‘zbekiston mintaqaning besh mamlakati bilan umumiy chegaraga ega bo‘lgan yagona davlatdir. Shu jihatdan

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtasida, koq markazida joylashganligi bilan kuchli geosiyosiy mavqeiga egadir.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlar umumiy makoni hududidi Osiyo mintaqasida muhim geosiyosiy makon sifatida o'rin tutadi. Ularning hududi 4,4 mln. kv. km bo'lgani holda, butun Osiyoning 10 %ni tashkil etadi. Hudud Xitoy chegaralaridan Eron va Kaspiygacha cho'zilgan bo'lib, Yevropa, Uzoq Sharq va Janubiy Osiyoni bog'lovchi bo'g'indir. Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakda dunyo siyosatida muhim tarixiy rol o'ynashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun MO yangi geosiyosiy maqomga ega bo'lgan tushuncha sifatida qaralmoqda.

Axborot makonida mintaqa davlatlari siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganlaridan keyingi davrda ushbu hudud «Markaziy Osiyo» atamasi orqali tanila boshlandi. YA'ni, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston prezidentlarining 1993 yilda Olma-ota shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvida ular yuqorida nomi aytilgan mamlakatlar hududini birlashtiruvchi geografik maydonga nisbatan bundan buyon Markaziy Osiyo atamasini qo'llash to'g'risida kelishib olingan.

Shu tariqa XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy rivojlanishi uchun ham ahamiyatli bo'lgan ikkita yirik geosiyosiy transformatsiya jarayoni sodir bo'ldi. Birinchisi ikkikutbli tizimning parchalanishi oqibatida yangi beshta mustaqil davlat tashkil topishi bilan bog'liq edi. Bundan buyon Markaziy Osiyo yagona geosiyosiy subyekt sifatida e'tirof etila boshlandi. Ikkinchi muhim geosiyosiy transformatsion voqelik - Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy ahamiyatining globallasuvi bilan belgilanmoqda.

Ahamiyatli tomoni shundaki, Markaziy Osiyoda davlatchilik, fan, madaniyatning rivojlanishida sezilarli iz qoldirgan barcha asosiy davlat tuzilmalarining markazlari hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent madaniyatlarining madaniy- sivilizatsiyaviy ta'siri o'tmishda mamlakat hududidan tashqarida ham juda kuchli bo'lgan. Bu holda o'tgan fasllarda batafsil gaplashishga harakat qildik.

Mintaqaning geografik tasnifi esa bizlarga mazkur geosiyosiy makonning yaxlitligini tasdiqlovchi xulosalarga kelishimizga imkoniyatni yaratib beradi. Masalan, bu yerda Markaziy Osiyo davlatlarini goyografik jihatdan birlashtirib turuvchi asosiy omil sifatida mintaqaning tashqi suv havzalariga quyiladigan daryolarga ega emasligini ko'rsatish mumkin. Xususan, mintaqada davlatlararo ahamiyatga ega Amudaryo va Sirdaryo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston), Talas va Chu (Qozog'iston va Qirg'iziston), Ili (Qozog'iston va Xitoy) va Tarim (Tojikiston, Qirg'iziston va Xitoy) kabi daryolar Orol mintaqasidagi berk suv havzalariga quyiladi.

Ikkinchidan Tojikiston hududining 90 foiz ko'pini Pomir, Tyan-Shan va Hisor-Oloy tizimiga mansub tog'lar tashkil etadi. Aholining asosiy qismi tog'lar orasidagi vodiylarda istiqomat qiladi. Tojikiston yetakchi geosiyosiy davlat

bo'lmish Xitoy bilan 414 km va harbiy-siyosiy beqarorlik hukm surayotgan Afg'oniston bilan 1206 km umumiy chegaraga ega .

MO mintaqasining yangi suveren subyektlaridan Qirg'iziston ham tog'li mamlakatlar qatoriga kiradi. Mazkur davlat umumiy maydonining qariyb 94 foizini Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizimlari tashkil etadi. Mamlakat hududida 3000dan ziyod ko'llar va bir qancha daryolar mavjud. Aholining asosiy qismi Chuy viloyatida va Farg'ona vodiysining Qirg'istonga tegishli tog' bag'ri hududlarida yashaydi. Qirg'iziston kuchli geosiyosiy aktorlardan bo'lmish Xitoy bilan 858 km umumiy chegaraga ega. Qozog'iston umumiy maydonining to'rt dan uch qismini dengiz sathidan 100300 metr balandlikda joylashgan tekisliklar tashkil etib, janubiysharqiy va sharqiy chegaraviy hududlarida Tyan-Shan, Olotov va Oltoy kabi tog'lar joylashgan. Mamlakat g'arbida Kaspiy bo'yi pasttekisligi, markazida esa qozoq pasttekisliklari tizimi joylashgan. Umumiy hududining faqat 23 foizi dehqonchilikka va 70 foizi chorvadorlikka yaroqli. Qozog'iston shimolda va shimoliy-g'arbda Rossiya bilan 6846 km, sharqda va shimoliysharqda esa Xitoy bilan 1533 km chegaraga ega.

Turkmanistonning katta qismi esa Turon pasttekisligidagi qumliklardan iborat bo'lib, mamlakatning dehqonchilik uchun yaroqli hududi umumiy maydonning faqat 3 foizini tashkil etadi. Mamlakatning g'arbida Kaspiy dengiziga tutashib ketgan, uning janubiy chegaralarida Kopetdog' tizimiga mansub tog'lar va balandliklar joylashgan. Ushbu davlat janubda Eron bilan 992 km va Afg'oniston bilan 744 km umumiy chegaraga ega.

Va nihoyat beshinchi yangi suveren davlat O'zbekiston umumiy maydonining beshdan to'rt qismi cho'l tekisliklaridan, 40 foizi esa cho'ldan iborat. Mamlakatning janubiy – sharqiy va sharqiy rayonlarini Tyan-Shan, Hisor tog'lar va tog' oldi hududlari tashkil etadi. Ushbu tog'lar orasida Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo va Chirchiq – Angren vodiylari joylashgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan. Afg'oniston bilan umumiy 137 km chegaraga ega.

Markaziy Osiyo aslida yagona geosiyosiy fenomendir. 1924 yildagi milliydavlat chegaralanish, Stalinning makkorana siyosati tufayli yagona hududni bo'lib tashlashdan iborat bo'lgan tarixiy hodisa geosiyosiy talqinlarda etiborga olinmoqda. Zero, mazkur chegaralanish siyosatini amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy omillar ataylab hisobga olinmadi. Biz bu haqda oldingi fasllarda aytib o'tgan edik. Hozir esa uning xo'jalik tizimida yirik davlatlar va iqtisodiy tashkilotlarga birlashgan holda, ya'ni umumiy mintaqa bozori orqali ma'lum mintaqada davlatlari ishtirok etmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlariga to'xtalar ekan Prezidentimiz shunday deydi:



«...Markaziy Osiyo xalqlarining integratsiyasi orzu yoki kelajakka mo'ljallangan loyiha emas, bu bor narsa, bu - mavjud voqelik bo'lib, faqat tashkiliy, huquqiy va siyosiy shakllarga muhtojdir.

Bu mintaqa muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillika erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini yana qayta xis etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining bu suveren mamlakatlari o'rtasida yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqidagi Shartnomaning imzolanishi shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi».

Shuning uchun Markaziy Osiyo integratsiyasi masalani hal etish maqsadida Prezidentimiz I.Karimov 2001 yilning dekabr oyida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotini tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar ma'lum bir qiyinchiliklarni vujudga keltirayotganini anglagan davlat rahbarlari bu tashabbusni qo'llabquvvatladilar. Natijada, 2002 yilning 28 fevralida Almatida mintaqa davlatlari rahbarlarining uchrashuvida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotiga aylantirildi va uning siyosiy funksiyalari kengaytirildi.

Shunday qilib, 1991 yil 21 dekabrda Olmaota Deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan sobiq Ittifoq rasman barham topdi va Mustaqil Hamdo'stlik davlatlari vujudga keldi. Markaziy Osiyoda beshta mustaqil davlatning vujudga kelishi, shubhasiz, o'zida muhim jarayonlarni ham aks ettiruvchi hodisadir. YA'ni Yevrosiyodagi geosiyosiy vaziyatning tubdan o'zgarishiga olib kelgan, jahon miqyosida avj olayotgan chuqur, «tektonik siljishlar» hosilasi bo'ldi. Markaziy Osiyoning jahon siyosati va iqtisodiyoti mustaqil subyekti sifatida tiklanishi-dunyo miqyosida ro'y berayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylanishga olib keladi. Bugun yuzlab yillar davomida e'tibordan chetda qolgan mintaqa Markaziy Osiyo mintaqasi sifatida yetakchi OAVlarning diqqat markazida. U global axborot makonining yangi geosiyosiy yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Qolaversa, davr shiddati Prezident I.A.Karimovning «Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil mamlakatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq» - degan fikrlarini tasdiqlamoqda.

...Jumladan, Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 2012 yil sentabrda qonun asosida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi»da Markaziy Osiyo mintaqasiga yana bir bor alohida diqqat-e'tibor qaratildi. Unda «O'zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqa bilan bog'liq» ekanligi belgilab qo'yildi.

Xususan, Konsepsiyada Markaziy Osiyo o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va ulkan mineral xomashyo resurslari zahiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e'tibor obyektiga hamda eng yirik davlatlarning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta'kidlab o'tildi. Unda yirik davlatlar Markaziy Osiyo davlatlarining o'z rivojlanish mo'ldeli va siyosiy

yo'lini belgilashida ta'sir o'tkazishga intilayotgani, mintaqada o'z maqsadlarinigina ko'zlayotgan tashqi kuchlarning o'zaro «raqobati» kuchayib borayotgani ko'rsatildi. Konsepsiyada MO mintaqasidagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanish muammosi hamon xal etilmay kelayotganiga alohida urg'u berildi, mintaqada yashayotgan millionlab kishilarning sog'ligiga, aholi genofondiga ziyon yetkazayotgan murakkab ekologik muammolarga e'tibor berildi. Ayniqsa, Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlarini, transchegaraviy suv resurslarini ifloslanishi va atrof-muhitni zaharlashi - Markaziy Osiyoning farovonligi va barqaror taraqqiy etishi uchun tobora xavfli tus olib borayotgani alohida qayd etildi.

Bundan tashqari, ushbu hujjatda mintaqada ochiq, dengiz portlariga chiqishga imkon beruvchi transport-kommunikatsiya yo'llarining cheklangani va ularning o'rnini bosa oluvchi, muqobil yo'nalishlari tizimi yo'qligi Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror iqtisodiy o'sish istiqbollari salbiy ta'sir o'tkazayotganiga jiddiy e'tibor qaratildi. Qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlari hali tugallanmagani Markaziy Osiyodagi vaziyatning murakkablashuviga olib kelayotgani hamda chegaradosh davlatlar orasida ayrim siyosiy, iqtisodiy masalalarni ularning xo'jalik subyektlari o'rtasidagi dolzarb muammolarni xal etishda qiyinchiliklar tug'dirayotgani e'tirof etilgan.

Konsepsiyada O'zbekiston o'z qo'shnilariga nisbatan ochiq, yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hayrihohlik prinsiplariga asoslangan siyosat olib borishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston mintaqadagi barcha dolzarb masalalarni o'zaro manfaatdorlik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslangan holda, muzokaralar yo'li bilan xalqaro huquq normalariga mos ravishda hal etish tarafdoridir.

Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz mintaqadagi davlatlarning o'zlari tomonidan yechilmog'i zarur.

Aytish joizki, mintaqadagi geoiqtisodiy shart-sharoitlar ham asta-sekin o'zgarmokda. Oxirgi yuz yillikda birinchi marta mintaqada davlatlari uchun sharqiy va janubiy strategik yo'nalishda transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi. Chunki Afg'onistondan o'tadigan transport yo'lagi nafaqat katta iqtisodiy naf keltiradi, balki yangi tashqi siyosiy imkoniyatlarni ham tug'diradi. Shu tariqa Markaziy Osiyoda muqobil yo'nalishni tanlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, mintaqada mamlakatlarning rivojlangan transport tarmog'idan boshqa mamlakatlar ham yuklarni tranzit qilish uchun yanada faolroq foydalanmoqdalar. Bu ham xalqaro munosabatlar sohasida mintaqada mamlakatlari mavqeining o'sishiga ko'maklashadi.

Shuningdek, mintaqada o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida global va mintaqaviy qudratli davlatlar orasida yangi kurashlar avj olmoqda. Bu kurash o'tgan davrlardagidan bir qator ko'rsatgichlar bilan farq qiladi. Birinchidan, bu jarayonlarda ishtirok etayotgan dunyodagi kuch markazlarining sonining

ko'payishi yuz berdi. Axborot makonida AQSH bilan Rossiyadan tashqari ular qatoriga Xitoy, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya kabi davlatlar qo'shilganligi qayd qilinmoqda. Ikkinchidan, bu kurashlar mintaqada an'anaviy tahdidlardan tashqari yangi tahdidlar paydo bo'lgan sharoitda sodir bo'lmoqda. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar va noqonuniy qurol-yarog' , odam savdosi, ekologik muammolar yangi tahdidlar majmuasini tashkil qiladi. Markaziy Osiyo ayni shu tarzda ko'p o'lchamli va ko'p qirrali geosiyosiy tushunchaga aylandi. Bularning barchasi MO mintaqasiga jahon hamjamiyati tomonidan bo'lgan jiddiy e'tiborning mislsiz ravishda kuchayishiga olib keldi.

## **2. SUBMINTAQAVIY GEOSIYOSIY MARKAZLAR, DAVLATLARARO BIRLASHMALAR**

Geosiyosat va jurnalistika sohasining jiddiy tahlili aholining turmush darajasi va farovonligi ko'p jihatdan ancha uzoqda joylashgan boshqa davlatlarning hukumati yoki xalqaro tashkilotlarning harakatlari va qarorlariga ham bog'liq ekanligini belgilab beradi. Ayniqsa, quyidagi masalalarda: valyuta-kredit siyosatida, uning almashtirish kursida foiz stavkalarini o'rnatish, kredit olish masalasida neft, gaz, paxta va boshqa strategik resurslari bahosining o'sishi yoxud pasayishi alohida bir davlatning hukumati tomonidan emas, submintaqaviy geosiyosiy markazlar siyosatiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ularning OPEK, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Yevropa Ittifoqi (YEI) va boshqa xalqaro tashkilotlar darajasida belgilanishi global geosiyosatning bugungi manzarasidan kelib chiqadi.

Jumladan, bugun xalqaro savdo va kredit masalasida esa butun dunyo savdo tashkiloti (BTS), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), Jahon banki (JB), Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki (OTTB) kabi tashkilotlarning ahamiyati kattadir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston hududimizda markaziy o'rinni egallagan holda barcha qo'shni davlatlar bilan chegaradoshdir. Qo'shni davlatlar bunday imkoniyatdan mahrumdirlar. YA'ni mintaqamizning barcha davlatlari ulkan geosiyosiy maydonda joylashgan bo'lib, umumiy infratuzilmaga, bir-biriga bog'liq iqtisodiyotga ega holda dengiz kommunikatsiyalaridan ancha olisda joylashgan. (ya'ni mazkur hudud

kontinental hudud hisoblanadi.)

Yevropa qit'asi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubiy Osiyo va O'rtayer dengizi davlatlarining aksariyati bevosita dengiz kommunikatsiyalariga chiqadi. ( dengiz davlatlari hisoblanadi).

Hozirgi paytda submintaqalar ichida Shimoli-Sharqiy Osiyo submintaqaviy Yevroosiyo o'zgarishlarda muhim rol o'ynamoqda. Aynan shu hududda Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Mo'g'iliston joylashgan. AQSH va Kanada mazkur submintaqada Tinch okeanining shimolida joylashgan davlatlar sifatida ishtirok etadilar.

Janubi-Sharqiy Osiyo ASEAN tufayli maksimal integratsiyalashgan hudud hisoblanadi. Janubiy Osiyo submintaqasi esa ATR mintaqasidan ancha uzoqda joylashgan. Lekin Janubiy Osiyo davlatlari va birinchi navbatda Hindiston va Pokiston davlatlari, qolaversa, Markaziy Osiyo respublikalarining ATR mintaqasidagi xalqaro munosabatlarda tobora faol qatnashishi yangi submintaqaviy markazlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Hozirgi kunda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni kengaytirish, xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish bilan birga Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga ham qaratilmoqda. Ushbu mintaqa davlatlari bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'rnatilgan. Xitoy Osiyo-Tinch okeanida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining katalizatori rolini o'tamoqda.

Bu yerda O'zbekiston uchun ham Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozoriga chiqish, mazkur hudud bilan transport kommunikatsiyalarini tiklash ishlarini Xitoy yoki Rossiya orqali amalga oshirish mumkin. O'zbekiston istiqbolli Shanxay hamkorlik tashkilotiga katta e'tibor berib kelmoqda. Mazkur tashkilot 1996 yilda davlat: Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston tomonidan tashkil etilgan bo'lib, umumiy chegara hududlarida harbiy mustahkamlash masalalariga qaratilgan edi va «Shanxay beshligi» deb nomlanardi. Tashkilotda O'zbekistonning qatnashishi, uning nomini o'zgarishiga olib keldi, endi tashkilot "Shanxay forumi" nomini oldi, 2001 yil iyunda u ta'sischi sifatida qabul qilinib, SHXT vujudga keldi. Bu jarayon o'z o'rnida iqtisodiyotni transmilliylashayotganligini va iqtisodiy integratsiyaning kuchayayotganligini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar esa quyidagi yirik hududlarni qamrab olayotganligini ko'rsatib o'tsa bo'ladi:

...O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadigan yana bir yunalish sifatida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida yetakchi o'rin tutgan, modernizatsiya jarayonlari uchun kerakli ilg'or texnologiyalar manbai sanalgan, sanoati rivojlangan G'arb davlatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan. Tashqi siyosatimizning asosiy ustuvor yunalishlari qatoriga global siyosat va iqtisodiyotda tobora asosiy o'rinlardan birini egallab borayotgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi kiritilgan.

Bundan tashqari, ta'kidlanadiki, O'zbekiston O'rta va Yaqin Sharqda joylashgan davlat va mamlakatlar bilan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalar hamda dunyoning mazkur qismida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlarning kelgusidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro manfaatli munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashda davom etadi.

Lotin Amerikasi hamda Karib dengizi mintaqasidagi yetakchi davlatlar va Afrika qit'asidagi mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama asosda, shuningdek, xalqaro

tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirish O'zbekiston milliy manfaatlariga javob berishi hujjatda alohida e'tirof etilgan.

Tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yunalishlaridan yana biri sifatida O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki ko'rsatilgan. Bu yunalishda, avvalambor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan bo'lgan aloqalar nazarda tutilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston BMTni global xavfsizlik va barqarorlikni saqlab turish, davlatlararo dolzarb muammolarni hal etish borasidagi yagona universal tashkilot deb biladi. O'zbekiston tomonidan barqaror rivojlanish, «Ming yillik taraqqiyot maqsadlari», Markaziy Osiyo mintaqasidagi qator masalalarni, xususan, ekologik muammolarni hal etish sohalarida BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan hamkorlik izchil davom ettirilmoqda.

BMT tizimidagi ixtisoslashgan tashkilotlar qatorida O'zbekiston, avvalo, YUNESKO, YUNISEF, BMT Taraqqiyot dasturi, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Jaxon sayyohlik tashkiloti va boshqa tegishli tuzilmalar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Islom Hamkorlik Tashkiloti va boshqa shu kabi xalqaro tashkilot hamda uyushmalar faoliyatida faol ishtirok etish ham mamlakatimiz milliy manfaatlariga mos keladi, tashqi siyosatimizning ustuvor yunalishlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston o'z milliy manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yetakchi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar- Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar bilan aloqalarni rivojlantirishda davom etadi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi-G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy va siyosiy hamkorligi, bir tomondan harakatini boshlagan. AQSH, Kanada, Meksika (Shimoliy Amerika umumiy bozori) ikkinchi tomondan -yagona iqtisodiy hududni vujudga keltirish, asosiy maqsadi G'arbiy Yevropa va Yaponiya mahsulotlarining ekspansiyasiga qarshi turishga mo'ljallangan submintaqaviy tashkilotlardir.

Ayni Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES)-mintaqa davlatlarining o'zaro kelishilgan iqtisodiyot olib borish maqsadiga qaratilgan. Yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlardan tashqari, boshqa iqtisodiy-hududiy tashkilotlar ham mavjud. Ularning asosiy maqsadi o'zaro kelishilgan iqtisodiyot yurgizish bo'lmoqda. Bularga: Markaziy Amerika umumiy bozori, ya'ni «Markaziy Amerika iqtisodiy integratsiyasi haqidagi umumiy shartnoma», Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorligi kengashi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO, Pokiston, Eron, Turkiya, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo davlatlari) va boshqalarni misol tariqasida keltirsa bo'ladi.

...Ma'lumki, SSSR tarqalishidan keyingi postsovet makoni o'z ichki barqarorligi bilan ko'zga tashlanuvchi geosiyosiy konglomeratga aylandi. Davlatlararo Birlashmalar ichida eng kattasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dir.

Dastavval BSSR, RSFSR i USSR rahbariyati tomonidan 1991 yil 8 dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini yaratish shartnomasi imzolandi. Keyinchalik 1991 yil 21 dekabrga kelib Olma-ota shahrida 11 ta suveren davlatlar – Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston hamda Ukrainalar mazkur shartnomaga protokol imzoladilar.

Uchrashuv ishtirokchilari yakdillik bilan tashqi siyosatda respublikalarning hamkorligini ta'minlovchi deklaratsiya qabul qildilar. 1993 yil dekabrda Hamdo'stlikka Gruziya qo'shilib, 2008 yilda ana MDH tarkibidan chiqib ketdi.

Hamdo'stlik suveren tenglik asosida tashkil topib, ularning barcha a'zolari xalqaro huquqning teng huquqli subyektlari hisoblanadi. MDH davlatlarning ko'pchiligi qo'shnilar tomonidan muammoli, bahsli hududga egadirlar. Etnik va diniy konfliktlar kuchaygan hududlar ham MDH doirasiga to'g'ri kelmoqda, u iqtisodiy jihatdan ham : Yevroosiyo iqtisodiy Hamkorligi (YevroAzES), GUAM (Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldaviya) va Belorussiya-Rossiya-Qozog'iston Bojxona Ittifoqi kabi tuzilmalarga bo'linib ketdi .

Ko'p yillar mobaynida mazkur mintaqada bir qator tangli nuqtalar vaziyatni chigallashtirib kelmoqda. Kavkazda Ozarbayjon va Armaniston o'rtasida "Tog'li Qorabog'" mojarosi, Checheniston, Dog'istondagi terroristik harakatlarning hali-hamon mavjudligi, gruzin-abxaz, gruzin-osetin qurolli konfliktlari (2008 yilda Rossiya-Gruziya besh kunlik urushi) , Qrim muammosi shular jumlasiga kiradi. Vaqt Markaziy Osiyodagi konfliktlar mintaqaviy, etnik va diniy ziddiyatlar tariqasida alanga olishi mumkinligi ko'rsatdi. Tojikiston fuqarolar urushi, Farg'ona vodiysi janubidagi xunrezliklar, Bodkent voqealari- Markaziy Osiyoni "tom ma'noda Yevroosiyo" bolqonlarigi aylantirdi. So'nggi yillarda postsovet makonidagi geosiyosatda yana bir yangi tendensiya ko'zga tashlana boshladi. MDH hududida harbiy-siyosiy soha manfaatlariga qarab bo'linish yuzaga kela boshladi. Bir tomondan GUAM (Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova) ikkinchi tomondan KXSH (ODKB) doirasida harbiy hamkorlik kuchayganligi ham siyosiy jurnalistik tahlillarda qayd etilmoqda.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqaro jurnalistikaning "mintaqaviy ixtisoslashuv" degan tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. MO mintaqasidagi klassik geosiyosiy aktorlarni tasniflang.
3. "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkiloti haqida gapirib bering.
4. O'zbekiston MO mintaqasidagi salohiyati qanday ahamiyatga ega.
5. Submintaqaviy geosiyosiy markazlar va davlatlararo birlashmalarning jurnalistik tahlillardagi o'rnini tushuntirib bering.

**4-MAVZU: Siyosiy fanlarning asosiy namoyandalarining qarashlari va siyosiy konsepsiyalar. Jahonning asosiy madaniy-tarixiy markazlari va mintaqalari, ularning taraqqiyot qonuniyatlari. Geosiyosatning asosiy parametrlari.**

**Reja:**

1. Geomafkuraviy konsepsiyalarni anglash davri
2. O'lkamizda "katta o'yin" qanday boshlangan edi?

*Tayanch so'zlar: Jamiyat, jaxon siyosatida mafkuraviy kelishmovchiliklar, davlat, KATTA O'YIN tushunchasi, fuqarolik jamiyati, siyosiy jaraenlar, davlat va fuqaro munosabatlari. GEOMAFKURAVIY KONSEPSIYALAR.*

**1. GEOMAFKURAVIY KONSEPSIYALARNI ANGLASH DAVRI**

Mustaqil davlat, mustaqil siyosat, yangi milliy manfaatlar tizimi va umuminsoniy qadriyatlar, davlatning kuch-qudrati va xavfsizligi bilan global, mintaqaviy xavfsizlik tizimlarining qay darajada uyg'un kelishi, ular o'rtasidagi tabiiy mutanosibliklar va muvozanat saqlash muammolari haqidagi tasavvurlarning o'zgaruvchanligi jahon siyosatida mafkuraviy plyuralizmga ehtiyojni kuchaytiradi. Har holda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi diplomatik, geosiyosiy o'yinlar tarixi bizga navbatdagi katta o'yinlar ishtirokchilari kim bo'lishi mumkin, degan savolni ko'ndalang qo'ydi. Mazkur o'yinlar tahlili, vaqti kelib mutlaqo yangicha shakldagi mafkuralarni qo'llash orqali amalga oshishi ehtimolini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Bugun yangi geosiyosiy vaziyatda mafkura bilan siyosiy ongning o'zaro aloqadorligi xalqaro siyosiy munosabatlarning shakllanishini nazorat qilib turuvchi tafakkurning bir jihati sifatida o'zini namoyon qilayotir. Endilikda jahon hamjamiyatida ko'proq konseptual - ratsional yondashuvlar emas, balki ifodali aytganda «sirti yaltiroq, ichi qaltiroq» obrazlarni yaratish ustunlik qilmoqda. Biz avvalgi mavzularni yoritishda aholining katta qatlamida mafkuraviy va geosiyosiy dunyoqarash asosan telekommunikatsiya hamda internet olami tufayli shakllanayotganligi to'g'risida gapirgan edik.

Hozir dunyoning geosiyosiy tizimida tub o'zgarishlar xarakteri yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan o'zgardi. Yangi suveren davlatlarning mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarning yangilanishi yo'lida o'z mavqeini

mustahkamlashdek tarixiy-siyosiy jarayonlar yuz berdi. Jumladan, O‘zbekiston mafkuraviy xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari rivoj topa boshladi.

XXI asrga kelib, harbiy salohiyat davlatning kuch-qudratini belgilovchi omil sifatida o‘z o‘rnini boshqa mezonlarga -tashqi siyosiy diplomatiyaga bo‘shatib bermoqda. Bu esa Yangi asrda davlatlararo munosabatlarning ma‘rifiylashuvidan kelib chiqib geomafkuraning muhim omillaridan biriga aylanishini taqozo qilayotir. Bundan tashqari, kuchli diplomatiya muayyan davlatning xalqaro miqyosdagi o‘ziga xos ma‘rifiy qiyofasining shakllanishiga xizmat qiladi. Zotan, sayyoramizda harbiy salohiyati emas, balki kuchli diplomatiya tizimi orqali xalqaro jarayonlarga sezilarli ta‘sir qilayotgan mamlakatlardan bir nechtasini keltirish mumkin.

Geosiyosiy amaliyotda «Oshkora bo‘lmagan» diplomatik ta‘sir qilish yo‘li mavjud. Bu yo‘nalishda esa ba‘zi bir tahlillarga qaraganda, qiziqish, maqsad va istaklar, tabiiyki, sir saqlanadi. Diplomatiyaning bu yo‘nalishi uzoq muddatga mo‘ljallangan va geoiqtisodiy foyda olish maqsadiga qaratiladi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, yozma bayon qilinmaydi, shartnomalarda ko‘rsatilmaydi, ammo tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur diplomatiya territorial ekspansiyaga qaratilmasligi ham mumkin. Hozir xuddi shu yo‘sinda jahonning rivojlangan mamlakatlari «uchinchi dunyo» mamlakatlariga o‘zining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy ta‘sirini o‘tkazishga intilmoqda.

Muxoliflarimiz, demokratiya, oshkoralik va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan aniq asimmetriyadan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bu yerda ularning mustaqilligimizga goho oshkora, gohida pinhona qarshi harakat qilayotganliklarining sababini tushunish qiyin emas edi. Ular mustaqilligimizning qanday bosqichga chiqqanligini hamda u yoki bu bosqichda ruhiyatga, ijtimoiy munosabatlarimizga singib ketayotganligini aniq his qilishdi. Ijtimoiy ongni buzish, ijtimoiy kuchlarning qoloq qismidan madad olish niyatida turli xil tahdidli xatti- harakatlarni boshlab yubordilar.

«Davlatlararo munosabatlarning ma‘rifiy izga tushishini oliy ne‘mat – deb hisoblagan holda, ta‘kidlaydi prof. T.Jo‘rayev ushbu munosabatlarning yangi asosda tiklanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi har qanday xususiy fikr ham shu nozik to‘qimaga tig‘ bo‘lib yetishishini anglash lozim. O‘zbekistonga nisbatan bu nomaqbul yo‘l bir guruh tahlilchilar tomonidan hanuzgacha davom ettirilmoqda.» Shu tariqa, O‘zbekistonda mamlakatimiz taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi tashqi tahdidlarni tahlil qilish jarayoni jahon tajribasidan kelib chiqib, «qaysi davlat yoki millat tahdidni anglash, oldini olish va bartaraf qilish bilan bog‘liq chora tadbirlar tizimini aniq ishlab chiqishga erishsa, uning xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyoti va istiqboli ishonarli ta‘minlangan bo‘ladi» degan xulosalarga tayanish yo‘liga jadal o‘tildi.

Masalaning yana bir tomoni shundaki, mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab Afg‘oniston va Tojikistondagi mojarolar nafaqat O‘zbekiston, balki



mintaqamizdagi barcha mamlakatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solib turdi. Afgʻonistondagi ikki tomonning tinchlik va milliy kelishuvga erishishi choʻzilib ketdi. Bu mamlakatda «islom birligi» gʻoyasi milliy xonadonlarga boʻlinish bilan, jihod esa pushtun millatchiligi bilan almashindi. Ayni paytda chegaradosh mamlakatlar diplomatiyasi oldida turgan eng muhim vazifa ushbu notinch hududda mamlakat yaxlitligini taʼminlashdan iborat boʻldi.

Birinchi Prezident I.A.Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining uchinchi sessiyasida soʻzlagan nutqida «Afgʻoniston bilan chegaramizda harbiy toʻqnashuvlar, uzoq davom etadigan nizolar, qarama-qarshilik keltirib chiqarishga boʻlgan har qanday urinishlar ehtimol, bu kimlarningdir rejalariga kirsada – bizning tashqi siyosat doktrinamiz talablariga mutlaqo javob bermaydi», degan taʼkidlari yuqoridagi fikrlarning mantiqiyligini tasdiqlaydi.

Ayni shunday mafkuraviy konsepsiya Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatiga ilmiy-amaliy kuchli taʼsir oʻtkazadi. Shubhasiz, mafkura yillar oʻtishi bilan geosiyosiy tahlilning markaziy kategoriyalari qatoriga kirib ulgurdi. Mafkuraning muayyan karashlar va gʻoyalar tizimi sifatida siyosiy hayotga taʼsirini yaxshi bilamiz. Xar qalay gʻarb siyosiy dunyosi oʻz taʼsir chegaralarini kengaytirish maqsadida koʻp yillar mobaynida “inson huquqlari” mafkurasini bilan qurollanib “erkin dunyo “ uchun sai harakatlarini ayamadi. Ustiga ustak kommunistik sharq ham “butun dunyo proletarlarini birlashtirish” bahonasi bilan geosiyosiy makonni kengaytirishga astoydil qiziqishdi.

SSSR qisqa muddat ichida sotsializmning jahon tizimini yaratdi, mazkur masala jiddiy nazariy va amaliy tajriba maydonida koʻrindi. Amalda xalq demokratiyasining tarafdorlari shaklidagi ulkan geosiyosiy lager harakatda boʻldi. Bir vaqtning oʻzida Afrika, Osiyo va Amerika kabi mintaqalarning aksariyat davlatlarida kommunistik partiyalarga qardosh boʻlgan partiyalar yuzaga kelib, ular asta-sekin qarshi raqib tomonning rejalarini ichidan yemirish yoʻliga oʻtishdi. Alal oqibat mazkur jarayonlar jahon siyosatida “inson xuquqlari” mafkurasining hayotiy manfaatlarini oldinga suruvchi mafkuraviy doktrina sifatida tan olinib boshlashiga olib keldi. Turli mafkuraviy konsepsiyalarning raqobati ham avjiga chiqdi. Ammo koʻpincha geosiyosiy tahlillarda ham “Inson huquqlari” mafkurasiga puxta oʻylangan mafkuraviy doktrina tusini berishga harakat boʻlganligini qayd qila boshlashdi. Qolaversa, oʻzining hayotiy manfaatlarini oldinga surish maqsadidagi kurashlarda mafkuraviy shiorlardan foydalanadigan harakatlar yuzaga kelgan. Qisqa muddat ichida AQSH va SSSRda ketma-ket butun dunyo boʻylab oʻzining gʻoyalarini targʻib etishga qaratilgan mafkuraviy institut, jamgʻarma tashkilotlarni yaratish yoʻliga oʻtdi. Hattoki Gʻarbdagi baʼzi kuchlar 1948-50 yillarda mafkuraviy qarama-qarshilik doirasida mahsus xizmatlarda ishlab chiqilgan yangi ishlanmalardan axborot urushining maxfiy strategiyasi uchun qoʻllash foydalanishni boshladi.

“Sovuq urush”ning tugallanishi bilan esa hammamizga ma’lumki, raqiblar o’rtasidagi “temir devor” olib tashlandi. Geosiyosat shu tariqa dunyoning yangi geosiyosiy manzarasini tushuntirib bera oladigan yangi paradigma va nazariyalarga ehtiyoj seza boshladi. Ana shunday paytda sivilizatsion paradigmaning paydo bo’lishi ayni geosiyosat va jurnalistika uchun yangi mavzular maydonini yaratib berdi. Bular qatoriga asli madaniyatshunoslikning zaminidan paydo bo’lgan sivilizatsiyaviy nazariyani misol keltirish mumkin. Sivilizatsiya birinchi navbatda ahloqiy, ma’naviy ideallarni ilmiy anglash bilan bog’liq hodisa ekanligi bilan bizga ma’lumdir.

*Geosiyosatda sivilizatsiyaviy tahlil birinchi marotaba rus olimi N.Y.Danilevskiy (1822-1885)ning “Rossiya va Yevropa” nomli kitobining 1869 yilda chop etilishi bilan bog’lashadi.*

Mafkuraviy xarakterdagi sivilizatsiyaviy paradigma geosiyosiy uslub tarzida yaratildi. Unda madaniy mansublikning geosiyosiy sohada asosiy rol o’ynashligi ta’kidlanadi. Ularga ko’ra sivilizatsiya ulkan strategik g’oyalarga xizmat qiluvchi ma’naviy ozuqa vazifasini o’taydi. Uning atrofida esa ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan bir qatorda davlat birlashmalari va ittifoqlarning moddiy birlashmasi shakllanib rivoj topadi.

N.Y.Danilevskiy, L.Toynbi, P.Sorokin, O.Shpengler kabi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha “sivilizatsiyalar o’ziga xos insoniy birlashmalarning shakli” hisoblanadi. Ayni shulardagi ahloq tufayli din, e’tiqod, me’morchilik, rassomchilik, urf-odatlar kabi ijtimoiymadaniy mansublik bazasidan kelib chiqqan holda sivilizatsiyaviy umumiylik qator siyosiy foyda ko’rish masalalarida asqotmoqda.

*Sivilizatsiyaviy paradigma XXI asr geosiyosiy xaritasida quyidagi sivilizatsiyalar turlarini shunday tushuntirib boradi:*

- *G’arb xristian (G’arb jamiyati);*
- *Pravoslav xristian (Janubiy Sharqiy Yevropa va Rossiya);*
- *Islom (Shimoliy Afrika va O’rta Sharq);*
- *Hind (Tropik Hindiston);*
- *Konfusian buddi (Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari sivilizatsiyasi);*

Shunday qilib geosiyosatning sivilizatsiyaviy tahlili turli xalq va davlatlarning geosiyosiy xaritada bir-biriga yaqinlashishi yoxud uzoqlashishini asoslashga harakat qiladi. Bu yerda albatta geosiyosatning ayni sivilizatsiyaviy tahlili sivilizatsiyalararo to’qnashuv nazariyasining nihoyatda dolzarb ekanligini isbotlaydi. “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” nazariyasi amerikalik politolog Semyuel Xantington (1929) tomonidan ishlab chiqilgan.

Xantington qarashlariga ko’ra turli sivilizatsiyalar turli madaniy qadriyatlarni yaratadi. U kelajakda o’z-o’zidan sinflar o’rtasidagi mafkuraviy konfliktlarga nisbatan sivilizatsiyalararo qaramaqarshilikni yengish qiyinroq bo’ladi, deb

bashorat qilgandi. Xantington asosan 8 sivilizatsiyadan iborat xalqaro munosabatlar tizimini tahlil qilishga harakat qilgan edi. YA'ni, *xitoy, yapon, hind, islom, pravoslav, g'arb, Lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalari* nazarda tutilgan. Uning ta'kidlashicha, vaqti soati kelib sivilizatsiyalar to'qnashuvi global siyosatda sovuq urushdan keyingi eng asosiy muammo darajasiga chiqadi. Tarixda ayni sivilizatsiyaviy sabablar tufayli Sovet Ittifoqi, Yugoslaviya, Bosniya-Gersegovina kabi davlatlar juda katta tangliklarni boshidan kechirdi. Shu tariqa, zamonaviy geosiyosatda o'zaro ishonch va bag'rikenglik g'oyalari siyosiy elita va liderlar tomonidan jadal ilgari surila boshladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar tavsifiga doir bir qator nazariy mafkuraviy konsepsiyalarning asosi aniq bir yetakchi davlatlar milliy manfaatlariga jiddiy bog'liq ekanligi sezilmoqda. Markaziy Osiyoning geosiyosiy muhitiga aloqador bo'lgan «Beqaror yoy», «Geosiyosiy plyuralizm», «Katta Yaqin Sharq», «Katta Markaziy Osiyo», «Katta o'yin» singari konsepsiyalarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin:

- geosiyosiy jihatdan yuqorida qayd etilgan konsepsiyalar Markaziy Osiyo mintaqasi ustidan nazorat qilishni nazarda tutadi. Bu jihatdan ularning amaliyoti Markaziy Osiyo atrofida davom etib kelayotgan «Katta o'yin»ni nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan tadqiq etishning ahamiyatini belgilab beradi;

- jahon hamjamiyati strategik muvozanatida Markaziy Osiyo mintaqasining o'rnini bevosita Afg'onistonga qo'shni ekanligiga borib taqaladi. Afg'oniston esa G'arb va Sharq, atlantizm va kontinentalizm o'rtasida yuz yildan beri davom etib kelayotgan geosiyosiy «Katta o'yin»ning asosiy xalqasi bo'lishda davom etmoqda;

- tarixda Markaziy Osiyoning besh davlatiga «Katta o'yin» obyekt sifatida qaralgan. Endilikda mintaqaning besh davlati - O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston ham boshqa mintaqaviy va xalqaro yetakchi davlatlar singari «Katta o'yin» konsepsiyasining subyektlari hisoblanmoqda.

Shuningdek, zamonaviy jahon siyosatida ko'proq madaniy emas, balki iqtisodiy ehtiyojlar uchun kurash ketmoqda, degan qarashlar, albatta geomafkura maydonida yangi-yangi nazariy qarashlarni keltirib chiqarishi aniq. Bu qarashlar zamonaviy geosiyosatdagi mafkuraviy to'qnashuvlar davomiyligining tobora faollashishini tasdiqlaydi.

### **“Katta o'yin” konsepsiyasi va uning axboriy-mafkuraviy raqobatda aks etishi**

Mafkuralar to'qnashuvi tarixida “Katta o'yin” tushunchasi konsepsiya sifatida o'ziga xos o'ringa ega. Bugun “Katta o'yin” konsepsiyasi axborotmufkuraviy raqobatda yangidan qo'llanilayotgan konsepsiyalar doirasiga kiradi. Bugun geosiyosiy jarayonlarni aksariyat maxsus nashrlarda tadqiq etish maktablari

yaratilgan. Ularda berilayotgan xulosalarni ishlab chiqish, ayni tashqi siyosat to'g'risidagi tasavvurlarni belgilashda jurnalistmutaxassislarning tor doiradagi turli konsepsiyalarga tayanish mexanizmi seziladi. Umuman jurnalistik tahlillarda faqat nazariy maqsadlarni ko'zlab ish olib borish murakkab jarayon hisoblanadi.

Bugun – OAVlarida mintaqamiz atrofidagi asosiy konsepsiyalardan ayni «Katta o'yin» konsepsiyasini ko'p tilga olinishi mazkur holatning yaqqol ifodasidir. Hozirgi kundagi «Katta o'yin» ham bir nechta davlatlar tomonidan olib borilmoqda. Jumladan, Rossiya Markaziy Osiyo chegaralari va Rossiya hududidan o'tuvchi neft quvurlari ustidan hukmronlikni saqlab qolishga urinmoqda. O'z navbatida AQSH Rossiyadan aylanib o'tuvchi quvurlarni barpo qilishga va shu orqali mintaqaga kirib kelishga intilmoqda. Eron, Turkiya va Pokiston davlatlari esa kelajakda quriladigan neft quvurlari o'zlarining hududidan o'tishini xohlashmoqda. Shu bilan birga Xitoy davlati Sinjon-Uyg'ur avtonom rayonida barqarorlikni ta'minlash, mintaqaga orqali o'z mahsulotlari bozorini kengaytirish va energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun harakat qilmoqda.

*Hozirgi “Yangi katta o'yin” konsepsiyasi o'z xarakteri, maqsadi va Markaziy Osiyoda yangi mustaqil davlatlar tashkil topganligi bilan an'anaviy “Katta o'yin” konsepsiyasidan tubdan farq qiladi. Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va o'z rni yetakchi davlatlarning o'z manfaatlaridan kelib chiqib, mintaqada olib borayotgan siyosatlarida yondoshish usuli o'zgardi. Bu mintaqaning yer osti zahiralari boyligi bilan bog'liqdir.*

## **2. O'LKAMIZDA “KATTA O'YIN” QANDAY BOSHLANGAN EDI?**

Hozirgi paytda tadqiqotlarda yurtimiz tarixini chuqur bilish va shu orqali tarixiy xotirani ulkan qadriyat sifatida asrashdek umummilliy vazifaning yechimi ilmiy jamoatchilikning “biz o'zbekistonliklar kimmiz?” degan savolga imkoniyat darajada aniq javob topa olishi bilan chambarchas bog'liq. Qolaversa, birgina tarixiy – madaniy jihatdan emas, balki o'ziga xos “etnogeooxonosiyosiy” yo'nalishga ega bo'lgan bu savolga javobni birinchi navbatda, ko'p mingyillik beqiyos boy o'tmishimizdan axtarish kerak bo'ladi. Zero, O'zbekiston xalqi uchun bugungi kunda o'ziga mos bo'lgan “geosiyosiy makon”ni yarata olish muammosi, asosan ushbu savolning yechimiga bog'liqdir, - qabilidagi fikrlar berilmoqda<sup>1</sup>. Ayni shu kabi holatlarni nazarda tutgan holda tarixiy-siyosiy jihatdan O'zbekistonning yaqin o'tmishini (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni) modellashtirib, tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Birinchi navbatda, O'zbekistonning o'tmishda yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyatni tadqiq qilishdagi asosiy muammo – bu ushbu geosiyosiy vaziyatni tasavvur qilish, modellashtirish, uning asosiy belgi va xususiyatlarini yoritib

---

<sup>1</sup> Қаранг. Жўраев Т. Тарихий хотира: бугун ва келажак уйғунлиги. Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. Т.; “Академия” нашриёти, 2001, 16-бет.

beruvchi modelini tuza olishda, deb hisoblaymiz. Aslida geosiyosiy vazifalarni modellashtirish geosiyosiy makonlarning dinamik talqini bilan bog‘liq jarayondir. Bunda geosiyosiy makon tushunchasi har qanday geosiyosiy vaziyat uchun asos sifatida yuzaga keladi. Albatta bunday yondashuv geosiyosiy vaziyatlarning shakllanishi va rivojlanishi mexanizmlarini bevosita tadqiq qilishga imkoniyatni kuchaytiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan keyingi Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatning D.N.Zamyatin tashqi, sotsiomadaniy va sivilizatsion ko‘rinishini quyidagicha tasniflaydi: 1) rus ma‘muriyati tomonidan bosib olingan hududda harbiy boshqaruvning joriy etilishi; 2) genezisi va mexanizmiga ko‘ra ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarining mavjudligi; 3) bir hududning o‘zida bir vaqtda turli xil etnosotsial va etnomadaniy (mustamlakachi va mahalliy) bir-biriga qarshi harakatda bo‘lgan strukturalar bilan belgilaydi<sup>1</sup>.

O‘rganilayotgan davrda geosiyosiy vaziyat Markaziy Osiyoda ilk bor G‘arb, Yevropa tushunchasidagi geosiyosiy chegaralarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrning geosiyosiy chegaralari turlicha geosiyosiy makonlar to‘qnashuvi hosilasi bo‘lib, Markaziy Osiyoda bu tarzda chegaralarning shakllanishi geosiyosiy vaziyatning asosiy konturlarini belgilab beradi. Zero Rossiya-Angliya munosabatlari geosiyosiy vaziyat strukturasi tashkil qiluvchi asosiy elementlarning yaqqol ko‘zga tashlanishi; ikkinchidan, tadqiqotning ilmiy asoslanishini ta‘minlovchi nisbatan bir xil, mazmuni o‘xshash bo‘lgan manbalarning ko‘pligi; uchinchidan, nazarimizda XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida Turkiston hududidagi boshqa Buxoro va Qo‘qon xonliklariga nisbatan qiyosiy tahlil uchun soddaroq geosiyosiy vaziyat yuzaga keldi. YA’ni prof. N.Jo‘rayev fikriga ko‘ra, “har bir tarixiy jarayon, ijtimoiy-siyosiy voqelik qandaydir siyosiy manfaat asosida dunyoga keladi. Ayniqsa bosqinchilik, bir hukmdor tomonidan ikkinchi bir mamlakatni zabt etish jo‘g‘rofiy-siyosiy strategik maqsad ekanligi tabiiy hol. Shuning uchun ham ayni shunday jarayonlarni o‘rganayotganda, uni baholayotganda siyosiy mezonlarni ham nazarda tutish zarur”<sup>3</sup>. Jumladan tadqiqotlarda “O‘z barhayotligini ta‘minlashi uchun har bir jamiyat, jumladan, o‘zbekistonliklar ham har bir yangi davrda unga sifat jihatdan boshqacha, “ya’ni davr muddaosi”dan kelib chiqqan holda tayyor ulkan imkoniyatlarni qo‘lga kiritgan bir davrda, ilmiy jamoatchilik ma‘naviy ehtiyojdan kelib chiqib, yana shu abadiy savolni yana bir bor, mutlaqo yangi asosda qo‘ymoqda...

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, milliy xotirani geoxronosiyosiy – zamon va makon uyg‘unligida berish davr talabiga aylanmoqda. Bu yo‘lda O‘zbekiston to‘g‘risida a) mavjud tasavvur, b) mutaxassislar tasavvuri hamda v) siyosatchilar tasavvuridan iborat tizimini qo‘shimcha dalillar, yangi ehtiyojlar asosida qayta

---

<sup>1</sup> Қаранг: Замятин Д.Н. Моделирование геополитических ситуаций. Полис, 1998, №2, 64-65-бетлар.

<sup>3</sup> Жўраев Н. Тарихнавислик: иллатлар ва сабоқлар. Хўррият, 1998 август, №33.

ko‘rish orqali uning bugungi haqqoniy qiyofasi tarixini yaratish lozim”<sup>1</sup> deb ta’kidlanmoqda.

XIX asrning 60-yillarida keyingi sharqiy yarim shar xaritasiga nazar tashlar ekanmiz, musulmon turk mamlakatlari va Rossiya o‘rtasidagi jumladan, ya’ni Kaspiy va Qora dengizlar atrofidagi chegaradoshlikni ko‘ramiz. Rus-musulmon dunyosi (bu yerda Rossiya va musulmon mamlakatlarini nazarda tutayapmiz) – Shimoliy Muz Okeanidan tortib to Afrikagacha hamda Boltiq bo‘yidan Buyuk Xitoy devorlarigacha, shuningdek, butun Hindi-Xitoy yo‘nalishini ham qamrab olgan ma’lum bir makonni tashkil qilgan edi.

Shu tariqa, rus-musulmon dunyosi o‘zbek xonliklari, xristian Yevropasi va buddizm dunyosini uzviy bog‘lab turuvchi savdo, madaniy, siyosiy va harbiy yo‘llarning aksariyati to‘qnashadigan yarim sharning markaziy qismida joylashgan edi. O‘sha paytga kelib, dunyoning geosiyosiy manzarasi tobora geosiyosiy ta’sirlari bilan kuchayib borayotgan Buyuk Britaniya va Rossiya doiralariga bog‘liq bo‘lib qolgan edi. Hindiston va O‘rta Osiyo mohiyatiga ko‘ra Afg‘onistonning yemishi sifatidagi geosiyosiy periferiyaga aylangan edi. O‘z navbatida, o‘sha davrdagi O‘zbekistonning hududiy-makon xususiyatlarining tahlili nazarimizda, bugungi ichki va tashqi siyosatimizni amalga oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlab turib, yana bir bor o‘tmishdagi siyosatchilarning fikr-mulohazalariga qaytishga ehtiyoj tug‘iladi<sup>2</sup>.

Zotan tarixiy tajriba shuni ko‘rsatyaptiki, bunday siyosat nafaqat ko‘p millatli imperiya doirasida, balki uni o‘rab turgan jug‘rofiy – siyosiy makonda ham o‘zining mutlaq hukmronligini o‘rnatishdagi kurashida ham aks etishi mumkin. Odatda, hudud jihatdan kichik bo‘lgan va eng asosiysi – iqtisodiy imkoniyatlar zaiflashgan va ichki beqaror davlatlar ana shunday da’volarga nishon bo‘ladi<sup>3</sup>.

Jumladan, “ruslar – deyiladi xatlarda, Xivaga yaqinlashgan bir davr, inglizlar qarshilik koalitsiyasini tashkil qilish uchun qulay vaziyat sifatida ko‘rindi. Rossiyani yo‘ldan to‘xtatmoq esa Turkiyaning yordamisiz amalga oshishi mumkin emas edi. Ammo Angliyaning xohishiga qaramasdan, o‘z ichki muammolari bilan

---

<sup>1</sup> Жўраев Т. Тарихий хотира: бугун ва келажак уйғунлиги. Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. (Республика илмий-назарий анжумани материаллари), Т., “Академия” нашриёти, 2001, 16-17-бетлар.

<sup>2</sup> «Рус ҳукмдорларининг тожидаги қимматбаҳо гавҳар тошларнинг бири бўлган Туркистон ўлкаси – ёзади М.Грулев ўзининг китобида – “Ҳиндистонга бўладиган юришда таянч нуқтаси” бўлмоғи учунгина Ўрта Осиёдаги стратегик аҳволимизга давлат аҳамияти назари билан қаралмоқда. Ҳамда бу қарашлар фақат фикрлар доирасидагина қолмай, балки зудлик билан амалга ошмоқда. Қуйидаги фактларни келтиришнинг ўзи етарли: битта Фарғона вилоятининг ўзигина пахта билан бутун Москва саноат районини таъминлаш орқали, йилига 25-30 млн. рубл. фойда келтирмоқда. Шу билан бирга ушбу вилоятнинг узоқ вақт яхши алоқа йўлларининг танқислигидан қийналганини айта туриб, зудлик билан ҳудди чўртон балиқ йўриғига кўра Мурғоб темир йўли қурилишининг иқтисодий жиҳатдан деярли нўлга тенг, фақат баъзи бир стратегик аҳамиятга эга эканлигини айтиш даркордир”.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., 53-бет.

mashgʻul boʻlgan Turkiya bosh vaziri Mahmud Posho davrida tashqi manfaatlariga eʼtibor berishga qodir emas edi<sup>1</sup>.

Ingliz-avstriya diplomatlarining say-harakatlari bilan Mahmud Poshoning oʻrniga Midxat Poshoning qoʻyilishi natijasida, London, Vena va Konstantinopol Rossiyaga qarshi yurish uchun birlashishga qatʼiy ravishda ahd qilganlar. Avstriya-Vengriya va Turkiya Tehrondagi Eron shohini “umumiy dushmanga” qarshi kaolitsiyaga qoʻshilishga undashadi. Graf Andrashi esa oʻz vatandoshi Herman Vamberini Tehronga muzokoralar olib borishga yubormoqchi boʻlgan. Ammo Berlinda boʻlib oʻtgan uchala imperator uchrashuvi Avstro-Vengriya vazirining shashtini susaytirib, oʻz maqsadini bir muncha xiloflashtirishga majbur boʻlgandi. Shunga qaramasdan, Eronga past darajali vakillar yuborilganini aytish muhim, ularga Angliyaning Tehrondagi vakili ser Alisonning gaplariga quloq solish uqtirilgan. Angliya va Avstriya bilan yaxshi munosabatda boʻlgan Midxat Posho oʻz navbatida, Tehronga Munif Afandini mahfiy koʻrsatma bilan yubordi. Bunga koʻra Rossiyaning Xivaga qiladigan yurishi rus qoʻshinlarining Eronni butunlay zabt etish yoʻlidagi tayyorgarlik ekanligini tushuntirishi lozim edi. Ammo bu vakillar tashviqoti, rus qoʻshinlarining Eron chegaralariga bexosdan tajovuzi sababli boʻlib oʻtgan S.Peterburg va Tehron oʻrtasidagi muzokaralar tufayli oʻz samarasini bera olmadi<sup>2</sup>.

Ozarbayjon, turkman, oʻzbek, qozoq-qirgʻiz va tatarlar mana shu muhim turk alyansining aʼzolari boʻlishi mumkin edi va faqat ushbu alyansgina, shimoliy raqibiga zarba bera olishi ehtimoliga ega edi<sup>3</sup>. Oʻzbek xonliklari qoʻshni Eron bilan

---

<sup>1</sup> “Бизларга савдо-сотиқдан келаётган фойданинг деярли 20 маротаба кўпайишига қарамасдан, фараз қилиб айтишимиз мумкинки, қилинаётган сарф ҳаражатлар, на унинг, на тилга олинаётган ўлканинг фойдаси билан оқлаши мумкин: - У ҳолда ихтиёримизда яна бир кучли омил қолади; Ўрта Осиёдаги аҳволимизни таъминлаш учун йилига ярим миллиондан ҳаражат бўлишимиздан сўнг, шу нарсанинг уруш йўли билан ҳал қилишга сарфланадиган юзлаб миллионларни иқтисод қилиб, иқтисодий жиҳатдан ютиб чиқишимизга олиб келади. Татар, поляк ва шведлардан сўнг, инглизлар Европадаги рақибларимизга айланди. Европа уруши юзлаб миллионлар туруши билан бирга, бу жиддий таваккал ишдир. Бу таваккалчилик кўпгина инсонларнинг ёстиғини қуритиши билан бирга, контрибуцияда ҳам ўз ифодасини топиши мумкин. Илгариги бизни ҳар қандай вазиятдан фойдаланиб урушга тормоқчи бўлган Англия, эндиликда урушга тортиш учун таваккал қилишга етти марта ўйлаб кўришга мажбур. Осиёда яхши вазиятга эга бўлмасдан туриб, париж шартномасини бузиш мумкинмиди? Асло, ҳар ҳолда гапни урушсиз ҳал қилиб бўлмас, уруш камида эса 100 миллионларни олиб кетиши мумкин эди. Бу 100 миллионларнинг ҳамёнимизда қолишига, бевосита Осиёдаги аҳволимиз қўл келди. Албатта, бу ютуғимизга Франциянинг Пруссия, Австрия-Венгрия кабилар билан хонавайрон қилувчи уруш билан бандлиги, шу жиҳатдан ҳам қаршилиқ кўрсата олмаслиги сабаб бўлди. Бир сўз билан айтганда, вақт жуда омадли танланган эди, ammo Англия илгаридай Австрия ва Туркия билан ҳамкорликда қатъий ва қўрқмасдан ҳаракат қилганида эди, у ҳолда бизларга анча-мунча ташвиш туғдириши мумкин эди”.

<sup>2</sup> Қаранг. Юқоридаги манба. Ўша бет.

<sup>3</sup> Рус истилоси арафасида ўзбек хонликларидаги умумий вазият хусусида венгер саёҳатчиси Вамберининг берган маълумотларига қараганда, у 1863 йилнинг 26 майида Хивага келган, у ерда хон билан учрашиб, хонинг кўп йиллар мобайнида ташқи ишлар билан шуғулланган хизматчиси Шукруллобой исмли шахс билан танишган. Вамберининг ёзишича, Шукруллобой хон элчиси сифатида 1839 йилда Хиротда майор Тодд олдида, бир неча марта Петербург ва Константинополда бўлган. Маълумки, таомилга биноан Константинополда султон ислом динининг халифаси сифатида Туркистон хонларига рамзий маънода сарой лавозимлари улашилган. Шу расмиятчиликка амал қилган ҳолда элчилар фаолият кўрсатган. Хива хони муншон, Бухоро амири-рейс (дин назоратчиси), Қўқон хони эса – султоннинг фахрий чавондози

kamdan kam aloqalar olib borgan. Din omili o'z rolini o'ynagan bo'lsa kerak, musulmonlarning sunniy va shia mazhabiga mansub bo'lganliklari, 2 ta qo'shni xalqlar turon va eron qabila vakillarining azaliy kelishmovchiliklari bunga o'z ta'sirini o'tqazgan. Eron o'z chegaralarini turkmanlar tajovuzidan qo'riqlashga majbur bo'lganligi va boshqa ma'lum sabablarga ko'ra, Turkiston xalqlari taraqqiyotiga ta'siri kam bo'lgan. Bu holat Xitoyga ham taalluqli bo'lib, uning ham o'zbek xonliklari bilan siyosiy munosabatlari yaxshi emas edi. Faqat bu yerda Qo'qon xonligi Qashqar munosabatlarining o'zgacha bo'lganligini aytib o'tish mumkin xolos.

H.Vamberi istilo arafasidagi o'zaro munosabatlarni oydinlashtirish maqsadida ba'zi bir detallarning tahlilini Buxoro amirligidan boshlaydi. Chunki, muallif fikricha, Buxoro kuchli to'ntarishlarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, yuzlab yillar mobaynida hududda ahamiyatini yo'qotmagan. Buxoro O'rta Osiyo sivilizatsiyasining beshigi edi, shu tufayli Xiva va Qo'qon, jumladan, qo'shni Afg'oniston ham uni aqliy va ma'naviy jihatdan ustun qo'ygan.

Buxoroi Sharif dindorlarining islomni targ'ib qilishda bilimdonligi hurmat va e'tiborga sazovor edi. Ko'pchilik o'sha davr siyosatchilarning fikricha, deydi muallif – Xiva va Qo'qon xonliklari bilan to'xtovsiz harbiy to'qnashuvlarning maqsadi kuch bilan birlashtirish siyosati bo'lgan. Ammo, deydi muallif Buxoro amiri hech qachon bunday rejaga ega bo'lmagan. Xonliklarning bir-biriga qarshi urush harakatlari faqat qaroqchilik xarakteriga ega bo'lib, agar ruslar O'rta Osiyoni bosib olish niyatlarini amalga oshiradigan bo'lsa, u holda uchala xonlik bir-biriga yordam berish o'rniga, o'zlarining tarqoqligi tufayli umumiy dushmanga yaxshi yo'l ochib berishlari mumkin (rus generali M.Terentyevning izohlari bunga dalil bo'ladi).

Xiva va Qo'qon Buxoroning ayovsiz dushmanlari bo'lishiga qaramasdan, ular Buxoro uchun unchalik xavf tug'dirmas, aksincha bu payt xavf tabora kuchayib borayotgan Afg'onistondan kutilayotgan edi. Amir Nasrulloning eski raqibi Do'st Muhammadning Amu tomonga qilgan muvaffiyatli yurishlari hamda uning inglizlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi, albatta, unda qo'rquv hissini kuchaytirib yubordi. Nasrulloning o'limidan keyin, uning vorisi bo'lmish o'g'li Muzaffar taxtga o'tirdi. Do'st Muhammadning o'limi qo'rquv hissini yo'qotishiga qaramasdan, inglizlar tufayli kuchli qo'shinga ega bo'lib qolgan Afg'onistonning obro'yi birmuncha o'sdi.

---

ҳисобланган. Бу расмиятчилик йилига фақат бир марта эса олинди, Туркия билан хонликларнинг ўзаро муносабатлари шу билан чекланган. Шунга қарамасдан, Хива вакили Шукруллобой Константинополда 10 йил мобайнида фаолият кўрсатиб, эски таомилга кўра Туркия томонидан моддий жиҳатдан таъминланган. Муаллифнинг, Усманийлар давридаги Туркия Пётр I га нисбатан олдинроқ ҳаракат қилганида, жуда катта таъсир кучига эга бўлиши мумкин эди, деган гипотезаси қизиқарлидир. Чунки, - деб ёзади у, - дини, маданияти, тили турк унсурларидан иборат кучли давлат таркиб топиши мумкин эди, ammo бу каби давлатни буюк княз Романовгина ўзининг айёрлиги ва ҳарбий қудрати тўғрисида турли хил элементлардан шакллантира олди.



Xiva esa bu davrda ichki nizolarini hal qilish bilan ovora bo‘lib, holdan toygan. Vamberining ta’kidiga ko‘ra, Oллоhqulixon (balki Konopleyning maslahatiga ko‘radir) birinchilardan bo‘lib Buxoro va Qo‘qonga o‘z elchilarini ruslarga qarshi ittifoq tuzish maqsadida yuboradi. Buxoro nafaqat rozilik beribgina qolmay, ruslarga shu qadar tez taslim bo‘ldiki, natijada, Qo‘qon, Shahrisabz va Xisor beklklarining ittifoq tuzishga intilishlariga qaramay, taqdir taqozosi bilan barcha kuchlarni birlashtirish ushalmagan orzu sifatida qolib ketdi.

1869 yilning boshlaridayoq ingliz hukumati ruslardan na inglizlar, na ruslar o‘ta oladigan neytral zonalarni belgilash talabi bilan chiqqan edilar. Ushbu bo‘g‘in vazifasini Afg‘oniston o‘tashi lozim edi. Turlicha madaniy dunyolar o‘rtasidagi bufer hududlar hisoblanuvchi ushbu makonda, ko‘proq G‘arb bilan Sharq emas, balki o‘zini ming yillik Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyatidan ustun qo‘yuvchi, G‘arb va yarim-G‘arb, Yevropa va yarim-Yevropa “yevropachasiga” kelishib olmoqchi bo‘lgan edi. Buni ushbu davr siyosatchilari, harbiy va diplomatlari yaxshi tushungan edi.

Rossiya va Buyuk Britaniya afg‘on chegaralanishiga qadar general Skobelev Osiyoda Rossiya va Angliya umumgeosiyosiy chegaralarning yuzaga kelishini uqtirib, Britaniya geosiyosiy ta’sir doirasidagi Afg‘onistonning o‘rnini quyidagicha belgilab bergan edi: “Hindistonni Rossiyaning O‘rta Osiyo mustamlakalaridan Afg‘oniston ajratib turishiga qaramay, har holda strategik ma’noda Rossiya va Angliya chegaralari Osiyoda to‘qnashdilar”. Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishining ahamiyati nafaqat, metropoliya uchun bu hududlarning qimmatligida emas, balki Markaziy Osiyodagi yangi shakllanayotgan geosiyosiy makondagi ahvolning yaxshilanishiga ham bog‘liq bo‘ldi. Turkiston Rossiya tomonidan osonlik bilan bosib olindi va uning asosiy koloniyasi hali hamon Hindiston bo‘lib tuyular edi.

Ushbu o‘rinda, Rossiyaning geosiyosiy makonda Turkistonning geosiyosiy jihatdan ko‘zga tashlanmaganligi, noaniqligi, uning ushbu makonda kuchsiz demarkatsiya qilinishi va relyefining ko‘zga tashlanmaslik tomonlari, uni Hindiston tomon bo‘ladigan yurishda geosiyosiy koridor sifatida qaralganligini aytish joizdir. Bu masalaning bir tomoni. Ammo Rossiyaning ta’sir doirasi, qolaversa, geosiyosiy makonning bosqichmabosqich ichki differensiyasi hosilasi sifatida, yangi geosiyosiy funksiyalarni bajaruvchi hududlar vujudga kela boshlaydi. Endilikda, bu yerda Turkiston – pastki qatlamdagi geosiyosiy zona, Hindiston – yuqori qatlamdagi strategik geosiyosiy maqsad, Afg‘oniston – o‘rta darajadagi o‘tkinchi hudud sifatida qaralishi mumkin edi.

O‘rta Osiyo rus qo‘shinlari tomonidan bosib olingan vaziyatda, avvalambor, shartli model yoki maket tusini olib, keyin real harakatda bo‘lgan geosiyosiy makonning sezilarli qirra va xususiyatlarini namoyon qila boshladi. Ichki chegaralarning ilk bor ajralishi esa eski siyosiy va madaniy doiralarga bog‘liq bo‘lgan holda ko‘proq inersiyaviy xarakterga ega bo‘lgan edi.

1887 yilda general A.N. Kurapotkin tomonidan Bosh Shtabga qilingan ma'ruzada esa, O'rta Osiyo chegaralarini o'tkazishda ko'proq geosiyosiy va geomadaniy omillar hisobga olinib, unga ko'ra geosiyosiy ma'nodagi O'rta Osiyo hududi, geosiyosiy ixtisoslashtirilgan rayonlar – Turkiston o'lkasi va Kaspiyorti viloyatiga aniq bo'lingan edi. Bu davrda Turkiston o'lkasida asosan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarini ichki geosiyosiy o'zlashtirishga asoslanildi. Ayni paytda Kaspiy orti viloyati aniq tashqi yo'naltirilgan Eron va Afg'oniston tomonidagi geosiyosiy vektorda ediki, shu tariqa Rossiya imperiyasi yangi administrativ chegaralar bilan ta'minlanishi joiz edi. Kuropatkin eski siyosiy va etnografik O'rta Osiyo chegaralaridagi farqni belgilay boshlaydi. Bu bilan faktik ravishda yangi davrda yevropacha geosiyosiy makonlarga xos bo'lgan xususiyatlar, belgilar geosiyosiy makonga kiritila boshlandi.

XIX asr mazkur hududga shimol va janub taraflaridan Rossiya va Britaniya imperiyalari tomonidan tahdidlari tufayli, an'anaviy geosiyosiy makonning qisman yo'q qilinishiga olib keldi. Natijada yangi yarim Yevropacha tizimlashgan hudud paydo bo'ldi. Yangi geosiyosiy relyef shakllanib, unda yirik daryolar, siyosiy chegaralarning tabiiy bo'g'iniga aylandi. Geosiyosiy makonning qayta strukturalanishi ham o'ziga xos geoiqtisodiy bo'linishga olib keldi. Uning strukturalanish masalasi mohiyatiga ko'ra, O'rta Osiyo geosiyosiy makonida Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi qarama-qarshi hatti-harakatga bog'liq bo'lib qolgan edi. Shu bilan birga, uzoq vaqt mobaynida ikkala davlat ham qaysi geosiyosiy qoidalarga ko'ra o'yin qilishni bilmas edilar. YA'ni, G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchun an'anaviy xalqaro shartnomalarni "muntazam buzuvchi" Rossiyaning Osiyoga nisbatan geosiyosiy qiyofasi, O'rta Osiyo sharoitida yevropachasiga qabul qilinadigan bo'lib qoldi.

Ishonchsiz mintaqaviy geosiyosiy o'yinlar oldida Rossiya Angliya bilan xuddi Yevropa mamlakati sifatida muzokaralar olib borishga qaramay, har holda Yevropa o'yini qoidalarga ham amal qilishiga harakat qilar edi. Yana shuni alohida qayd qilish joizki, Rossiyaning geosiyosiy tizimlar koordinatida u holatdan bu holatga sakrash yuz berdi, Rossiya Yevropada Osiyo, Osiyoda esa Yevropa ko'rinishida maydonda harakat qila boshladi. Joylarda shimoliy afg'on chegaralanishini o'tkaziladi. <sup>1</sup> (41-bet) Geosiyosiy makonning yangi strukturalanishi mintaqa, hudud va uning chegaralariga bo'lgan munosabatini butunlay o'zgartira boshlaydi.

1870-1880 yillardagi shimoliy afg'on chegaralaridagi aniqlik, ya'ni ikkita yirik davlatning Markaziy Osiyoda ta'sir doiralarning bo'linishi mohiyatiga ko'ra, yevropa chegaralarining Osiyo hududidagi implantatsiya jarayoni sifatida yuz berdi. Shunga ko'ra shartli ravishda chegaralanishning ikkita – yevropacha va osiyocho qiyofasini ajratish mumkin bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Шу ўринда Россия хусусида осиеча тасаввурлар – қолаверса, сиёсий-жўғрофий қиёфаларга суюнган ҳолда билдирилган инглиз зобити Риджвейнинг мулоҳазалари эътиборга молик эканлигини айтиш муҳимдир,

Chunki, u osiyocha geosiyosiy tafakkurda hali mavjud emasdi, uning obrazi tamomila boshqacha bo'lgan. Bu holatga, avvalambor, til darajasida duch kelish mumkin edi, - bu paytda «chegara» so'zining ingliz va rus tillaridagi an'anaviy mazmuni, turkman, o'zbek, xozori va pushtu kabi tillardagi aniq tarjimalarda o'z aksini topa olmaganligi bilan izohlash mumkin. Haqiqiy yevropacha chegaralanishning amalga oshishi yangi geosiyosiy makonning qayta shakllanishini o'ta muhim muammoga aylantirdi.<sup>1</sup>

Ayni paytda afg'on chegaralanishi global sharoitdagi mahalliy yoki mintaqaviy geosiyosiy makonlarning ilk bor bunday strukturalanishining maqsadli hosilasi sifatida namoyon bo'ldi. Dastavval, yangi mahalliy geosiyosiy chegara o'zidan katta va kengroq bo'lgan global geosiyosiy makon ichida vujudga kelganligini aytish muhimdir. Har holda, afg'on chegarasi shu bugunga qadar Yevropa, hozir esa transatlantik geosiyosiy makonlarining muhim elementi sifatida qolmoqda.

1873-1885 yillardagi afg'on chegaralanishida chegara xususidagi bo'lgan bahslar, ingliz zobiti Ridjvey fikriga ko'ra tamomila Yevropa manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan edi: «Rossiya 1885 yildagi London protokoli talablariga ko'ra, qadimdan taka turkmanlariga tegishli bo'lgan afg'on sarhadlari xususida qistovlarni boshlashimiz bilanoq, inglizlar 1873 yilgi shartnomalarga suyana boshlaydi va Afg'onistonning Amudaryo sohillaridagi sarhadlarini Buxoroga qaytarish talabi bilan chiqandi»<sup>2</sup>. Umuman, shartli yevropa tipidagi geosiyosiy makonlarning

unda: "Sahrolar ichidagi ustunlar bilan belgilangan chegara karton chegaradir. U ruslarni qanday ushlab qolishi mumkin? –degan e'tirozga e'tibor qaratsam . Tilning mohiyati chegaralanish uslublarida emas, balki rus imperatorining chegaralar doimo hurmat qilinadi, degan shohona va'dasidir. Bilishimcha, Rossiya avvalombor shartnomalarni ko'ngilli bo'lib, keyin uni buzishdan huzur-halovat olish uchungina tuzadi degan xalqning naqli bor. Uning O'rta Osiyodagi Afg'oniston tomon harakatiga keladigan bo'lsak, u holda men shuni tasdiqlashim lozimki, bu yerda har qanday ayblovdan o'zimizni tiyishimiz darkor. Zero, ushbu harakat toki boshqa qudratli davlat bilan to'qnash kelmaguncha davom etishi aniq", - deyilgan edi.

<sup>1</sup>YA'ni manbalarda: «Masala, amir hududining xavfsizligini ta'minlashda emas, balki gap hazrati oliylari xukumatining chegaralari noma'lum bo'lgan Afg'oniston uchun bu bahsli bo'lishligidir, tabiiyki, gap Rossiya tomonidan formal xalqaro majburiyatlarining kuchiga ko'ra belgilangan chegaralarni tan olgan Afg'oniston uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olish xususida borar edi», -deyiladi. (Novaya afganskaya granitsa kapitana RidjveY. - Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. vip. XXIX. Sp.b, 1888. 98 str).

<sup>2</sup> Qarang. Novaya afganskaya granitsa kapitana RidjveY. - Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. Vip. XXIX. SP.b, 1888. 94 str.

tashkil topishidagi umumiy tamoyillar mayda va kichik bo'lgan mahalliy, madaniy va etnografik chegaralarning umumlashuviga olib keldi.

Afg'on chegaralanishidagi rus va ingliz hududiy geosiyosiy tortishuvlari hamda siyosiy muzokalarida Afg'oniston teng huquqli hamkor sifatida rasmiy qatnasha boshlaydi, Rossiya Buxoro amirligi manfaatlarini himoya qilgan bo'lsa-

da, tabiiyki, asosiy siyosiy yechimlarning barchasi Sank-Peterburg va London tomonidan hal qilinar edi. Ayni paytda, XIX asr Xiva tomon ruslarning yurishi O'rta Osiyoga qilingan bosqinchilik harakatlarning yakunlovchisi bo'ldi.

Rossiyaning Xivaga qilgan bosqini natijasida geosiyosiy manfaatlarning mahalliy, mintaqaviy sohalari buzilib ketdi. Xonlik hududining zudlik bilan bosib olinishiga to'sqinlik qilgan narsa shu bo'ldiki, u ma'lum bir vaqt mobaynida rus hukumati geosiyosiy manfaatlari doirasida pereferiyaga aylanib turgan edi. Zero, u holat to'g'ridan-to'g'ri Angliya bilan to'qnashish, Markaziy Osiyoning butun eski geosiyosiy chegaralariga o'zgartirishlar kiritish xavfini anglatar edi. Vaziyat shu bilan ham murakkablashgan ediki, Xiva Osiyoni kesib o'tuvchi frontal yoki global geosiyosiy chegaralarning shakllanishi muammosi bilan bog'liq bo'lib qolgan edi. Markaziy Osiyo chegaralarining bu muammosi ushbu jarayonning tarkibiy qismi edi.

O'rta Osiyo hududida bosib olingan hududlarning faqat harbiy vazirlik tomonidan boshqarilishi, o'ziga xos geosiyosiy amortizator<sup>1</sup> vazifasini o'tadi. Bu esa Rossiya Tashqi Ishlar Vazirligiga xalqaro diplomatiya bilan hisoblashishga tayyor bo'lmagan o'z siyosiy harakatlarini asoslash uchun ma'lum bir vaqt yutishga, o'ziga kelib olishiga xizmat qildi. 1870 yilning o'rtalariga kelib Xiva uchun bo'lgan siyosiy va diplomatik kurashdan kelib chiqqan vaziyat, uni Markaziy Osiyodagi eng og'ir geosiyosiy nuqta, shu bilan birga hattoki yirik geosiyosiy bo'g'inlardan biriga aylantirdi.

Rus qo'shinlarining Xivani bosib olishining o'zi esa, Markaziy Osiyo geosiyosiy muvozanatini o'zgartirib yubordi va hattoki Xiva xonining geosiyosiy dunyoqarashiga ta'sir qildi. Bu sharoitda afg'on amirining xavfsirashi tabiiyki, Buyuk Britaniya imperiyasiga aniqroq geosiyosiy harakatlar qilishga imkoniyat yaratdi. Bevosita geosiyosiy harakat teatridan rus va eron qo'shinlariga nisbatan olisroqda o'z qo'shinlarini ushlagan Buyuk Britaniya o'z geosiyosiy manfaatlarini, mojaroning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan Afg'oniston manfaatlarini bilan uyg'un holda bu nuqtada aniq shakllantira olishga muvaffaq bo'ldi.

O'sha vaqtda Rossiyaning pozitsiyasi Eronning lokal geosiyosiy manfaatlarini samarali ravishda bartaraf etishga qaramasdan ancha noaniq shaklga ega edi.

XIX asrning oxirlariga kelib Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat assimetriya holatiga tushib qoldi. Borgan sayin O'rta Osiyoning davlat tuzilmalarini asta-sekinlik bilan yutib borayotgan Rossiya o'z nomidan chiqishlar qilgan bir pallada Buyuk Britaniya Afg'oniston kabi kuchli geosiyosiy buferga ega bo'lib qoldi.

---

<sup>1</sup> Изох. Амортизатор – (кучсизланиш) у ёки бу силканиш, зарбларнинг ҳаракатини юмшайтирувчи ускуна.

Shunday qilib, birinchidan, ruslarning Xiva tomon yurishi, qolaversa uning Rossiya tomonidan O'rta Osiyodagi bosib olgan hududlariga qo'shib olinishi natijasida bu relyef dinamik xarakterga ega bo'ldi; ikkinchidan, siyosiy-jo'g'rofiy chegaralarning tezlik bilan uning o'zgarishi biror-bir shaklga kelishini ta'minladi; uchinchidan, Rossiyaning Afg'oniston darvozasiga kelib qolishi bilanoq Markaziy Osiyoda geosiyosiy vaziyat darhol o'zgardi. Shu bilan birga global geosiyosiy vaziyat, avvalambor, Yevropa xususida gapiradigan bo'lsak, afg'on chegaralanishining muvaffaqiyatli amalga oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

to'rtinchidan, ingliz-rus chegaralanishi Markaziy Osiyo va Afg'oniston davlatlari o'rtasida chegaralarni o'rnatishga intilish bo'lmay, balki Rossiya va Angliyaning mintaqada mustamlaka siyosatining amalga oshirishdagi ta'sir doiralarini bo'lib olish bo'ldi<sup>1</sup>. Ushbu chegaralanish mohiyatiga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'onistonning mustaqilligiga rahna soldi, ularning hududiy yaxlitligini buzdi. Natijada, masalan, Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan Badaxshon bilan Vaxanning afg'on amiri qo'liga o'tishi oir xil etnik aholining davlatlar chegaralarining turli tomonida istiqomat qilishiga sabab bo'ldi. Bu keyinchalik milliy mahdudlikning chuqurlashuviga, ularning milliy kamchilik sifatida qoloqlikka duchor bo'lishiga olib keldi.

Va nihoyat, XX asrning boshlariga kelib, rus boshqaruv tizimida Turkiston o'lkasi Imperiyaning Yevropa hamda jahon geosiyosiy muvozanatidagi rolini ushlab turishda Rossiya geosiyosiy makonning mustaqil qismi bo'lib qoldi, degan tasavvurlar shakllanib bo'lindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, «Katta o'yin» konsepsiyasi amaliyotdagi tadbqiqiga ko'ra uchta davr (bosqich)dan (birinchi bosqich XIX asr ikkinchi yarmi; ikkinchi bosqich XX asr oxirlari; uchinchi bosqich XXI asr boshi) iborat bo'lib, uning har bir bosqichi o'z ishtirokchilariga, munosabatlardagi ustuvor masalalariga ko'ra bir-biridan farqlanishi jurnalistik tahlillarning diqqat markazida bo'lishi joizdir.

Bular Markaziy Osiyo mintaqasida strategik mavhumlik holati vujudga kelishini tahlil qilishga imkon beruvchi omillar hisoblanadi. Bunday sharoitda mintaqa davlatlari mintaqaning strategik mavhumlik holatini bartaraf etish uchun kechayotgan geosiyosiy jarayonlarga to'g'ri munosabatda bo'lib, mavjud mafkuraviy tendensiyalarga e'tibor bergan holda o'z tashqi va ichki siyosatini shakllantirishlari ahamiyatlidir. Xalqaro jurnalistikada "Katta o'yin" konsepsiyasining jiddiy tadqiq etilishi mazkur jarayonlarga o'z ijobiy ta'sirini albatta o'tkazadi. Xususan, zamonaviy geosiyosatni tushunish va anglash

---

<sup>1</sup> Афганское разграничение. Переговоры между Россией и Великобританией 1872-1885. Санкт-Петербург: изд-во Минст. Иностр. Дел.1886,3- бет; Бу ҳақда яна қаранг. П.Махкамбоев. Кто и как «определял» границы государств в Средней Азии в середине XIX века? Маяк Востока. Журнал, Т.,1995, 1-2 сон, 144-148 бетлар.

o'lkamizning geosiyosiy o'tmishini zamonlar va makonlar uyg'unligida tadqiq etishni talab etadi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Geosiyosatning predmet maydonida mafkura qanday o'rin tutadi?
2. Mafkuraviy konsepsiyalar raqobati deganda nimani tushunasiz?
3. O'lkamizda "Katta O'yin" qanday boshlangan?
4. Axborot zamonaviy geosiyosat metodologiyasida qanday omil sanaladi?
5. Sivilizatsiyaviy paradigmaning yangi geosiyosiy uslub tarzidagi mohiyatini tushuntirib bering.

**5-MAVZU: Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Jahon siyosatida Yaqin Sharq davlatlari. Jahon siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili.**

**Reja:**

1. Yoshlar dunyoqarashi: axborot asrining o'ziga xos xususiyatlari
2. Jahon siyosatida yoshlar omili: globallashuv davrining o'ziga xos xususiyatlari
3. Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Yaqin Sharq , Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili

**Tayanch so'zlar:** BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH, YOSHLAR DUNYOQARASHI, GLOBALLASHUV DAVRI, erkinlik berish siyosati, jaxon siyosatida yoshlar. Jahon siyosatida Xitoyning Osiyo va tinch okeani mintaqasi davlatlari. Yaqin Sharq , Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari. Jahon siyosatida islom omili.

**“Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir.”**  
**SH.Mirziyoyev.**

Dunyoga hukmronlik qilish g'oyasi bugun yangi ko'rinishga ega bo'ldi. Endilikda kurash faqat yer osti neft-gaz boyliklari uchun emas, balki intellekt dunyosi uchun ham shiddatli kechishini e'tirof etish davri boshlandi. Yoshlar o'z-o'zidan ma'lumki, ayni shu intellektual dunyoning sohiblari va kelajagidir. Bugun ma'naviy barkamollikka intilish g'oyasi orqali mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ma'rifiy islohotlarning samarasidan barchamiz xabardormiz. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa vaqt ichida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dozarb masalalari o'z yechimini topmoqda, mazkur sohadagi faoliyat yangicha mazmun ma'no ega bo'lmoqda. 1991 yildan boshlangan yoshlarga oid davlat siyosatining zamonaviy talablarini o'zida aks ettirgan rivojlanish strategiyasi esa ayni yoshlar qatlamiga oid qonunlarning qabul qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2008 yilni O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan “Yoshlar yili”, 2010 yil “Barkamol avlod yili”, 2012 yil “ Mustahkam oila yili “ deb nomlanishi bilan Davlat dasturlarining qabul qilinishi yoshlar siyosatining tamoyillarining amalga oshirilishida

muhim bosqich bo'ldi. Ayni harakatlar strategiyasi davrida esa yoshlar siyosatining o'ziga xos zamonaviy ilg'or tendensiyalari nomoyon bo'lmoqda. Ayniqsa axborot asrida davlatimizning yoshlarga oid davlat siyosatini komil shaxs tarbiyasi asosiga qurishi - yoshlar tarbiyasida yangi o'ziga xos izchillikning ijobiy imkoniyatlarini nomoyon bo'lishiga olib keldi. Bugungi shiddatli davr bilan bog'liq axborot asri – g'oyaviy-uslubiy jihatdan tadqiqotlarimizning aksariyatiga katta o'zgarishlar olib kirishi aniq. Falsafiy dunyoqarashimizning asliga hamda mazmuniga jiddiyroq, tiyraklik bilan yondoshuvlarni taqozo qiladigan davrda yashayotirmiz. Har holda so'nggi yigirma yillikdagi axborotning keskin tezlashuvi insonning insonligini saqlab qolish, insoniylik, tabiat, siyosat va axloq bilan bog'liq bo'lgan histuyg'ularimizni, ong-shuurimizdagi tasavvur va tushunchalarimizni imtihon g'alviridan o'tkazib turibdi. Ayni axborotning tezlashuvi bilan birgalikda haddan tashqari so'z va xatti-harakatlarga erkinlik berish siyosati- (anarxizm, kosmopolitizm, okultizm, feminstlar kabi harakatlarning bugungi ko'rinishlari bilan bog'liq) tamoyillar orqali tashqi siyosatda ustunlikka erishishning zo'r berilishiga olib kelindi. Har holda jahon geosiyosatining bugungi tahlilidan ko'rinib turibdiki, tig'iz axborotlashgan jamiyat sharoitida kuchli raqobat yuzaga keldi. Shu tufayli yana bir bor axborot asrida yoshlar dunyoqarashi uchun kurash mavzusini tilga olishimizga ichki bir ehtiyoj sezamiz.

Zotan yetakchi OAV tarmoqlarida jamiyatning ma'naviy qiyofasini buzish, unda to'ntarish yasashga urinishlar, hukmronlikka intilishdagi geomafkuraviy manfaatlarning yaqqol tus olish tendensiyalari kuchayotir .

Arab va afg'on dunyosidagi to'qnashuvlarning geosiyosiy mohiyati esa axborot kurashining naqadar kuchayganligini tasdiqlayotir, uning borgan sayin goh mintaqaviy, goh mafkuraviy–madaniy ohangda katta o'yin strategiyasidagi davlatlarning tajovuzkor siyosatiga ta'sir o'tkazayotganligi ommaviy axborot vositalarida ko'p aytilmoqda. Oldimizda shu tariqa axborot xavfsizligini ta'minlashda barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi muhim vazifaga aylanayotir.

Aytmoqchimizki, ma'naviy barkamollikni inkor etuvchi g'arb individualizmi fenomeni dunyo yoshlari ongi va qalbida o'z asoratini qoldirishga ulgurmoqda. Axborotlashtirish va globallashtirish jarayonining biri-birini to'ldirib, ta'sir doirasini kengaytirayotgan bir davr keldi. Milliy tadqiqotlarimizda bunga javoban “ommaviy madaniyat” xavfi hakida baralla aytish a'nanalari kirib kelganligini mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchimiz. Ularda yangiliklarni bir zumda o'zlashtirib oladigan, axborotni tez qabul qila oluvchi yoshlar qatlamiga “destruktiv kult”, paratotalitar, neonatsistik yo'sindagi g'oyalarning fanatizmga moyilligi kuchli bo'lgan o'smir yoshlardan vayronkor kuch sifatida foydalanishning zamonaviy tendensiyalari xaqida qaydlarning berilishi bejiz emas. (2012 yilning so'nggi oylarida” Totenxem” (Angliya) hamda “Latso” (Italiya) futbol uchrashuvidagi futbol fanatlarining to'qnashuvida millatchilik antisemitizmning qo'pol ko'rinishi, xususan, Moskva shahri Manejnaya maydonidagi futbol fanatlarining agressiv millatchiligi (2010 yilining dekabri) millatlararo munosabatlarni qaltislashtirdi.

Ayni 2012 yilning so'nggi oylarida islomiy qadriyatlarni toptashni madh etuvchi filmdagi ma'shumliklar esa ehtirolarni kuchaytirib yubordi, yana bir bor jahon



hamjamiyatida salbiy axborot to'liqini to'g'risidagi bahs munozaralarni avjiga chiqartirdi. Eski davrlarda harbiylar yurish qilib qo'ygandan so'ng diplomatiya o'z karomatini namoyish qilardi. Bugun mutlaqo boshqa vaziyat - xar bir axboriy xuruj va mafkuraviy tahdididan keyin albatta katta siyosat dunyosi o'ziga moslab o'z siyosatini axborotlarda singdirishni boshlayotir.

Ayniqsa, Misr, Suriya, Liviya, Afg'oniston bilan bog'liq axborot makonidagi geosiyosiy raqobat axborot xavfsizligini ta'minlash doirasidagi tadqiqotlarni tezlashtirishi kerak.

Zotan bunday sharoitda barkamol avlodni tarbiyalash – barcha axborotlar tizimlarining himoyalanganlik darajasiga bog'liq jarayon ekanligini yaxshi bilamiz. YA'ni, mazkur sharoitda asosiy iqtisodiy, siyosiy, ta'lim-tarbiya, xarbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariga zid keladigan axboriy tahdidlarning bartaraf etish, axborot tizimlariga noqonuniy suqilib kirishlarning oldini olish uchun qat'iy chora va tadbirlar ko'rilishi talab etiladi. Axborot xavfsizligini ta'minlash xuddi shunday tahdidlarni oldini olish va bartaraf qilish mexanizmining amaldagi ifodasidir. Yevronyus panevropa teletarmog'i, Al-Jazira panarab media kompleksi, rusiyzabon RTR, ORT, jumladan TRT kabi turk telemediakompaniyalari borgan sayin ommaviylashib bormoqda. Tadqiqotlarda mazkur mintaqaviy mediakompaniyalarning ommaviylashuviga ta'sir o'tkazuvchi bir qator xususiyatlar aniqlandiki, bular: a) axborotning eksklyuzivligi; b) voqea va hodisalarga "sharqona", yani ilgaridan "g'arb fuqarolariga" notanish bo'lgan nigohning paydo bo'lishi; v) tarqatilayotgan axborotning ko'ptilligi, ochiqligi va kengligi bilan bog'liq holda axboriy ta'sirning ko'lami xaqida gapirmoqdalar. Ayni ijtimoiy yo'naltirilgan OAV hamda internet tizimidagi ijtimoiy tarmoqlar va bloklarning jahon siyosiy jarayonlariga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etayotir. Ommaviy axboriy- mafkuraviy ekspansiya iqtisodiy blokada hamda harbiy kuch ishlatish tahdidi bilan ko'zga tashlanmoqda. Kibermakondagi stixiyali tarzda amalga oshirilayotgan blogerlarning dahanaka janglari, ur-surlari, kiber xujumlar shunday tizimlar tufayli ommaning siyosiy jiplashishiga hamda sodir etilayotgan jarayonlarga javob tariqasida agressiv munosabat bildirishiga sabab bo'lmoqda

Natijada sodir bo'layotgan voqealar yosh mustaqil davlatlarda demokratlashtirish, inson xuquklarini poymol bo'lishining oldini olish emas, balki mintaqaviy siyosiy-madaniy, iqtisodiy hamkorlikni butunlay parchalashga va buni amalga oshirish uchun uning atrofidagi mamlakatlardan platsdarm sifatida foydalanishga, konuniy siyosiy hokimiyat o'rniga, yangi g'arbparast, milliy boyliklarini arzon garovga transmilliy korporatsiyalarga berishga tayyor bo'lgan, g'arb ideallarini milliy kadriyatlaridan ustun qo'yuvchi siyosiy elita intilishlarida namoyon bo'lganligini voqealar rivoji tasdiqladi.

Lekin, aksariyat holatlarda iqtisodiy tanglik, ishsizlik va qashshoqlikka, korrupsiya kabi muammolarga barham beramiz, taraqqiy topgan demokratik G'arb davlatlari ko'magida rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqamiz, degan va'dalardan birontasi ham bajarilmadi. Aksincha, ushbu mamlakatlardagi muammolar yanada keskinlashdi: aholining kashshoqligi, ishsizlik darajasi ortdi, korrupsiya battar avj oldi, iqtisodiy va

siyosiy inqiroz kuchaydi. Misrdagi siyosiy jarayonlar -yana bir marta bu jarayonlarning istiqboli mavhumliklar bilan bog'liq bo'lib qolayotganligining amaldagi isbotidir... ( Hozir misrliklarning siyosiy xayoti oldida yangi dilemma – yo “musulmon birodarlari” siyosatining diniy–fundamentalistik ohangi bilan kelishish va unga bo'ysunish, yoxud zamonaviy dunyoviy demokratik boshqaruv tizimi qadriyatlarini qayta tiklashni tanlash kabi to'qnashuvlarga boy arosat davri bo'lganini esga olaylik. O'sha davrda qo'shni isroilliklarning o'zida esa “aslida Husni Muborak davri yaxshi davr edi” shaklida gap so'zlar bejiz paydo bo'lmagandi. Ammo kech bo'ldi shekilli. O'zbekchasiga aytganda “G'isht qolipidan ko'chib bo'lgan edi”).

Biz ham sal ilgariroq buning boshqacharoq ko'rinishi bo'lgan, "rangli inqilob" yuz bergach, qo'shni Qirg'izistonda jamiyatning ma'naviy dunyosiga ta'sir o'tqazish hech qanday rahbarlik tajribasiga ega bo'lmagan insonlarning turli lavozimlarni egallab, yillar davomida shakllangan boshqaruv va xo'jalik tizimini izdan chiqarishga olib kelganligini unutganimiz yo'q. Davlat mulki, milliy boyliklar talon-taroj qilindi. Bularning barchasi mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholining turmush darajasi keskin pasayib ketishiga, mamlakatning bo'linish xavfiga olib keldi. Milliy–etnik ko'rinishdagi xunrezliklar yuz berdi. Yoki "inqilob bo'roni"dan chetda kolmagan yana bir yosh mustaqil davlat - Ukrainada yuz bergan "inqilob"dan bir yil o'tmaro'tmas, bu harakat "dohiyolari o'rtasida kelishmovchilik, “siyosiy chayqovchilik” paydo bo'lganligi hamon yodimizda. O'rtada xalqning ahvoli yomonlashishdi, xolos. Zamonaviy demokratik qarashlarga zid bo'lgan siyosiy muhit shakllantirib qo'yildi. Barkamol avlodni tarbiyalash mutlaqo abstrakt siyosiy g'oyalarga bo'ysundirildi.

Axborot makonida jamiyat yoshlarining ma'naviy barkamolligiga tahdid qiluvchi OAVdagi geomafkuraviy xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik, birovlarni qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shaklu shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz.

Aslida, axborot makonida turli yo'llar bilan geosiyosiy kuchlar to'xtovsiz axborot makonini nazorat qilishni maqsad qiladi. Natijada shakllangan qoida va ahloqiy normalardan o'tib, ongli ravishda diniy, milliy, ahloqiy qarashlarga ziyon yetkazuvchi, kerak bo'lsa uni badnom qiluvchi axborotlarni ko'paytirish asosiy mo'ljallarning biriga aylandi. 2013 yil arafasidagi axborot to'loqida g'arb davlatlarining bir jinsli nikohlarga qonuniy ruxsat berilganligi haqida, jumladan qiyomat kuni “oxir zamon” vahimasi doirasida axborotlar ketma –ket berilganligini bir eslaylik. (Moskva cherkovlarining birida pan guruhi a'zolari tomosha ko'rsatganiyoq bunga dalil bo'ladi. Rok guruhi a'zolari yosh ayollardan iborat bo'lgan.” Pusti Rayt “deb atalmish rok guruhining ibodatxonadagi bu chiqishi har qanday axloqiy–tarbiyaviy mezonlardan chetga chiqib ketdi.) Ammo bunda ayrim OAV bir tomonlama faktlarga diqqat-e'tiborini qaratdi, taniqli g'arb siyosatchilari ularni adolatsiz jamiyat qurboni deb ma'lumotlarni tarqatish holatlari yuz berdi, bu ongli ravishda axborotning soxtalashtiruviga olib keldi. Maqsad – bunday harakatlar tufayli inson ongini faollashtirish, olomon psixologiyasini boshqaruvchi axboriy fon yaratish, odamlarning hissiyotini manipulyatsiya qiluvchi mexanizmni ishga solishdir).

Ayni paytda jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash strategiyasi raqibning axboriy harakatlariga qarshilik ko'rsatish, jumladan alternativ axborot tarqatishni qat'iy taqiqlashni ko'zda tutishi joizdir. Zero axborot makonida ko'pincha o'z turmush tarzini tashviqot qilish, raqibning qadriyatlar tizimini obro'sizlantirish kabi milliy o'zlikni, o'z-o'zini yo'q qilish mexanizmini sezdirmasdan, osonlikcha yo'lga qo'yish kuchayib ketmoqda.

Televideniye mohiyatiga ko'ra, axborot makonining ulkan sarhadlarini qamrab olishdagi ahamiyatini yaxshi bilamiz. Har holda siyosiy amaliyot telekanallar tufayli aniq ijtimoiy va siyosiy pozitsiyaga ega bo'lmagan fuqarolar manipulyatsiyaga ko'proq duchor bo'layotganligini tasdiqlamoqda. Geosiyosiy raqobatda yoshlar elitasining madaniy – ma'naviy, ruhiy barkamollikni ta'minlay olmasligi axborot tarqatishning eng qulay va arzon vosita sifatidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, bunday axborotlar albatta millatni ma'naviy sindirish, ahloqiy buzish, o'z sivilizatsiyasiga nisbatan sovuqqonlik loqaydlikni kuchaytirish xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Masalan, bugun ukrainalik o'zlarini feminstlar, ya'ni ayollarning himoyachisi sifatida tanitayotgan bir qancha yosh ayollar guruhi muayyan siyosiy kuchlar tomonidan boshqariladigan, aniq bir destruktiv kuch ekanligi yaqqol sezilib qoldi. Ular ko'proq fuqorolarning diqqat etiborini tortadigan joylarda, davlat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlar, xalqaro ko'rgazmalar kabi tadbirlarda yarim yalong'och holda o'z siyosiy shantajning "karomatini" dunyo ahliga ko'z ko'z qilish yo'lga bemalol o'tib olishgan. Taasufki yetakchi axborot markazlarining ko'pchiligi ayni shunday g'ayri hodisalarga ishqibozdir, natijada axborot oqimlarida bunday tarbiyaviy – madaniy jihatdan noma'qbul holatlarga yo'l ochilib qoldi.

Aynan axborot orqali biror siyosiy guruhlar, partiyalar, diniy oqimlar, umuman muxolif kuchlar hukumatga nisbatan munosabatni keltirib chiqarishda katta kuch sifatida foydalanishga harakat qiladi. Zamon zayli bilan xar qanday shaxs televideniye, radio, gazeta, jurnallar, internetdan juda ko'p ma'lumot olmoqda. OAV institutlari tufayli barkamol avlodni shakllantirish g'oyasi esa mamlakatimiz sharoitida axborot xavfsizligiga tizimli, strategik yondoshuvni taqozo qilishi kerak. Tabiiyki, bunday sharoitda uning subyekti, obykti, ta'minot qilish muammolari, xavfxatarlarning manbasi va axborot oqimlarning qaysi tomonga qarab ketayotganligini aniqlash tobora dolzarblashib boraveradi.

Bundan tashqari, axboriy xavf barcha davlatlar milliy xavfsizligiga dahl qilish jarayonlari kuzatilmoqda. Yuqorida aytganimizdek AQSHdagi internet tarmog'iga chiqib ketgan film (muallifi asli kelib chiqishi misrdan bo'lgan shaxs, hozir uning ustidan sud jarayonlari AQSH da davom etmoqda) shuningdek fransuz jurnallarining birida chop etilgan diniy mavzudagi "Karikatura"lar musulmon dunyosida antisemitizm, millatchilik, diniy xurofot, xalqaro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi juda katta to'lqinni vujudga keltirdi. Bundan foydalangan separatistik ayirma kuchlar axboriy hujumni kuchaytirib, millatlararo totuvlik va tinchlik o'rnatilishiga to'sqinlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi siyosiy-tarixiy tahlillardan kelib chiqsak, avvallari ikkita gigant davlatlar AQSH va SSSR o'rtasida kurash borgan bo'lsa, endilikda siyosat maydoniga Xitoy,

Hindiston, yapon, turk, arab mamlakatlari kirib keldi. Sabab AQShning boshqa mintaqalarda o'z geosiyosatini olib borish uchun sarfxarajatlari bir necha barobarga oshib ketdi. Axborot qurollari orqali siyosiy shantaj yuzaga keltirish ko'p joylarda ish bera boshladi. Siyosiy shantaj orqali bo'ysunayotgan bir qator davlatlar o'ziga bir davlatning "qo'g'irchog'i"ga aylanish holati kuzatildi. Bu yerda geosiyosiy va axborot omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur qarashlar ommaviy axborot vositalarining jamiyat siyosiy jarayonlariga, hokimiyatning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va boshqa sohalarini yoritib borish vazifalariga e'tibor kuchaytirishni taqozo qiladi.

O'z navbatida yangiliklar ko'paygani sari mafkuraviy xurujlar ham avj olishini ta'kidlamochi edik. Bunda OAV — televideniye, radio, matbuot bilan birgalikda internet tarmog'i mafkuraviy ekspansiyada asosiy omilga aylanadi. YA'ni, yana bir bor dunyoni nazorat qilish geosiyosatida "o'rgimchak to'ri"ning ahamiyati ortib borishiga e'tiborni qaratmog'imiz zarurdir. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar fan-texnikaning bunday kamyob ixtirosidan yaxshigina daromad topsada, internet tizimlari ulkan zarar keltiruvchi manbaga ham aylanayotir.

Shu tariqa jamiyatimizdagi barkamol avlodni tarbiyalash falsafasi astasekin ko'z o'ngimizdagi yoshlar dunyoqarashi bilan bog'liq OAVning ro'ldan kelib chiqishi joizdir. YA'ni ular:

-yoshlarga global axborot-kommunikatsion makonda shakllanayotgan sanoqsiz, ko'z ilg'amas tarmoqlar orqali maxalliy va sayyoraviy bog'langan "virtual siyosat ishtirokchilarning" ta'sir qilishi bilan;

- ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan muayyan kuchlarning ommaviy madaniyati tafakkurdagi o'zgarishlarga zudlik bilan javob berishda;

- yoshlarga dezinformatsion materiallarning intensiv, tizimli asosda tezkor tarqalishini ko'zlaydigan axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish uslubining amaliyotga kirib kelishini aniqlash va javob berish bilan namoyon bo'ladi .

Sharq va G'arb tamaddunidagi bunday salbiy mutanosibliklar OAV institutlarining mohiyatini bumeranglashuviga olib kelish ehtimolini kuchaytiradi. Xalqimizda "birovga choh qazima, o'zing tushib ketasan", "oldin pichoqni o'zingga ur, og'rimasa birovga ur", "qutirgan it egasini qopadi" qabilidagi naqlari bejiz aytilmagan. Tashqi siyosiy ambitsiyalarni axborotni o'ta erkinlashtirish tamoyili hisobiga kuchaytirish xavfining zarari bir kunmas bir kun mualliflarning o'ziga bumerangdek aks zarbasini berishi hech gap emas. Demak mamlakatimizdagi barkamol avlodni tarbiyalashda OAVning cheksiz imkoniyatlaridan maqsadli yo'naltirish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

## **2. YOSHLAR DUNYOQARASHI: AXBOROT ASRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Jahon hamjamiyatida salbiy axborot to'liqini to'g'risidagi bahs munozaralarni avjiga chiqib ketayotir. Bunda men qaysi axborotga tayansam yaxshi bo'ladi, kim xaqu kim nohaq qabilidagi savol har bir erkin jamiyat sayin intilayotgan fuqaro oldida o'zgacha namoyon bo'ladi. O'z navbatida hozir geosiyosat markazlari axborot dunyosini o'z qo'lga olishda hech qanday xarakatlarni ayamayotganligini unutmashimiz muhim bo'ladi.

Bugun yetakchi davlatlar siyosiy elitasi yangidan dunyoni bo'lib olish siyosatini amalga oshirish uchun bevosita xarbiy konfliktda bo'lish butun insoniyatning yo'q bo'lib ketishiga olib kelishini tushunib yetganlar. Ular o'zlarining ta'sir doirasini kengaytirish uchun bir-birlarining chegaralariga yaqin joydagi mintaqalar, geosiyosiy nuqtai nazardan muhim bo'lgan hududlarda bilvosita uchinchi kuchlar orqali bellasha boshladilar. Shu maqsaddagi mablag'larni va resurslarni tejash tufayli ko'proq samaraga erishishga tinimsiz intilish – axborot makonlaridagi geosiyosiy raqobatga ta'sir o'tkazish yo'llarini o'zgartirdi..

Yana bir bor tarixga murojat qilsak, SSSR bilan AQSH o'rtasida jahonda gegemonlik kilishga intilish juda katta mablag' va resurslar sarflanishiga majbur qilganligiga amin bo'lamiz. Yillar o'tishi bilan esa urushlar va xar xil jangari guruhlarni tashkil qilish, tayyorlash, kurollantirish kabi xarajatlardan ko'ra samarali bo'lgan mafkuraviy vositalar yordamida xukmronlikka erishish, yashirin holda ta'sirga olish dolzarb bo'la boshladi. Ayni paytda o'tgan asrning 80- yillardan boshlab "Sovuq urush" hamda qurollanish poygasi tufayli tinkasi qurigan totalitar-repressiv, iqtisodiyoti ma'muriy-bo'yruqbozlikka asoslangan SSSR AQSH bilan o'z munosabatlarini iliqlashtirishga harakat kilganini aytmoqchi edik. Chunki xalq xo'jaligi butunlay izdan chiqqa boshlagan mamlakat ahvolini o'nglash uchun G'arbning rivojlangan mamlakatlaridan ko'plab qarzar ola boshlaydi. Bu qarzar esa ma'lum bir siyosiy yon berishlar orqaligina olinishi mumkin edi. Muayyan yon bosishlar iqtisodiy nochor kommunistik sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan Kremlning geopolitik manfaatlaridan voz kechishga majbur qildi. Bundan foydalangan g'arbdagi geosiyosiy markazlar sharqiy Yevropa mamlakatlarida "baxmal" inqiloblar seriyasini amalga oshirishga imkoniyatni yaratib bera boshladilar.

Harqalay, mustabid SSSR 1991 yilda butunlay tugatilgach, dunyodagi kuchlar muvozanati o'zgarib ketdi. Butun bir boshli Yevroosiyo qitasida xuquqiy jihatdan butunlay mustaqil suveren davlatlar paydo bo'ldi. Shu tariqa AQSH o'tgan asrning 90-yillaridan e'tiborini sharqiy Yevropa mamlakatlarini geosiyosiy ta'sirga olish, hamda dunyoda mavjud boshqa kommunistik rejimlarni (Kuba, Xitoy, KHDRda) ham yo'qotish payiga tushdi. Ayni paytda u Yevroosiyoda yakka xukmronlikka to'skinlik qilishi mumkin bo'lgan, o'zining eng katta raqibi sifatida Rossiya Fedaratsiyasi ekanligini esidan chiqarmadi. Bu mustaqil davlatning ravnaqi, tinchligi, farovonligini muhofaza qiluvchi axborot xavfsizligini ta'minlashda yangidan-yangi tadqiqot yo'nalishlarini joriy etilishiga olib keldi. Axborot makoni va geosiyosiy o'zgarishlar mavzuni dolzarblashtirishda tarix, falsafa, siyosiy konfliktologiya, xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi, xalqaro jurnalistika kabi fanlar uyg'unligini ta'minlovchi ilmiy-amaliy jarayonlarning tezlashishiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Yoshlar dunyoqarashi

bilan bog‘liq axborot xavfsizligini ta‘minlash muammosining ochilmagan qirralarini, uning nozik jihatlarini tushunish, ilmiy anglash va idrok etishda muhim ilmiy konsepsiyalarni paydo bo‘lishga xizmat qilayotir.

Yaqinda Yevropada buyuk madaniyatli davlat parlamenti tomonidan (bu masala bo‘yicha 14-davlat sifatida qatordan o‘rin olibdi) bir jinsli nikohlarga ruxsat beruvchi qonun qabul qilindi. Hatto bunday oilalarga farzand olishga ruxsat beruvchi qonunga yo‘l ochildi. Taassufki, mazkur qonunga qarshi fransuz jamiyatida ham kuchli e‘tirozlar bo‘lishiga qaramay, buni erkinlik va demokratiyaning bugungi tantanasi deb jahonga jar solindi. Xususan, siyosiy buyurtmani qoyilmaqom bajargan parlament rahbarining tabassum bilan qonunning qabul qilinishi to‘g‘risidagi bayonotini qandaydir ichki nafrat, qalb isyoni bilan eshitdik. Bu beozorday tuyulgan bayonotning tagida nima yotibdi? Bu bilan insonning falsafiy ta‘rifi o‘zgaradimi? Shaxs va jamiyat tushunchasi-chi? Axir shaxs avvalo oiladan, ota-ona bag‘ridan, degan azaliy qadriyatlar qayda qoldi?

Ming afsuski bugun Avesto, Tavrot, Injil, Maxabxarot, Qur‘oni karim davrlaridan beri unib-o‘sgan turli elat -millat va xalqlarning genefondi, uning istiqboli tahlikali bashoratlarga mahkum.

Globalashuvga bog‘liq bunday “xursandchilikdan” keyin fahm-farosat, iymon, vijdon, sharm hayo, or-nomus bilan bog‘liq insoniy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlarimizga nima bo‘ladi? Aslida bu voqeliklar dunyoviy bilimlar orqali dunyoqarashni boshqarishdagi yangi raqobatdan darak berayotibtimikan? degan savollarni o‘rtaga tashlaydi.

Tabiiyki, bunday sharoitda dunyoqarashlar muammosi bugun boyliklarni ko‘z-ko‘z qilish, is‘temolchilik psixologiyasi, ahloqsizlik falsafasi o‘zagini tashkil qiluvchi amoralizm, loqaydlik, “o‘zi uchun yashash” kabi illatlarning mohiyatini chuqurroq anglashimizga yordam beradi. Zero, axborot asrida bugun virtual hayot, ongni qayta dasturlash, dezinformatsiya, miyani yuvish, mafkuraviy zombi qilish, ommaviy madaniyat kabi yangi ilmiy kategoriyalarning qalqib chiqishi – bevosita yoshlar falsafiy dunyoqarashi uchun tahdidli muammolar yanada chigal tus olishidan darak bermoqda. Ma‘lumki, azaldan yoshlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirish serqirra jarayon bo‘lib kelgan.

YA‘ni, bugun teleradio, internet, matbuot dunyosi muhim minbar rolini bajarish yo‘liga o‘tib bo‘ldi. Ular jamiyat ma‘naviy hayotining, xususan, odamlarning ruhiy, axloqiy poklanishidan kelib chiqqan ijtimoiy institut mavqeiga ega.

Demoqchimizki axborot asrining shiddati oldimizga: - Bugun davlat qay darajagacha va qay yo‘sinda odamlarning tafakkuri, mentalitetiga ijobiy dahl qila olishi mumkin? Yoki inson tafakkuriga ta‘sir qiluvchi axboriy manbalarining ko‘payib ketgan bir davrda jamiyatning ma‘naviy qiyofasi qanday talqin qilinmog‘i kerak? - yo‘sinidagi savollarga ham aniq-ravshan javoblarni talab qiladi.

Bugun mamlakatimizda mazkur jarayonlarda talim-tarbiyaning mohiyatiga jiddiy e‘tibor berilgan tobda ta‘lim-tarbiyada liberallik xususida kelishib olishimiz zarur. Zotan hozirgi paytda odamlarni G‘arb va Sharq madaniyati to‘qnashuvi doirasidagi

turli mentalitet, siyosiy qadriyatlarning yaxlit qolipga solishga urinish tendensiyalari xavotirga tortmoqda. Chunki elektron ommaviy kommunikatsiyalar bugun chegara bilmas qudratga ega, ular qisqa muddatda ming yillik madaniyatni oyoq osti, badnom qila olish xususiyatlari bilan bizga ma'lum bo'layotir. Yoshlar qatlamida eski an'anaviy qadriyatlarni rad etish, jumladan, ko'proq oila, jamiyat masalalarida liberal yondoshuvlarga moyillikning kuchayishi ayni shu yangi axborot to'lqini orqali yuz bermoqda. Jumladan mutola, kitobxonlik madaniyatining bugungi ahvoli, mumtoz teatr san'ati o'rniga agressiv shakldagi blokbusterlarning ma'naviy hayotimizga shiddatli kirib kelishi tarbiyaviy jarayonlarga o'z salbiy ta'sirini o'tqazmay qolmaydi. Yana bir muhim jihati, jamiyatning ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish oila inqirozining G'arbdagi shiddati yoshlar dunyoqarashida salbiy asoratini qoldirayotir. Bu yerda avlodlar o'rtasidagi muloqotning darajasi, ruhiy intellektual salohiyatning bir-biriga bog'liqligi tayanch kuch tarzida o'zini namoyon qilishi muhim rol o'ynashi kerak edi.

Bunday holatlarga javoban o'z davrida urushning qonli manzaralari, siyosiy qatog'on, dahshatli ocharchilik davridagi azob-uqubatlarini boshidan kechirgan keksa avlod vakillariga nisbatan iliq munosabatimizni fazilat darajasiga olib chiqish - yoshlar o'rtasida hayotga yengil-yelpi qarash, o'z madaniyati va sivilizatsiyasiga nisbatan sovuqqonlik bilan yondoshish, iste'molchilik kayfiyati bilan bog'liq salbiy tendensiyalarni sezgirlik bilan bartaraf etish hissini shakllantirishga ijobiy ta'sir o'tkazardi, deb o'ylaymiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, albatta mamlakatimiz miqyosida barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi borasida keng ko'lamlı ma'naviy-mafkuraviy ishlarning izchil olib borilishi ayni shu maqsadlarga qaratilganligini e'tirof etish kerak. Bunda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir. Aytmoqchimizki tele-radio axborotni yoshlar xush ko'radi, ammo u tez unutilish xususiyatiga ega, matbuotdagi axborot kechroq berilsa-da, uning tahliliy xarakteri ko'proq xotiramizda tasavvurlarimizning jamlanishiga yordam beradi, degan qarashlar masalani oydinlashtirishga yordam beradi. Bu yerda tahlilchilarning internet olamini axborot makonida mutlaqo boshqa bir dunyoligiga qayta qayta ishora qilayotganligini alohida qayd etish kerak. U yoshlarning aksariyatini o'zining domiga tortib bo'ldi. YA'ni, Facebook, Twitter, odnoklassniki yoshlari davri boshlanganligini yaxshi anglashimiz kerak. Bugun suv-olovday zarur bo'lgan internet vaqti kelib bamisoli suv toshqini, o'rmon yong'iniday insoniyatga xavf tug'dirishi mumkinligi to'g'risida xulosalar ko'payib qoldi...

Bu esa axboriy-g'oyaviyga qarshi kurashda OAV ning imkoniyatlaridan unumli foydalanish masalasini tobora kuchaytirib bormoqda. Ayni shu ma'noda, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "...axborot olamidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu o'ta muhim vazifani amalga oshirishda ta'limtarbiya tizimi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy masalalar bilan shug'ullanadigan idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar o'z hissasini qo'shishi tabiiy, albatta, lekin bu boradagi ommaviy

axborot vositalarining o‘rni va ta’sir kuchi beqiyos, desak hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi” deb ta’kidlagan edilar.

Aytish joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda 1294 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritib, shundan 160 taga yaqini gazeta va jurnallar, 200 ta veb saytlarning 30 foizdan ortig‘i bolalar va yoshlar mavzusini yoritishga qaratilgandir. Jumladan yoshlar siyosati yo‘nalishida “Yoshlar” va “Sport “ telekanallari, ayni zamonaviy AKT negizida “ZiyonET” yoshlar axborot portali, 2863 ta axborot-resurs markazlari tashkil etilgan, Internetdan foydalanuvchilarning soni esa 10 millionga yaqinlashdi va ularning aksariyatini yoshlar tashkil etayotir .

Bugun O‘zbekistonda telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180ta mamlakatiga 28ta yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega.

Raqamlardan ko‘rinib turibdiki ko‘lamiga ko‘ra ommaviy axborot kommunikatsiyalarining taraqqiyoti zamon bilan hamnafasdir. Bunga o‘xshash misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ikkinchi tomondan axborot inqilobi bilan bog‘liq o‘zgarishlar milliy Ommaviy Kommunikatsiya taraqqiyoti bilan xorijiy taraqqiyotning qiyosiy talqinlarni toqozo etmoqda. Albatta, bunday yondoshuv ommaviy kommunikatsiyalar zamonaviy taraqqiyotining mantig‘ini ilmiy ifodalashda, siyosiy-falsafiy yondoshuvlar rang- barangligini ta’minlashni kuchaytiradi.

Bularning barchasi axborot makonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun OAVning siyosiy funksiyalaridan unumli foydalana olayotibmizmi? Bundan buyon ommaviy kommunikatsiyalarining, ayniqsa elektron ommaviy kommunikatsiyalarning shiddatli taraqqiyoti inson ongini manipulatsiyalashni qay tariqa davom ettirib boradi, axborot olamidagi raqobatning aniq ilmiysiyosiy, tarixiy–falsafiy talqiniga ega bo‘la oldikmi qabilidagi savollarni faollashtiradi.

Bugun O‘zbekistonda boshqaruvni liberallashtirish davlat va jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari Ommaviy kommunikatsiyalari rivojlantirish mavzusiga mutloqo yangicha yondoshuvlarni taqozo etmoqda. Chunki davlat va jamiyat oldida ayni ommaviy axborot kommunikatsiyalari taraqqiyotigina siyosiy-g‘oyaviy, ma’naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida ulkan imkoniyatlarni keltirib chiqarish qudratiga egadir. Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchi tomoni, OAV va yoshlar muammosiga bag‘ishlanayotgan hozirgi aksariyat tadqiqotlar yoshlardagi shakllanayotgan mentalitet hamda uning milliy-ruhiy intellektual salohiyati bilan bog‘liqlikda aks etayotganligini ta’kidlamoqchi edik. Globallashuv davrida har qanday mustakil davlatning strategik kelajagi, uning xavfsizligi va siyosiy barqarorligi ko‘proq ayni ana shu masalalar doirasida belgilanadi. Bu bejiz emas. Zotan , millatning istiqboli – bu ayni globallashuv shiddati talablarini tushuna olgan va anglagan yoshlarning dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Sirasini aytganda uni OAV institutlari orqali shakllanayotgan ijtimoiy-ilmiy muhit ham mazkur jarayonlarning bevosita ta’sirida bo‘lishi aniq.

Ma’lumki, o‘tgan 2012 yil davomida jahon ommaviy axborot vositalarining aksariyati arab dunyosi bilan bog‘liq mamlakat yoshlarining vayronkor, tajovuzkor hatti-harakatlari to‘g‘risida axborotlarni berib bordi. Jumladan bu axborotlar barobarida mazkur davlatlar yetakchilarining ko‘pchilik tomonidan yoshlar tarbiyasida



sustkashlikka yo‘l qo‘yilganligi to‘g‘risida ham afsus-nadomat bilan qayd qilindi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, «Feysbuq twitter yoshlari davri» yoshlarning dunyoqarashida o‘ziga xos chalkashliklar va murakkabliklarni keltirib chikarishi ravshanlashib qoldi. Jahon yoshlari psixologiyasida oddiy oilaviy, ota-ona-farzand munosabatlari, kitob mutola qilish madaniyati, diniy-milliy kadriyatlar munosabatlar sovuqlashib, begonlashish tendensiyalari kuchaydi. Elektron ommaviy kommunikatsiya inqilobi yoshlar tafakkuriga katta kuch bilan kirib keldi. Virtual hayot tufayli, masalan janubiy koreyslar yurtida bundan besh-olti yil muqaddam berilgan ma’lumotlarga qaraganda yuzminglab yoshlar ota- onalari bilan gaplashmay qo‘ygan. Natijada asosan rivojlangan davlatlarning ba’zi yoshlarida odamovi, okultizm, sadizm, suidsidlikka berilish odatiy voqealikka aylanib kolganligini aytishimiz kerak. Bunday siyosiy-ma’naviy tanglikka ko‘proq, demokratiya tamal toshi qo‘yilgan makonlarning o‘zi sababchidir, ulardagi xozirgi absolyut erkinlik davri yoshlarning dunyoqarashida ma’naviy inqirozni kuchaytirib yubordi.

Masalaning jiddiy tomoni shundaki yoshlar dunyoqarashiga bog‘liq tadqiqotlar so‘nggi o‘n yilliqda ko‘proq yoshlardagi diniy fundamentalistik qarashlarning global taraqqiyot uchun tahdidi borasida bo‘lib qolgan edi. Har holda aksariyat tadqiqotlarga ko‘proq diniy ekstremizm, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, narkomaniya va ishsizlikning kuchayishi kabi sotsial muammolarga urg‘u berib keldik. Bunday mavzular ko‘proq post sovet makon mamlakatlari misolida ilmiy talqin etildi. Demokratiya va ma’naviyat, yoshlar va siyosat borasida tahlillarga e’tibor qaratar ekanmiz, o‘ziga to‘q G‘arbdan millatchilik, irqchilik, birjinsli nikohlarni ko‘z-ko‘z qilish, tinch aholiga terror qilish kabi tashvishli xabarlar chiqishini xayolga ham keltirmas edik.

Albatta, shiddatli globallashuv o‘zining kuchini tobora namoyon qilayotgan hozirgi bosqichda bunday voqelik paradoksli xarakterga ega bo‘ladi. Ayni shu holatning o‘zi OAV bilan bog‘liq tahlillar uchun kundan-kunga dolzarblashayotgan qo‘yidagi ilmiy muammolarni, ya’ni globallashuv va yoshlar dunyoqarashida beparvolik, milliy va diniy qadriyatlarni rad etish, millatchilik, diniy-fundamentalistik hissiyotlarni bartaraf etishda, yoshlar bilan muloqotda va ularni hal etish yo‘llarini qidirish bo‘yicha yangi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutishi kerak.

Uchinchidan bugun boshqa o‘zga kuchlar tomonidan milliy psixologiya va tafakkur qilish qiyofasini o‘zgartirish global tahdid darajasiga aylanayotir. Axborot makonidagi ma’naviy-madaniy muammolar abstrakt nazariy emas, balki uzoqni ko‘zlagan geosiyosiy mohiyat kasb etmoqda. Asta -sekin ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalari tajovuzlar ko‘lamini sivilizatsiyalar ruhiy olamining o‘zagi, ich-ichidan amalga oshirishgacha borib yetayotganligiga qayta-qayta e’tibor berish kerak.

Bunday axboriy-mafkuraviy raqobat avj olgan bir davrda OAV orqali g‘oyaviy tarbiya olib borishning mazmuni shundaki, u bevosita ta’lim tizimi bilan birgalikda tajovuzkor mafkuralarga qarshi nisbatan mustaqil pozitsiyaga ega bo‘lish pozitsiyasini singdirib borish, uni jadallashtirishni nazarda tutishi joiz. Ayniqsa elektron kommunikatsiyalar – televideniye, radio, internet orqali ularga fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, o‘z hayotida aniq maqsad qo‘ya olish, tarixiy xotiraga hurmat,

o'z kuchiga ishonib yashash, islohotlar jarayoniga munosabat bildirish, urf-odatlarini, an'analarni bilish, insonni oliy qadriyat sifatida tushunish maqsad qilinishi kerak. Jumladan, milliy axborot makonida ezgu, ideal g'oyalarni "ma'rifat-shijoatdir" tushunchasini, ogohlik, bunyodkorlik, ijtimoiy faol bo'lish, ma'naviy yuksalish, globallashuvning mohiyatini anglash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash, ommaviy madaniyat nima ekanligini bilish, mustaqillikni, bayramlarni, marosimlarni anglash tushunchalari o'z ifodasini to'la borayapdi.

To'rtinchidan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi geosiyosat va medita'lim kabi yo'nalishlarni o'yg'unligini ta'minlash orqali esa yuqoridagi fazilatlar yanada mustahkamlanib, hayotiy faoliyat mezoniga aylantirib borish maqsadga muvofiq. Tarbiyaviy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida talabalarda o'z faoliyatida maqsadli kurash olib borish, mustaqil fikrga, o'z kuchiga ishonchni qabul qilish, islohotlarda faol, urf-odatlarini, an'analarni asrash, demokratiyaga hurmat bilan qarash, ezgu-g'oyalarga sadoqat, ma'rifatni yot g'oyalarga qarshi qo'ya bilish, ogohlikni, bunyodkorlikni, ma'naviy yuksaklikni namoyon etish, jamoa tashkilotlarida faol ishtirok etish, mafkuraviy tahdidga qarshi kurash, globallashuvning salbiy jihatlarini fosh etish, yurt tinchligini saqlash, demokratiya eksporti mohiyatini fosh etish fazilatlarini namoyon bo'lmoqda.

YA'ni, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, boshqarish, hozirgi zamon meyorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarurligidan kelib chiqib, OAVning siyosiyhuquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Shuningdek matbuot va elektron kommunikatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlarni tasniflash bo'yicha muayyan ilmiy qarashlar masalani oydinlashtirishga yordam beradi deb hisoblaymiz. Ularda boyagi aytganimizdek matbuot operativ va emotsionalligi bilan boshqa sohalaridan ortadir, lekin tahlil qilish bo'yicha boshqalardan ustunlik qiladi. Bu esa auditoriya ongiga ishonchli va chuqur ta'sir ko'rsatadi. Teleradio axborotlar esa e'tiborini tezda tortsada, tez unutiladi. Internet ommaviy axborot vositalari esa juda ham ko'p odamlar murojaat qiluvchi, tez-tez yangilanadigan, jurnalistlar tomonidan tayyorlangan ijtimoiy ahamiyatdagi axborotlarning ommaga taqdim etuvchi saytlar deb ta'riflashmoqda.

Ma'lumki, siyosiy tizimlarda ommaviy kommunikatsiyaga ehtiyojning jamiyat hayoti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi, hozirgi axborot texnologiyalarining inqilobi OAV imkoniyatlari dinamikasiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. YA'ni, demokratlashtirishning bir necha o'n yilliklardagi jiddiy sinovlarni boshidan o'tkazishi halqning, millatning siyosiy mentaliteti, jumladan shu jamiyatda mavjud bo'lgan OAV institutlarining ijtimoiy-siyosiy mavqei, intellektual salohiyati hamda professional mahoratiga bevosita bog'liq jarayon bo'lib qolaveradi. Yoshlar dunyoqarashi bilan bog'liq axborot xavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi ayni shu holatlar bilan belgilanib borilmoqda.

### 3. JAHON SIYOSATIDA YOSHLAR OMILI: GLOBALLASHUV DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

XX asrda Yevropada integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi Yevropa Ittifoqi degan yangi institutsional tuzilmaning dunyo siyosiy sahnasida paydo bo'lishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqi Prezidenti lavozimi ta'sis etildi. Har holda Lissabon shartnomasi tantanasi bugungi Yevropaning qator demokratik kuchlari tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olingandi. Ko'pchilik mazkur qudratli geosiyosiy makonning milliy davlatlar siyosiy boshqaruvi shaklida Yevropa prezidenti siyosiy instituti joriy qilinganligidan ham xabardor. Demak bundan buyon mintaqa davlatlarining yoshlarga doir siyosati butun ko'lami bilan mazkur integratsiyalashuv jarayonlarining ta'sirida bo'lishi kutiladi.

Bu o'z o'zidan Yevropa Ittifoqi- Markaziy Osiyoga nisbatan diplomatik siyosatidagi o'ziga xos dinamikada ham aks etsa kerak. Xususan, ta'kidlangan muammo Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlarning o'ziga xos, yangi mustaqil suveren davlatlarning o'z hududiy yaxlitligini ta'minlash, siyosiy barqarorlik va tinchlik g'oyalariining amaldagi ifodasini namoyon qilish borasidagi izlanishlarda o'z so'zini ayta boshlamoqda. Axborot to'lqinlarida Markaziy Osiyo, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Afrika, Kichik Osiyo, MDH yoshlari bilan bog'liq siyosiy majoralar alohida qiziqish uyg'otmoqda. Aksariyat axboriy tahlillarda faqat madaniy va dinlararo muloqotlar, siyosiy kelishuvlar mazkur muammolarga doir muammolarga nuqta qo'yishi mumkinligini e'tirof etishmoqda.

Aslida siyosiy natijalarning yechimi ko'p jihatdan yetakchi geosiyosiy mintaqalardagi integratsiya jarayonlarining mantig'idan kelib chiqadi. Buni doimo yodda saqlashimiz, tezkor xulosalarga kelishimizda nazardan qochirmasligimiz zarur. Jumladan xalqaro diplomatiyaning bunday paytda ikki tomonlama o'ynaladigan shaxmat o'yiniga qiyoslanishi ham bejiz emas. Ayni Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, SHXT, BRIK, ASEAN muloqotlaridagi aytilishi mumkin bo'lgan yoshlar va siyosiy ekstremizm mavzusi bundan mustasno emas. Misol Yevropada yagona prezidentlik institutining ta'sis etilishi, yangi Prezidentining tashqi siyosati ko'pdan-ko'p savollarni tug'dirishi mumkin edi. Hatto Yevropaning o'zida mintaqaviy birlashuv g'oyasi bilan mintaqalarda yetakchilikka da'vogarlikka harakat qilayotgan ba'zi davlatlarning geostrategik g'oyalariiga to'qnash kelishi mumkinligini seza boshladik. Demak halqaro munosabatlarning ayni shu mantig'idan kelib chiqqan holda, davlatlararo yuz berayotgan ayrim kelishmovchilikka, nizolarga xolisona va asosli yondoshishga harakat bo'lmog'i joiz.

Axborot makonlarida harbiy strategik hukmronlik, gaz, neft kabi zahiralarga egalik qilish to'yg'usi, azaliy madaniy - mafkuraviy bosim o'tkazish hattiharakatlar-bularning barchasi bugungi kundagi geosiyosiy raqobatda o'zining so'zini aytib qolishga ulgurmoqda .

Biz o'z vaqtida jahon siyosiy sahnasidagi integratsiyalashuv bunga chek qo'ya olarmikan? Masalan Yevropaning bugungi integratsiyalashuvi hamda Yevropa Ittifoqi prezidenti dunyodagi geosiyosiy kuch markazlarining muvozanatiga o'zining ta'sirini qay darajada o'tkazadi? Kelajakda yoshlar ongi va tafakkurida global va mintaqaviy xavfsizlik muammolari qanday aks etmoqda? qabilidagi savollarga javob beruvchi muloqotlarga talab juda katta. O'ttiz yildan beri Afg'on diyori dunyodagi yetakchi davlatlarning siyosiy qaramaqarshiligi va xalqaro vaziyatdagi taranglik darajasini belgilovchi o'ziga xos barometr rolini o'tab keldi. Afg'on mojarosini hal qilishdagi siyosiy kelishmovchiliklar unga qo'shni bo'lgan davlatlarga ham ta'sir qilishiga olib keldi. Yaqin o'tmishimizda Tojikistondagi fuqarolar urushi, Qirg'iziston, O'zbekiston hududidagi diniy ekstremistik terroristik kuchlarning faollashuvi, halqaro narkotrafik jarayonlarining Markaziy Osiyo respublikalaridan to Yevropagacha cho'zilib ketishi, ishsizlik, ocharchilik savodsizlikning kuchayishi bunga misoldir.

Ammo jahon taraqqiyoti o'zaro aloqadorligi, davlatlararo chegaralar muammolarining mavjudligi Yevrohudud xavfsizligini to'la kafolatlamaydi. Hozirgi paytga kelib katta davlatlar uchun u bufer, sanitar makon rolini o'ynashi qiyin. Shuning uchun ham Afg'on mojarosidan kelib chiqadigan tahdidlar boshqa mintaqa davlatlarining xavfsizligiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Axboriy-mafkuraviy qarama qarshiliklarda yoshlar isyonini tashkil etish texnologiyalari borasida turli qarashlar avj olib ketdi, uning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash jarayoniga salbiy ta'siri yaqqol sezilmoqda. Chunki, uchinchi ming yillikda davlatlar milliy xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy holatning ustunlik qilishi esa halqaro tashkilotlar orasida ham kuchli raqobatni keltirib chiqargan. Ko'pincha, mazkur tashkilotlarning boshqaruv apparati shunday qarorga kelayaptiki, bu yerda nafaqat o'z davlatlarining manfaatlari, balki, ba'zi transmilliy kompaniyalarning manfaatlarini butun dunyoda himoya qilinishiga olib kelmoqda. Mana shunday raqobatga misol qilib YEHTT, Yevropa Hamjamiyati va NATO faoliyatini keltirish mumkin. Postsovet davlatlariga "g'arb demokratiyasi" g'oyalari modelini fuqarolik jamiyati institutlariga yordam berish bahonasi bilan tiqishtirish ayniqsa, Markaziy Osiyo halqlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga zid bo'lmoqda.

Ikkinchidan, Xristian - Islom muloqoti bo'yicha davom etgan uchrashuvlarda jahon dinlaridagi tolerantlik mehr-muruvvat, halollik va vijdon erkinligi asoslari xususida ko'p fikrlar almashilgandi. Xarqalay G'arb va Sharq o'rtasidagi muloqotning amaliy ahamiyatini kuchaytirishda teng bahsmunozaralarning taqchilligi mavjud. Gap bu yerda ikki xil mentalitet, ikki xil tajriba va ikki xil dunyoqarashning yaxshi ma'nodagi ilmiy -munozarali to'qnashuvlari haqida bormoqda.

Ayni shu ruhdagi muloqot madaniyati ijtimoiy hayotning turli muammolaridan tortib, to siyosiy muammolarning yechimiga ijobiy ta'sir o'tqazib boradi. Ayniqsa yoshlar migratsiyasi muammosi qay tarzda talqin etilishidan qat'iy nazar bundan buyon muloqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib boradi, degan umumiy fikrlarga olib kelishi aniq. Zero, hozir rivojlangan Yevropa ham hududi ichida islomiylashuv

jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Tabiiyki Yevropadagi bunday shiddatli o'zgarishlar qo'shni sivilizatsiya bo'lmish Sharq bilan ham munosabatlarni o'yg'unlashtirishga harakatni kuchaytiradi.

Ma'lumki, mamlakatimiz mafkuraviy xavfsizligi ilmiy asoslangan ijtimoiy siyosatga, huquqiy madaniyatga, jamiyatning ma'naviy yetukligi va demokratiyalashuviga uzviy ravishda amalga oshiriladigan g'oyaviy tarbiyaga tayanadi .

Biz bugun Markaziy Osiyo taraqqiyot tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston o'z misolida polietnik jamiyatlarda dinlararo totuvlik mumkin ekanligini isbotladi, deb bemalol ayta olamiz.

Shuningdek, ayrim mintaqalarda axborot asri tufayli raqobatning keskinlashishi yoshlarda umumbashariy qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Dunyodagi xalqaro siyosatga ta'sir qilishga harakat qilayotgan axboriy mafkuraviy markazlar

jurnalistikasining diqqati aynan shu nuqtaga qaratildi...

Yuz minglab yoshlar ota-onalari bilan odatiy muloqotni yo'qotmoqda, taasufki yoshlar o'rtasida kosmopolitik-individualizm g'oyalarining chuqurlashib kelganligini alohida qayd etmoqchimiz. Shu tariqa xorij amaliyotida ham xavfsiz internet tushunchasiga yondoshuvlar ko'paydi.

Aytish joizki, Yevropa mamlakatlarida internet masalasi umumevropa qonunchiligi bilan bir qatorda har bir davlatning o'z huquqiy-meyoriy hujjatlari bilan birga tartibga solinish amaliyoti mavjud. Yevropa xavfsizlik kengashida internet muammolari vaqti-vaqti bilan muhokama qilinmoqda. Masalan Germaniyada 1997 yildan yoshlarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan materiallarni tekshiruvchi federal boshqarma faoliyat ko'rsatmoqda. Uning vakolatlari doirasiga nobop va sotishga ruxsat etilmagan mahsulotlarning (OAV, kitoblar, videofilmlar va kompyuter o'yinlari) ro'yxatini tuzish va mazkur yo'nalishda qonunbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari kiradi. Hozirgi Gollandiya, Shveysariya, Daniya, Yaponiya, Xitoy, O'zbekiston, Rossiya kabi davlatlar qonunchiligida yoshlarning ruhiyati va ma'naviy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan .

Masalaning jiddiy tomoni shundaki yoshlar tarbiyasi borasidagi tadqiqotlar so'nggi o'n yillikda ko'proq yoshlardagi diniy fundamentalistik qarashlarning global taraqqiyot uchun tahdidi borasida bo'lib qolgan edi. Har holda aksariyat tadqiqotlarga ko'proq diniy ekstremizm, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik narkomaniya va ishsizlikning kuchayishi kabi sotsial muammolarga urg'u berib keldik. Bunday tadqiqotlar ko'proq post sovet makon mamlakatlari misolida ilmiy talqin etildi. Demokratiya va ma'naviyat, yoshlar va siyosat borasida tahlillarni berar ekanmiz, o'ziga to'q G'arbdan millatchilik, irqchilik, tinch aholiga qurol bilan terror qilish, bir jinsli nikohlarni ko'z-ko'z qilish kabi tashvishli xabarlar chiqishini xayolga ham keltirmas edik.

Bugun boshqa o'zga kuchlar tomonidan milliy psixologiya va tafakkur qilish qiyofasini o'zgartirishni global tahdid darajasiga aylanmoqda. Boyagi ta'kidlaganimizdek, asta -sekin ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalari

hududiy chegaradan chetlab o'tib tajovuzlar ko'lamini kengaytirmoqda. Ayni tarixiy seriallarning xorijdan shiddat bilan kirib kelishi mazkur fikrlarimizni tasdiqlaydi, u milliy telejurnalistikamizning imkoniyatlaridan unumli foydalanish muammosini yanada dolzarblashtirishi kerak.

Bunday paytda insonning o'z sivilizatsiyasi madaniyatida o'z-o'zini yo'qotishga ro'yxushlik qilishini alohida aytishimiz kerak... Dastavval mafkuraviy- axborot qurolining maqsadli g'oyaviy ta'siri orqali o'z-o'zini yo'q qilish mexanizmini ishga tushirilmogda, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalaniladi.

Globalashuv ta'lim tizimida yoshlar qalbida tajovuzkor mafkuralarga qarshi nisbatan mustaqil pozitsiyaga ega bo'lish pozitsiyasini singdirib borish, uni jadallashtirishni ko'zda tutmogda .Ayniqsa media ta'limning ustunliklaridan foydalanish orqali yoshlar dunyoqarashida o'z hayotida aniq maqsad qo'ya olish, tarixiy xotiraga hurmat, o'z kuchiga ishonib yashash, islohotlar jarayoniga munosabat bildirish, urf-odatlarini, an'analarni bilish, insonni oliy qadriyat sifatida tushunish , ogohlik, bunyodkorlik, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash, ommaviy madaniyatni anglash tushunchalari o'z ifodasini topa boradi. Shuningdek g'oyaviy kurashchanlikni, moddiy va ma'naviy hayot o'yg'unligini, befarqlikning zararini, milliy o'zlikni himoya qilishni tushunish, buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura olish, ekstremizmga murossasizlik, kosmopolitizmning, mahalliychilikning mohiyatini bilish fazilatlari singdirilib boriladi. Shuningdeq g'oyaviy targ'ibotdan foydalanish orqali globalizm illatlariga, axborot xurujiga, ommaviy madaniyat tahdidiga nisbatan g'oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o'zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish hissi bilan yashash fazilatlari shakllanadi. Mana shunday sharoitda milliy manfaatlarimizga javob bera oluvchi g'oyaviy tarbiyani ta'minlay olish - siyosiy ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, axborot asri ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishiga karamay, insoniyatning murakkab muammolari bevosita yoshlar dunyoqarashi tendensiyalaridan kelib chiqishi ko'pchilikni xavotirga solmogda. Aytish joizki, mintaqamizning bugungi yoshlariga nisbatan tarbiya strategiyasini yaxshi tushunish, uni ilmiy idrok kilish uchun ayni shu sotsiomadaniy asosdagi tadqiqotlar masalani oydinlashtirishdagi ahamiyati katta. Albatta Osiyo markazida joylashgan hamda Islom dunyosining uzviy qismi xisoblangan MO mintaqasining birdan Xelsinki xujjatiga qo'shilishi, YEHT ga a'zo bo'lishi - Yevropadagi jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga yaxshi turtki bo'layotir.

Ikkita sivilizatsiya, ikkita madaniyat, ikkita din vakillari bugun bir-birini to'lik tushuna olarmikan? Markaziy Osiyoga nisbatan strategiyada sivilizatsiyalararo o'zaro tushunish siyosati modernizatsiyaga muhtojlikni sezayotirmi? Bu savollar yangi xalqaro uchrashuvlarning mundarijasini tashkil kilishi kerak.

Umuman, mentalitetlarning yaxlit bir qolipga solish to'g'risida gapirishga ehtiyoj qay darajada? Yoxud ikkala mintaqa jamiyatlaridagi mavjud ijtimoiy ziddiyatlar bir-biriga qay darajada o'xshash. Ustiga-ustak Markaziy Osiyo sarhadlaridagi neft-gaz zaxiralari uchun bo'layotgan pinhona kurash mazkur ilmiy mulokotlarga o'zini ta'sirini

o'tkazmay qolmaydi deb hisoblaymiz. Yigirma yillik ichida iqtisodning qon tomiri bo'lgan neft-gaz zahiralari uchun bo'lgan kurash geosiyosiy raqobatchilarga sotsial tarmoqlar xususan yangi axborot qurollarini sinovdan o'tkazishga olib keldi. Kiber tizimda ikki xil mentalitet, ikki xil tajriba va ikki xil dunyokarashning ilmiy-munozarali to'qnashuvlar avj olayotganligini qayta-qayta ta'kidlashga majburmiz.

Qolaversa, xozir rivojlangan Yevropa hududida ichida islomiylashuv jarayonlari kuchayganligini ko'rib turibmiz. Tabiiyki Yevropadagi bunday shiddatli o'zgarishlar qo'shni sivilizatsiya bo'lmish Sharq bilan ham munosabatlar o'yg'unligini kuchaytirishga chorlasa kerak.

Globalashuv va jaxon bo'ylab amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning shiddati, uning xavfsizligini ta'minlash va ayni siyosiy barqarorlik tinchlik taraqqiyot yo'liga jadal kirayotgan jamiyatlarning muvaffaqiyati - ko'p jixatdan yoshlar tafakkurida bag'rikenglik g'oyasining samarali singdirish texnologiyalariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Har qalay, axboriy jamiyat nazariyasi borasidagi qarashlarda madaniyatlararo tolerantlik, sivilizatsiyalararo bag'rikenglik to'g'risida kanchalik ko'p aytilmasindunyoda xalqaro tinchlik va taraqqiyotga salbiy ta'sir etuvchi kuchlar o'zining ustunligini ko'rsatishga intilib kelmoqda. Buning bir qator sabablariga e'tiborni qaratmokchimiz:

Birinchidan, xalqaro siyosatdagi ba'zi rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan turli xalqaro siyosatdagi ikkiyuzlamachilik holatlari tufayli Iroq (Yaqin Sharq), Afg'oniston (Markaziy Osiyo), Somali (Afrika) hattoki Misr, Turkiya, Suriya kabi bir-biriga qo'shni mamlakatlar, madaniyatlar bir-birini tushunolmay asta-sekin dinlararo, millatlararo adovat o'chog'iga aylanib qolmoqda. Siyosiy kuch markazlarining global geopolitik maqsadlari bir vaqtlari yaqin o'tmishda oldi-berdi, savdo-sotiq, madaniy-mafkuraviy, iktisodiy-siyosiy boringki qo'shnichilik aloqalarning namunasi bo'lgan chegaradosh madaniyatlarning hamkorligini aytarli 10-15 yilda yo'qqa chiqarib qo'ymoqda.

Jamiyatni demokratlashtirish bahonasidagi urinishlar yoshlar ongi va qalbiga yo'l ko'rsatuvchi g'oyalarning talqinida tobora jiddiy tus olib bormoqda. Aytmoqchimizki, globalashuv davrida bag'rikenglik g'oyasi demokratiya andozasi bilan demokratik tarbiya xususidagi astoydil ilmiy xulosalarni talab etayotir.

Jahon hamjamiyati ommaviy axborot vositalaridagi bunday inqirozli vaziyatni tashqarida anglash jarayoni sust ketdi. Gap bu yerda faqat axborot makonidan to'g'ri foydalanish xususidagina borishi mumkin.

Chunki, siyosiy leksikonda "qotil kamikadze" atamasi tobora ko'p ishlatila boshlandi. Ushbu atamaning kelib chiqishi, uning mazmun-mohiyati, o'tmishdagi shakllari xususida turli-tuman yondoshuvlar mavjud. O'zbekiston islom harakati deysizmi, Afg'onistondagi "Tolibon" xarakatini olasizmi yoki ular bilan bir qatorda Sharqiy Turkiston ozodlik fronti, Ozod Islom partiyasi (arabcha nomi - Xizb ut tahrir), Chechenistondagi vahxobiylar, "Kosovoni ozod qilish armiyasi", "Makedoniya albanlarining milliy ozodlik armiyasi", Falastin Muxtoriyatidagi "Islom jihodi" va Hamas, shuningdeq Livandagi "Xizbullox" (Olloh partiyasi) Somalida, "Al-shabab" va

boshqalar bunga yorqin misol bo'ldi. Ular islom ekstremizmining xar qanday konkret ko'rinishida tashqi ta'sirning mavjudligini asosiy belgilovchi omil sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Bunday paytda tadqiqotchi fikran bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ko'p joylarda bo'la olmog'i, yer sharining bir necha nuqtalarida yonmayon sodir etilayotgan o'zaro bog'liqliq jarayonlarini "o'z ko'zi bilan" ko'ra olishga qodir bo'lmog'i lozim. Islom ekstremizmi ba'zan islom yoyilgan davlatlarni bir-biriga qarama-karshi ko'yishi uchun tashqi siyosiy ta'sirning instrumenti sifatida ham ishlatilayotganligiga ko'proq e'tibor berishi kerak.

Yoshlarni natijada radikal ruhdagi tashkilot va guruhlarini yaratish, qo'llabquvvatlash, moliyalashtirish, o'qitish, raqibni oxir oqibatda ichki siyosiy beqarorlikka olib keluvchi konkret siyosiy maqsadlarga yo'naltirish ishlari bilan chalg'itishga erishilmoqda. Islomiy tartibotdagi siyosiy rejimlar o'rnatish g'oyasi- Afg'onistonda "Tolibon" harakati kabi jangari yoshlarning Jazoir, Marokash, Sudan, Misr, Liviya, Misr, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Rossiya (Checheniston) yunalishlarida destruktiv, qo'poruvchilik ishlari bilan band bo'lishiga olib keldi.

Radikal ruhda yoshlar Afg'oniston - Misr, Jazoir, Sudan, Nigeriya, Yugoslaviya (Bosniya va Gersegovina, Kosovo), G'arbiy Yevropa, Filippin, Indoneziya, Xitoy (SUAR) postsovet Markaziy Osiyo respublikalari, Falastin, Rossiya (Dog'iston, Checheniston va umuman janubiy Rossiya) sxemasi bo'yicha o'z ekstremistik faoliyatini amalga oshirib keldi. Hozir Afrikaning Keniya, Somali, Sudan kabi davlatlardagi xunrezliklar davom etib turibdi. Islom ekstremizmining global tarmog'ining qisqacha ko'rinishi shunday shaklda bo'lmoqda.

Bizda islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'li tanlandi. Ana shu yo'l odamlarning o'tmishga, bugunga va kelajakka, umuman murakkab siyosiy majarolarga munosabatlarini o'zgartirish, muayyan manfaatlarga yondoshish psixologiyasini yangilash orqali asta-sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil inson qilib voyaga yetkazadi. Fuqarolarning siyosiy ma'rifatliligi orqali ma'rifatli kuchli jamiyat barpo etiladi.

Mana shunday sharoitda OAV orqali yoshlar bilan bog'lik murakkab siyosiy vaziyatlarni milliy axborot maydonida milliy manfaatlarimizga javob bera oluvchi talqinini ta'minlay olish yo'liga o'tildi. U siyosiy ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bulib xizmat qilmoqda. Axborot dunyosidagi turli g'oyaviy mafkuraviy yunalishlardagi to'qnashuvlarni professional anglay olish, uni to'g'ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga erishilmoqda.

O'z navbatida aksariyat sharq mamlakatlarida demokratik islohotlarning muvaffaqiyati diniy-ma'rifiy islohotlarning majmuasiga bog'liq bo'lib qolayotganligini e'tiborga olishimiz kerak. Zero, globallashuv sharoitida islom dini, musulmon dunyosi o'zini qanday siyosiy-ma'naviy qiyofada namoyon qilishi, uning bu sharoitdagi xatti-harakatlarni alohida o'rganish ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanishi ham bejiz emasdir. Albatta, axborotning globallashuvida demokratiya mezoni, demokratik islohotlarning o'ziga xosligi, fikrlar, manfaatlar rang-barangligi muammosi, dinlararo tolerantlik



hamda siyosiy madaniyatni yuksaltirish kabi masalalar yoshlar dunyoqarashini shakllantirishining muhim omili rolini o'tashi kerak.

Yana bir tomoni, O'zbekiston qadimdan islom dinining ilmiy-nazariy markazlaridan biri sanalib kelinadi. Mustaqillikka erishilgach diyorimizda demokratiya tamoyillariga muvofiq barcha dinlar jamiyat ma'naviy hayotining muhim poydevori vazifasini o'tay boshladi. Mazkur masala doirasida ham O'zbekistonning global axborot muhitiga kirib borishi bilan ulkan axborot to'lqiniga to'knashishi to'g'ri keldi.

Aytmoqchimizki axborotning globallashuvi radikal islomiy guruhlariga musulmon jamiyatlariga osonlikcha kirib borishi imkoniyatini berdi. Bu holat, shubhasiz, O'zbekiston uchun ham katta xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Zero, axborotlashuvda "hudud" omili o'z o'rnini yo'qotar ekan, dinga yoki etnik uyushishga asoslangan radikal qarashdagi guruhlar o'z g'oyalarini yangi demokratik jamiyatlardagi mavjud ziddiyat, kamchiliklar, norozi kayfiyatlarga bog'langan holda singdirishlari kuzatiladi.

Hozirgi paytda radikal islomchilar internet orqali uzoq mintaqalardan turib hech bir to'siqsiz musulmon jamiyatlari yoshlariga o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatiga ega. Diniy aqidaparastlarning internet tarmog'iga munosabatidan shu narsa ma'lum bo'layotirki, ularda bu tarmoq strategik vosita sifatida baholanib, birinchi navbatda g'oyaviy-mafkuraviy xurujni aynan internetdan foydalangan holda muvofiqlashtirish yo'liga shiddat bilan kirishildi.

Jumladan tahlillar:

- O'zbekistonda demokratik islohotlarga nisbatan diniy aqidaparastlikni yoyish orqali islohotchi davlatga ishonchni yo'qqa chiqarishga urinish;
- diniy ekstremizm tarafdorlari dindorlarning umumiy soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil etsada, ularning ta'siriga tushganlar hisobiga jamiyatda erksiz, mute, faoliyatsiz kishilar sonini orttirish;
- "Soxta" va "xaqiqiy" dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilikni keltirib chiqarish va shu tariqa bizga qo'shni notinch hududlarda jangarilarni tayyorlash uchun qulay zamin tayyorlash;
- G'arbga "islomlashtirilgan", Sharqda esa aksincha, "dinsiz", "dahriy" shaklda ko'rsatib, O'zbekistonning xalqaro obro'siga putur yetkazishga urinish, islom sivilizatsiyasi bilan noislomiy sivilizatsiyalar o'rtasida yalpi qaramaqarshilikni kuchaytirish kabi jarayonlar orqali kabi faoliyatda o'zini keskin namoyon qilayotganligi o'rinli tarzda qayd etib bordi.

Demak, xalqaro terrorizmning oldini olish, unga nisbatan keskin choralar mexanizmini ishlab chikish har bir suveren davlat - jamiyat uchun eng asosiy masala bo'lib qolaveradi.

Islohotlar taqdiri, demokratlashtirishning samarali natijalar berishi va istiqboli esa - ko'p jihatdan OAVning yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi, aqlzakovati va fidoiylik to'yg'ularini shakllantiruvchi muhim institut sifatida vazifalarini qay darajada bajarayotgani bilan bog'liq bo'lib qolaveradi. Vaqt amalda OAV ning yoshlar ongida demokratik qadriyatlarning chuqur ildiz otishi, o'zining ijtimoiy burchini tushunish va

xaq- huquqlarini yanada kengaytirish istagi, yuksak ma'naviy-ma'rifiy saviyaga ega bo'lish, o'z manfaatlarini ongli idrok qilish singari qadriyatlar bilan bog'liq masalalarni hal etishdagi muhim rolini tasdiqlamoqda.

Axborot dunyosidagi inqilobiy o'zgarishlar esa yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul barcha mutaxassislariga globallashuvning salbiy tendensiyalaridan kelib chiqadigan asosiy muammolarni qayta, o'zgacha ruhda anglashni taqozo qilayotir. Holbuki, axborot inqilobi davri yoshlarning ma'naviy-siyosiy dunyoqarashini egallash yo'lidagi kurashning noan'anaviy subyektlariga yangi o'yin sahnalarini yaratib berdi. Yetakchi siyosiy markazlardan boshqarilayotgan axborot to'lqini esa turli mintaqalarda yoshlar dunyoqarashini o'ziga xos sinovlardan o'tkaza boshladi. Bular esa axborotni iste'mol qilish madaniyati, yoshlarga qaratilgan axborotlarni kim uzatayotganligini, ularning asl maqsadi, umuman inson ongini manipulyatsiyalash muammolariga jiddiy, tezkor munosabat bildiradigan davr kelganligidan bizni yana bor marotaba ogoh etadi. Shunda axborotning o'zi ham yuksak qadriyat sifatida qadrlanishiga imkoniyat kuchayadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Axborotning tezlashuvi bilan bog'liq so'z va hatti-harakatlarimizga ortiqcha erkinlik berishning oqibatlari haqida gapiring.
2. Axborot makonida jamiyat yoshlarining ma'naviyatiga tahdid solishning geosiyosiy mohiyati qanday aks etishi mumkin?
3. Yoshlar dunyoqarashida axborot asrining xususiyatlari qanday ta'sir o'tqazmoqda ?
4. Matbuot va elektron kommunikatsiyalar o'rtasidagi farqni tasniflang?
5. Mediata'lim va geosiyosatning o'zaro uyg'un tomonlarini sharhlab bering.

#### IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

##### MASHG‘ULOT O‘TISH TEXNOLOGIYASI

##### O‘quv texnologiya modeli

|                            |   |
|----------------------------|---|
| Mashg‘ulot soati – 90 daq. | O‘quvchilar soni: 9-10 kishi  |
| O‘quv mashg‘ulot turi      | Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish   |
| Mashg‘ulot rejasi          | <ol style="list-style-type: none"><li>1. O‘quv mashg‘ulotni olib borish</li><li>2. Bilimlarni aktualigi</li><li>3. Kichik guruxlarda organayzerlar bilan ishlash</li><li>4. Natijalarni namoyish etish</li><li>5. Baxolashni eng yaxshi usullarini tanlash va muxokama qilish.</li><li>6. Yakunlash. Gurux va talabalarni mashg‘ulotdagi o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra baxolash.</li></ol> |

|  |  |
|--|--|
| <p>1. O‘quv mashg‘ulot maqsadi: Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi turlarini ko‘nikmalarini chuqurlashtirish. Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi umumiy xolatini baholash va taxlil qilish; Mafkuraviy pedagogik tashxis qo‘yish uchun xarakat algoritmini to‘g‘ri tanlash; Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi mustaqil analiz bera olish;</p>  |  |
| <p>O‘qtuvchining vazifalari: Axborot sohasii isloh etish sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganish. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan</p>   | <p>Mashg‘ulot jarayoni natijasi:<br/>Organayzerlar bilan ishlash natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallaydilar:<br/>Axborot sohasii isloh etish</p>  |
| <p>yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qilishni shakllantirish, befarqlik, loqayd fukorolarni birlamchi bosqich darajasida qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtirishni olib borish.<br/>Rejalashtirilgan o‘quv jarayonini natijasi – organayzerlar bilan ishlash natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallashga yordam berish:</p> | <p>sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qila oladi, qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtira oladi.</p> |
| <p>O‘qitish usullari</p>   | <p>Organayzerlar, amaliy usul</p>  |

|                        |   |
|------------------------|---|
| O'qitish jixozlari     | Organayzerlar, metodik qo'llanmalar   |
| O'qitish turi          | Mustaqil, gurux bilan   |
| O'qitish sharoiti      | Kichik guruxlar bilan ishlashga moslashtirilgan texnik jixozlangan auditoriya |
| Monitoring va baxolash | Kuzatish, blits so'rov, prezentatsiya, baxolash.                              |

Ta'lim texnologiyasi asosan ushbu fan bo'yicha tahsil beradigan pedagogo'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

### **FANNING VAZIFALARI**

Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;

- Yoshlarda siyosiy jarayonlarni tahlil etish doirasida tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;

- Yoshlarda tashqi siyosiy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;

- Global siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritgan holda bu jarayonlarning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tahlil qilish;

- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo'lmish, qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoyishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- Turli davlatlarining milliy siyosatidagi totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning mohiyatiga e'tiborni kuchaytirish;

- Sog'lom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuyg'usi, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yana ham katta e'tibor berish;

- Yoshlar ongida ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini shakllantirgan holda ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali ularda Vatan taqdiriga ma'sullik tuyg'ularini shakllantirish;

- G'oyaviy kurashchanlikning negizlari haqida bilim va tushunchalarga ega bo'lish orqali yoshlarda tarixiy xotira, daxldorlik, ma'naviy jasorat, buyuk kelajak uchun ma'sullik, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirish jarayonida ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Individning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari. Tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini shakllantirish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyat kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik tenglik, hamkorlik kabi o'zaro subyektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarning obyektiv qarama-qarshiligi va ularni hal etish usullarini aniqlagan holat, dialektik tafakkurni hamda ushbu usullarni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash – bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuli, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashtirilgan) tahlil, ilmiy anjuman, aniq vaziyatlarga yondashuv), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullarini o'z ichiga oladi.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, pollog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, tarqatma materiallar) bilan bir qatorda – chizmalı organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: talabalar bilan tezkor va faol muloqotga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Tezkor va faol aloqalarning (ma'lumotning) usul va vositalari: tezkor so'rov, o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beradigan texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati,

nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.


Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotlari davomida mavzu yuzasidan nazorat savollarini berib borish orqali o'qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib boriladi. Mashg'ulotlarning oxirida test topshiriqlari yordamida talabalarning bilimlari baxolanadi

**MASALALAR VA MASHQLAR TO'PLAMI**  
**AMALIY (SEMINAR) MASHFULOtlAR UCHUN O'QUV**  
**TOPSHIRIQLAR**

**Mavzu:** Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi .

**1-o'quv topshiriq**

**“Axborot sohasi ” so‘ziga klaster tuzing**






## 2-o'quv topshiriq

### Jadvalni to'ldiring

#### «Nima uchun» organayzerni to'ldiring



Nima uchun?

## 3-o'quv topshiriq

### «T-sxema» jadvalini to'ldiring

| Axborot xuruji va unga xos bo'lgan xususiyatlar | “Ommaviy madaniyat” va uning ko‘rinishlari |
|---|--|
|   |  |

#### 4-o‘quv topshiriq

FSMU jadvalini to‘ldiring

|   |                                      |
|---|--------------------------------------|
| Savol   | “Internet –mafkuraviy xuruj obyekti” |
| (F) Fikringizni bayon eting                             |                                      |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating                 |                                      |
| (M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring |                                      |
| (U) Fikringizni umumlashtiring                          |                                      |

#### 5-o‘quv topshiriq

«T-sxema» jadvalini to‘ldiring

|   |   |
|---|---|
| “To‘rt qadamli” universal model omillarini sanab bering (har bir qadam) | Auditoriyani sigmentlashtirishning asosiy omillarini sanab bering |
|---|---|

#### 6- o‘quv topshiriq: “ Yelpig‘ich” jadvalni to‘ldiring

**Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda OAVning yutuq va kamchiliklarini to‘ldiring.**

1 guruh uchun

|               |                  |                      |
|---------------|------------------|----------------------|
| <b>TVning</b> | <b>Yutuqlari</b> | <b>Kamchiliklari</b> |
|---------------|------------------|----------------------|

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|--|--|--|

2 guruh uchun

| <b>Matbuotning</b> | <b>Yutuqlari</b> | <b>Kamchiliklari</b> |
|--------------------|------------------|----------------------|
|                    |                  |                      |

3 guruh uchun

| <b>Radioning</b> | <b>Yutuqlari</b> | <b>Kamchiliklari</b> |
|------------------|------------------|----------------------|
|                  |                  |                      |

7-o'quv topshiriq

«Blits-so'rov» savollariga javob bering

| <b>№</b> | <b>Savollar</b>                                | <b>Javoblar</b> |
|----------|--|-----------------|
| 1.       | Mafkuraviy poligon tushunchasi                 |                 |
| 2.       | Mafkuraviy profilaktika tushunchasi            |                 |
| 3.       | Mafkuraviy immunitet tushunchasi               |                 |
| 4.       | Siyosiy madaniyat tushunchasi                  |                 |
| 5        | Yoshlar tarbiyasi tushunchasi                  |                 |
| 5.       | Mafkuraviy xavfsizlik tushunchasi              |                 |
| 6.       | Ijtimoiy- ciyosiy institutlarga nimalar kiradi |                 |


2-o‘quv topshiriq

FSMU jadvalini to‘ldiring

|   |  |
|---|--|
| Savol   | “Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning omili nimada?” |
| (F) Fikringizni bayon eting                             |  |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating                 |  |
| (M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring |  |
| (U) Fikringizni umumlashtiring                          |  |


8-o‘quv topshiriq

“Nima uchun?” jadvalini to‘ldiring



9-o‘quv topshiriq

“Nima uchun ?” texnikasidan foydalanib “Nima uchun axborot makonimizga ximoya kerak?” savoliga javob bering.



## 10-o'quv topshiriq

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollar:

1. Fuqarolik jamiyatining sifatlarini tasniflang
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari xakida gapiring
3. Fuqarolik jamiyati asosini nima tashkil etadi?
4. Fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlari nimalardan iborat?
  - a. OAV tushunchasini ta'riflang.
  - b. OAV qanday siyosiy vazifalarni bajaradi?
5. Hozirgi sharoitda OAV siyosiy rolining oshib borishi qanday tushuntiriladi?

## GLOSSARIY

**Axborot xavfsizligi**- nafaqat davlatniig axboriy resurslarini, balki fuqarolarining huquqlari va jamiyatning barcha strukturalarini axborot makonidagi himoyasini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasiniig axborot xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro muvozanatlashgan umummilliy manfaatlarni axborot xavfsizligining himoyalaniishi. **Davlat axborot xavfsizligi**- barcha axborotlar tizimlarining himoyalanganlik darajasiga bog'liq jarayon. Bunda asosiy va zaruriy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, fantexnika, ta'lim-tarbiya, harbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariga zid keladigan axboriy tahdidlarning oldini olish, axborotlarni noqonuniy yo'llar bilan olishni barataraf etishning qat'iy chora va tadbirlar ko'rilishi maqsad qilib belgilanadi. Axborot xavfsizligi ayni axboriy tahdidlarning oldini olish va bartaraf qilishga yordam

berish davlat tadbirlarining yaxlit tizimi. Hozir axboriy xavfsizlik xarbiy xavfsizlikning komponenti sifatida ham ishlatilib, harbiy sohadagi axboriy resurslar, kanallar, bilimlar va ma'lumotlar bazasining mavjudligi, ularning asosida axborotlarni qayta ishlanishi, saqlanishi va qo'llanilishidagi xavfsizlikni anglatmoqda.

**Axborot urushi** - dushmanning axborot tizimlariga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ayni paytda o'zining axborotlarini himoya qilish harakatlari. O'zga davlat tinch aholisi yoxud harbiylariga muayyan axborot tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish.

**Agressor**- ko'proq harbiy sohaga tegishli tushuncha bo'lib, BMT Nizomlariga zid ravishda davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi va siyosiy mustaqilligiga biron bir davlatning harbiy kuch ishlatishiga aytiladi. Hozir axborot inqilobi asrida agresorning axboriy xujum, axboriy tajovuz tushunchasi bilan ifodalanishi geosiyosiy tahlillarda qayd qilinmoqda.

**Axboriy xuruj**- axboriy xuruj bu haqiqiy qurolli urushga qo'yilgan birinchi qadamdir. Axborot xavfsizligini ta'minlashning bugungi kundagi dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat "axboriy jamiyat" deb atalmish yangi bir davrga qadam qo'yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta'minlash har doimgidan ham zarurdir. U muayyan kuchlar tomonidan inson ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma'naviy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asnosida geosiyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

**An'ana** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddanavlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

**Anarxizm**- har qanday hokimiyat va davlatni inkor etuvchi, harkim o'ziga xo'jayin degan qarashlarga asoslanuvchi ijtimoiy siyosiy oqim. Bu hoya beboshlik va tartibsizlikka olib boradi, taraqqiyot yo'lidan adashtiradi, vayronkor mohiyatga ega.

**Bir qutbli dunyo** - «sovuq urush» da SSSRning mag'lubiyatidan keyin vujudga kelgan geosiyosiy tartib.

**Blok** – bir necha davlatlarning birlashmasi hisoblanib, ularning strategik va geosiyosiy jihatdan e'tiborli harakatlari umumbashariy darajadagi o'zgarishlarga olib keladi.

**Vatan ravnaqi** – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uygʻunlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yoʻlida xizmat qilishga undovchi bunyodkor gʻoyadir

**Vayronkor (buzgʻunchi) gʻoyalar** – 1) bunyodkor gʻoyalarga zid boʻlgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan gʻoyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni gʻarazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan gʻoyalardir.

**Global geosiyosat**- umumbashariy xavfsizlik bilan bogʻliq geosiyosiy jarayonlar majmuasi. Turli mintaqa va mamlakatlar oʻrtasida ananaviy toʻsiqlarning geosiyosiy darajada buzilib ketish jarayonlari. Uchinchi mingyillikda xalqaro xavfsizlikning barcha parametrlari oʻzgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan qurollanish poygasini toʻxtatish kabi geosiyosiy omillarga bogʻliq boʻlgan boʻlsa, hozirgi paytda axborot quroli bilan bogʻliq yangi global geosiyosat yuzaga keldi. “Globallashuv”, “global axboriy makon” kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari, ularning rivojlanish tendensiyalarini muhim masalaga aylantirdi.

**Geosiyosatning obyekt**- dunyoning geosiyosiy tuzilish va xalqaro dunyoviy tartibot tizimidagi geosiyosiy jarayon va hodisalardir. Geosiyosat obyektida jahonning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning koʻp qutbli dunyoga aylanishi bilan xalqaro munosabatlarning yangi bir transformatsiya - davlatlarning oʻz taʼsir doiralari uchun kurashning yangi bosqichiga koʻtarilishi bilan bogʻliqligini tasdiqlaydi. U jamiyat tafakkurida koʻp qirrali dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishidan kelib chiqadi. Mazkur masalalar geosiyosat obyektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat ularni tahliliy jihatdan oʻrganishni bir qator bosqichlarda koʻradi. Masalan, zamonaviy geosiyosat dunyoning siyosiy xaritasida kechayotgan jarayonlarni umumbashariy, mintaqaviy va maʼlum bir davlatning dahldorligidan kelib chiqib, tahlil etadi va tegishli xulosalarni chiqaradi.

**Geosiyosat predmeti**— umumbashariy va mintaqaviy muammolarni hal qilishda geosiyosat subyektlari munosabatlari, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi axboriy-mafkuraviy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va oʻzgarib borishini oʻzida aks ettiruvchi voqealar rivoji.

**Geosiyosiy mintaqa** — bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega boʻlgan geografik maydon hisoblanadi.

**Geosiyosat** - ("Geopolitika") soʻzi yunon tilidagi "geo" (yer) va "politicos" (davlatni boshqarish sanʼati) jumlaridan olingan. Davlat va xalqlarning oʻzlari joylashgan hududning geografik, tabiiy - iqlim sharoitlariga mos ravishda shakllanishini ifodalovchi mafkuraviy fan. Geosiyosatning vazifasi siyosiy jarayonlarning geografik makondagi oʻzaro aloqalarni, zaminga va madaniy omillarga taʼsirini oʻrganish, sayyoraviy makonni nazorat etishdir. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin.

**Geostrategiya** – geosiyosiy tahlilning harbiy jihati.

**Demokratiya eksporti** - inqilobiy axborot tarqatuvchilarda inson hukuqlarining umumiy deklaratsiyasidan iqtiboslar, ularda "nodemokratik" rejimlar sayyoramizdagi - qashshoqliqdan boshlab, atrof-muhitning ifloslanishiga, xotin-kizlar kamsitilishidan tortib, etnik tozalov va genotsidgacha bo'lgan barcha kulfatlar sababchisi sifatida tilga olinadi. Bunday paytda, shuningdek," xalkaro siyosat - umumiy demokratiyani yoyish va olg'a surishdan iboratdir" degan qarashlar avjiga chiqadi. Shu tariqa axborot makonlarida "demokratiyani dunyoga yoyish" siyosatining bayoni berila boshlanadi.

**Diniy bag'rikenglik** – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi.

**Demokratik institutlar** – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.

**Suverenitet**- davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi. Davlat suvereniteti mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borish, o'z hududining daxlsizligini ta'minlash; qonunlarni qabul qilish; urush va tinchlik masalasini hal qilish; sud hokimiyatini amalga oshirish; mansabdor shaxslarni tayinlash; mustaqil valyutaga ega bo'lishni taqozo qiladi. Davlat suvereniteti g'oyasi BMT hujjatlarida, turli davlatlarning konstitusiyalarida o'z aksini topgan. Respublikamizning mustaqilligi davlat mustaqilligining asosidir. O'zbekiston Konstitusiyasi 1–moddasida "O'zbekiston –suveren demokratik respublika" ekanligi belgilab qo'yilgan. Bizning siyosiy mentalitetimiz suverenitetning mazmun mohiyatini mustaqillik tushunchasi orqali ifodalaydi.

**Jahon siyosati** - xalqaro huquqning asosiy subyektlari o'rtasidagi faol siyosiy faoliyatlar majmuasidir. Xalqaro siyosat tuzilishi jihatidan suveren, mustaqil milliy davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatn, mintaqaviy davlatlararo va jamoatchilik tuzilmalari, guruhleri va ittifoqdoshlar o'rtasidagi aloqalarni hamda umumbashariy miqyosda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va muassasalar faoliyatlarini qamrab oladi.

**Liberalizm** – huquq va siyosat borasida (eng minimal darajadagi insonparvarlik, individualizm, etnik va madaniy egalitarizm singari) so'lchilikka oid xususiyatlarni, iqtisodiyot borasida esa (bozor, xususiylashtirish, xususiy mulk, kapitalizm) o'ng xususiyatlarni o'zida mujassam etgan dunyoqarash. G'arb dunyosining yetakchi mafkurasi. Liberalizmning siyosiy ifodasi liberal-demokratiyadir.

**Manqurt** – «Manqurt» o'z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o'zi tuqqan onasini ham unutmagan, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to'la bo'ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida «Manqurt» afsonasidagi shaxs obrazi.



**Milliylik** – muayyan xalqqa xos bo‘lgan, uni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an‘analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Millatchilik** – o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haququqlaridan yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim

**Ma‘naviyat** – (arab. – ma‘nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

**Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli.

**Mentalitet** – (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

**Mustaqillik** – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqloq so‘zi bilan yaqin ma‘noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

**Milliy g‘urur** – 1)shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma‘naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘-e‘tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

**Muholifat** – (arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo‘l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo‘lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

**Ma‘rifat** – Ma‘rifatning lug‘aviy ma‘nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonidir. Ma‘rifat so‘zining ko‘pchilikdagi ma‘nosi maorifdir. Ma‘rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma‘lumotlar majmuasini bildiradi.

**Milliy istiqloq g‘oyasi** – Milliy istiqloq g‘oyasi O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddalarini o‘zida mujassam etadi.

**Mafkuraviy immunitet** – lotincha Immunitatis so‘zidan olingan bo‘lib – biror narsadan ozod etish ma‘nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta‘sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim

**Manipulyatsiya** - (lot, manipulus – “qo‘l harakati”) - 1) qo‘l mashqi, qo‘l harakati, shu jumladan, qo‘l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; 2) maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g‘arazli maqsadga erishish; 3) odamda ma‘lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, attityudlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta‘sir. Bu ta‘sir odamni har qanday xatti-

harakatga undashi mumkin. Ayrim mutaxassislarining ta'kidlashicha, *manipulyatsiya* - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Axborot asrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyatsiya so'zi «obyekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko'zda tutiladi. Shu sababli, "manipulyatsiya"ni ko'chma ma'noda "odamlar bilan obyekt sifatida munosabatga kirishish" deb ham tushunish mumkin. Sotsiologik tadqiqotlarda bu haqda «boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan hulq-atvorni shakllantirish» deyiladi.

**Makon** - geosiyosatning asosiy tushunchasi bo'lib, u miqdor va sifat ko'rsatkichiga ega bo'lmagan kategoriya hisoblanadi. Makonning tarkibiy tuzilishi tarixning tarkibiy tuzilishini oldindan belgilaydi - geosiyosatning fan sifatidagi asosiy tezisi ana shundan iborat.

**Ommaviy madaniyat**—jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo'lgan madaniyat. U o'z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, popmusiq), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi. «Ommaviy madaniyat» mohiyatiga ko'ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqeahodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to'lib toshgan. «Ommaviy madaniyat» o'z nomi bilan omma, ya'ni ko'pchilik ehtiyojiga mo'ljallangan bo'lib, bu shakl va mazmun standartlashganligi, shuningdek tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni taqozo etadi.

**Ommaviy axborot vositalari** – fuqarolik jamiyatining muhim instituti. OAV demokratiyani chuqurlashtirish aholining demokratik faolligini oshirishda, fuqarolik mamlakat siyosiy va ijtimoiy, madaniy hayotdagi voqealikka nisbatan daxldorlik hissini shakllantirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar, amalga oshayotgan barcha o'zgarishlar, amalga oshayotgan jarayonlar xususida keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka ko'ra ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byullitenlar va b.) va elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, telekommunikatsiya tarmog'laridagi veb-saytlar) olti oyda kamida beriladigan shakllari OAV sifatida beriladigan shakllari OAV sifatida e'tirof etiladi. XXI asrga kelib OAV davlatning hayotida muhim o'rin tuta boshladi. Texnika va texnologiyaning taraqqiyoti OAVning xalqaro munosabatlardagi mavqeini o'zgartirdi. U geosiyosiy nazorat o'rnatishning kuchli quroliga aylandi.

**Pragmatik** – o'z amaliy faoliyatida ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.

**Periferiya (markazdan chetdagi, uzoqdagi joylar)**— strategik poytaxtdan, geosiyosiy nuqtai-nazardan asosiy qarorlarni qabul qiluvchi shaxsdan uzoqda joylashgan, o'zining mustaqil geosiyosiy yo'nalishiga ega bo'lmagan makon va yerni ifodalovchi tushuncha.

**Tashviqotda “aqlni yuvish”- Miyani “yuvish”** - miyani “yuvish” (*ingl. brainwashing; brain - “miya”; wash - “yuvmoq”, “tozalamoq”*). Bu insonning avvalgi fikrlari, qarashlarini rad etib, unga o‘zgacha yoki butunlay teskari fikrlarni qabul qildirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ba’zi mutaxassislar buni nazorat ostidagi individuumlarga zo‘rluk bilan o‘tkaziladigan, o‘z fikr-e’tiqodini o‘zgarar fikrlari, qarashlari, hulqi va qarorlarida ustuvorlik qilishini ta’minlashga qaratilgan ruhiy taktika deb hisoblaydilar. Bunda qo‘rqitish, ongga ta’sir qilish, doimiy savol berish kabi usullardan foydalaniladi.

**Hududiy yaxlitlik** - chegaralar daxlsizligi va hududiy yaxlitligi birgina armiyaning harbiy salohiyatini kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Davlat hududiy yaxlitligi, uning barqarorligi, xavfsizligi, chegaralari daxlsizligini ta’minlash - uning tashqi siyosiy diplomatiyasi salohiyatiga bog‘liq geosiyosiy jarayondir. Amaliyot *davlat chegaralari* rolining geosiyosat vositasi sifatida keskin o‘sayotganligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda insoniyat xarakteriga ko‘ra misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni boshidan kechirishga majbur bo‘lmoqda. Bu hol ayniqsa geosiyosiy koordinatlar tizimidagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘lmoqda. Odatda, mazkur o‘zgarishlar davlat chegaralarida boshlanadi va kuchli aks etadi. Rasmiy belgilangan chegara bilan konkret davlat yoxud mamlakatlar guruhi ta’sir doirasi o‘rtasidagi beqiyos hajmda geosiyosiy ziddiyatlarning o‘tkirlashuvi-umumbashariy, mintaqaviy kelishmovchiliklarning kuchayib ketishiga va davlat hududiy yaxlitligiga tahdidga olib kelishi mumkin.

**Kiberterrorizm** (lot, cyber terrorism; cyber - “kiber”, terror – “qo‘rquv”, “dahshat”) – zamonaviy, ilg‘or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o‘zining g‘araz niyatlariga erishishdan iborat. Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g‘arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog‘idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo‘rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. Kiberterrorizm insoniyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o‘z yangiligi tufayli to‘la-to‘kis o‘rganib ulgurilmagan quroldir.

**Kuchlar muvozanati**- turli davlat va guruhlarining qudratiga bog‘liq o‘zaro aloqadorlikdan kelib chiqadagan hamkorlikning natijasida paydo bo‘ladi. Kuchlar muvozanati – teng vaznlilik emas, balki dinamik ravishda turli o‘yin elementlaridan kelib chiquvchi kuchlar munosabatidir. “Darvoza mamlakat” tushunchasi orqali qulay sharoitga ega bo‘lgan o‘rta miqyosdagi davlatning turli geosiyosiy bloklar mahoratlaridan unumli foydalanishi, mintaqadagi kuchlar nisbati muammosi – hozirgi xalqaro jurnalistik tahlillarning asosiy mavzusi.

**Ko‘p qutbli dunyo** - bu bir qancha ulkan makonlarning birgalikda mavjud bo‘lishini nazarda tutuvchi zamonaviy sof nazariy majmua. Bu holat faqat bir qutbli dunyo bartaraf etgildandan keyingina bo‘lishi mumkin.

**Komillik** – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan sergʻayrat, qoʻrqqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar oʻziga xos oʻlchov vositasini oʻtaydi.

**Siyosiy borliq** — bu geosiyosatning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy jurnalistikada davlat (kuch) geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayotiy mazmunini koʻrsatib beruvchi muhim omil tariqasida aks etadi. Siyosiy borliqda davlatning turmush tarzi namoyon boʻladi. Oʻz navbatida jurnalistikada borliq tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosi, uning har qanday davlatda chegaralanganligi bilan aks etib bormoqda.

**Siyosiy geografiya** – F. Ratsel tomonidan ilgari surilgan atama hisoblanib, Chellen tomonidan nomlangandan keyin ochigʻi «geosiyosat» deb nomlanadigan boʻldi.

**Separatizm** - chekka hududlarning muxtoriyatiga moyillik, uning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va strategik singari bir qancha shakllari mavjud.

**Tashqi taxdidlar** – tashqi tahdidlar asosan gʻoyaviy boʻshliq tufayli sodir boʻladi

**Targʻibot** (arab. qiziqtirish, tarqatish) – 1) keng maʼnoda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi boʻlib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy gʻoya va qadriyatlarni targʻib etishdir. Targʻibot jarayonida fan, sanʼat, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor maʼnoda, mafkura va siyosatni targʻib etishga qaratilgan faoliyat. Targʻibot ilmiylik, konkretlilik, obeʼktivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bogʻliqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan boʻlishi lozim. Muayyan zamin va makonda maʼlum bir strategik-nazariy masalalarni aholi ongiga izchil singdirishni maqsad qilgan faktor targʻibotdir. Targʻibot – biror gʻoya, taʼlimot, fikr va qarashni aholi oʻrtasida keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni koʻzlab olib boriladigan tushuntirish va daʼvatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, maʼlum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga maʼnaviy-ruhiy tayyorlash, gʻoyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

**Umuminsoniy qadriyat** – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va maʼnaviy manfaat, mezonlar majmui.

**Umumbashariy** – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin boʻlmagan muammolarga aytiladi.

**Imperiya** – diniy, axloqiy, siyosiy- mafkuraviy xarakterdagi universal gʻoya ostida bir necha davlat yoki xalqlarni birlashtiruvchi umumdavlat tuzilmasi.

**Integratsiya** – geosiyosatda bir nechta hududiy boʻlaklarni birlashishni ifoda etuvchi koʻpqirrali shakl. Integratsiya harbiy bosqinchilik yoʻli bilan ham, tinch yoʻl bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Geosiyosiy integratsiyaning bir qancha – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, til, strategik, diniy va hakozi yoʻllari mavjud. Ularning

barchasi yagona mazmundagi yakuniy natijaga – blokning strategik jihatdan yuksalishiga va hududiy jihatdan kengayishiga olib keladi.

**Feministlar**-ayollarni kamsitishlardan xalos etuvni targ'ib qiluvchi, ularning mavqeini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida targ'ib qiluvchi oqim.

**G'arb individualizmi**- inson shaxsiy hayotining alohidaligini, shaxs xuquqlarining mutlaqligini ifodalovchi axloqiy xususiyat. Individualizm alohida shaxs manfaatlarini jamoa manfaatlaridan utun ko'radi, oila manfaatini jamiyat manfaatidan alohidalikda olib qaraydi. Bugungi kunda jamiyatda ayrim kishilar faqat o'zini o'ylashlik ruhiyati bilan bog'liq sotsial ma'naviy holatlar g'arbona individualizmdan ozuqa olmoqda. Bunda o'zgalardan ustun qo'yish, boshqalarni mensimaslik, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yish illatlari yetakchi o'ringa chiqadi.

**G'oyaviy tarbiya** – jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

**G'oyaning turli ko'rinishlari** – Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.

**Shovinizm** – millatchilikning o'ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti

**Fundamentalizm** – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish

**Yurt tinchligi** – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir

**Ijtimoiy xamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi

**Ekstremizm** – O'z maqsadi yo'lida har qanday keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik.

**E'tiqod** – Dunyoqarash. Biror dinga e'tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta'limotini tan olish.

**Qadriyat** – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo'linadi.

**Fuqarolik jamiyati** – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiysiyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

**Ehtiyoj** – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**Sharqona demokratiya** - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o‘ziga xos demokratiya.

**Irqchilik** – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqilariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta’limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko‘st va noraso irqilarga ajratadilar.

**Fanatizm** – Biron g‘oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797sonli Qarori.

## **SH. Maxsus adabiyotlar**

19. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
20. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010. 204.
21. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
22. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
23. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
24. Muhammadsiddiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 226 b.
25. Muhammadsiddiqov M.M. Xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 216 b.
26. Muhammadsiddiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.
27. Muhammadsiddiqov M.M., Azimov H.Y. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.

28. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
29. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
30. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
31. Bito‘rayev O‘.B. Siyosatshunoslikka kirish. – T.: ToshDShI, 2017.
32. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
33. Yovqochev SH.A. Jahon siyosatida islom omili. –Toshkent.: ToshDShI, 2016.
34. Jumayev R. Z. Konfliktologiya. –Toshkent.: ToshDShI, 2018.
35. Jumayev R.Z., Yovqochev SH.A. Siyosiy texnologiyalar. –Toshkent.: ToshDShI, 2019.
36. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
37. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)
38. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
39. Madaminova D.I. Jahon siyosati. – Toshkent, 2019. – 228 b.
40. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quvmetodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
41. Mustapova H. I., Bito‘rayev O‘.B. Xalqaro munosabatlar nazariyasi. . – Toshkent.: ToshDShI, 2017.
42. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>
43. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2016.
44. Sayfullayev D.B. O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanish tarixi (1991-2016). – Toshkent.: ToshDShI, 2018.
45. Sayfullayev D.B. Xorijiy davlatlar diplomatik xizmati. – Toshkent.: 2018.
46. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.



#### IV. Internet saytlar

47. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz).
48. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
49. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
50. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>
51. [www.ut.uz](http://www.ut.uz)
52. [www.to.uz](http://www.to.uz)
53. [www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)
54. [www.uzbekiston.uz](http://www.uzbekiston.uz)
55. [www.jb.uz](http://www.jb.uz)
56. [www.tafakkur.uz](http://www.tafakkur.uz)
57. [www.ppch-uzbekiston.uz](http://www.ppch-uzbekiston.uz)
58. [www.yoshlar.uz](http://www.yoshlar.uz)
59. [www.ijtimoiyfikr.uz](http://www.ijtimoiyfikr.uz)
60. [www.informanalytic.ru](http://www.informanalytic.ru)
61. <http://daily.sec.ru/dailypblshow.cfm>
62. [www.ase.md](http://www.ase.md)
63. <http://www.phreaking.ru/showpage.php>